*Og'ir infeksiyalar uchun benzilpen-*

#### *itsillin-prokain miqdori:*

Har kuni 1 martadan ukol qiling.

Har ukolda:

kattalar: 600,000 ED.-1,200,000 ED. gacha, 8-12 yoshdagи bolalar: 600,000 ED.

3-7 yoshdagи bolalar: 300,000 ED.  
3 yoshga kirmagan bolalar: 150,000 ED.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun:  
boshqa penitsillin yoki ampitsillin topish mumkin bo'lganda ushbu dorini **ISHLATMANG**.

Zarur bo'lgan hollarda: 75,000 ED.

Juda og'ir infeksiyalarda yuqorida miqdoridan ikki barobar ko'p bering. Lekin qisqa ta'sirli penitsillin ishlatgan ma'qulroq.

Penitsillinga sezgir so'zak kasalligiga qarshi prokain-penitsillin ishlatish yaxshidir, lekin uni juda katta miqdorlarda ishlatish kerak bo'ladi. Miqdori xususida 631-betga qarang. Salpingit (tuxumdon va naylar) va so'zakka qarshi ishlatiladigan dorilar miqdori bir xil.

**Benzilpenitsillin-Benzatin, Bitsil-in, Ekstensillin, Retarpen** (uzoq ta'sirli)

Ko'pincha: 300 000 - 600, 000; 1,200,000 yoki 2,400,000 ED. li flakonchalarda chiqariladi.

Yengil va o'rta og'irlidagi infeksiyalar uchun Benzilpenitsillin-Benzatin ishlatining.

**Miqdori:**

Har 7 kunda 1 tadan ukol qiling.  
Yengil infeksiyalarda, 1 ta ukol yetarli bo'lishi mumkin:  
kattalar 1,200,000-2,400,000 ED.  
bolalar 8-12 yoshgacha: 900,000 ED.  
bolalar 1-7 yoshgacha: 300,000-600,000ED. gacha.

Streptokokkli tomoq yallig'lanishiga qarshi shu dorilardan birini yuqoridagi miqdorlarda bering.

Revmatik isitmasi qaytarilmasligi uchun dorini yuqoridagi miqdorda har 4 haftada bir marta ukol qiling (556- betga qarang).

Zahmni davolash uchun,  
Benzilpenitsillin-Benzatin eng yaxshidir, 439-betga qarang.

**AMPITSILLIN VA  
AMOKSITSILLIN:  
TA'SIR DOIRASI KENG  
PENITSILLINLAR**

**Ampitsillin va Amoksitsillin**

kapsulalar yoki tabletkalarda  
0.25 g. yoki 0.5 g. dan chiqariladi

Suyuq shakli: 125 mg. yoki 250 mg.  
har 5 ml. da ukol shaklida: Ampitsillin  
0.5 g. ampula.

Ta'sir doirasi keng bo'lgan bu penitsillinlar boshqa penitsillinlarga nisbatan bakteriyalarning ko'p turlarini o'ldiradi. Ular ta'sir doirasi keng boshqa antibiotiklarga nisbatan xavfsizroq; chaqaloq va bolalar uchun yaxshidir.

Ampitsillin va amoksitsillinlar ko'pincha bir-birining o'rniha ishlatalishi mumkin. Ushbu kitobda ampitsillin ishlatalishi kerak deb aytilgan hollarda amoksitsillin ishlatingiz ham mumkin, faqat kerakli miqdorlarda (quyida berilgan). Lekin **ampitsillining ukolini qiling deb aytilgan bo'lsa, amoksitsillin ishlatmang** (amoksitsillining ukoli chiqarilmaydi).

Shuningdek, amoksitsillin **Shigella kabi infeksiyalarga qarshi ta'sir qilmasligini bilib oling**. Bunday holatlarda boshqa antibiotik ishlating (269-bet).

Ampitsillin va amoksitsillinlar qimmatroq, ular ich ketar va kan-didamikoz (zamburug', po'panak kasalligi) sababchisi bo'lishi mumkin. Shuning uchun, penitsillin bilan davolanishi mumkin bo'lgan kasalliklarga Ampitsillin va Amoksitsillinlar ishlatmagan ma'qul (141- bet).

Ampitsillin ichilganda ham yaxshi ta'sir qiladi. Uning ukollari meningit, peritonit va appenditsit

kabi og'ir infekzion kasalliklarda yoki bemor qayt qilib dori icha ol-maydigan hollarda ishlataladi.

Ampitsillin va amoksitsilinlar ko'pincha o'pka shamollahshi (zotiljam), qulq infeksiyasi, sinusit yoki bronxit, siydiq yo'llarining og'ir infeksiyalari, so'zak va ich terlama (agar u levomitsetinga chidamli bo'lsha) kabi kasalliklarni davolash uchun yaxshidir.

Ampitsillin, shuningdek, septitsemiya va yangi tug'ilgan chaqa-loqdagi noaniq infekzion kasallik, meningit, peritonit va appenditsitda ham foydali bo'lishi mumkin.

Penitsillinga allergiyasi bor kasallar ampitsillin yoki amoksitsillin ichmasliklari kerak.

Penitsillinlarning nojo'ya ta'siri va ularga qarshi ko'rildigan ehtiyyot choralarini bilish uchun 629-betga qarang.

### **Ampitsillin va Amoksitsillin miqdori:**

#### **Ichishga:**

Har bir kilo uchun 8-15 mg., kuniga 3-4 mahal. Tabletka, Kapsulalar - 0.25, 0.5 g. li Sirop - har choy qoshig'ida (5 ml.da ) 0.125. yoki 0.25 g. ga to'g'ri keladigan qilib chiqariladi.

Ampitsillin: Kuniga 4 mahal.

Amoksitsillin: Kuniga 3 mahal.

### ***Har safar beriladigan miqdori* (dozasi) :**

(125 mg. 1 choy qoshiqda bo'lsha) kattalar: 0.5 g

8-12 yoshdagи bolalar: 0.25 g. 2 choy qoshiqda.

3-7 yoshdagи bolalar: 0.125 g, 1 choy qoshiqda.

3 yoshga kirmagan bolalar: 62 mg., 250 mg. li kapsulaning 1/4 qismi yoki 1/2 choy qoshiq.

yangi tug'ilgan chaqaloqlar: 3 yoshga kirmagan bolalarniki bilan bir.

Levometitsetinga chidamli bo'lib qolgan ich terlamaga qarshi ampitsillin ukolini har safar 1.0-1.5 g. dan 4 mahal qiling (yoki har bir kilo uchun 50 mg. hisobidan har 6 soatda tabletkasini berib turing) yoki har bir kilo uchun 33 mg. har 8 soatda amoksitsillin ishlating.

So'zakka qarshi miqdorlarni tanlash uchun 437-betga qarang.

### **Ampitsillin miqdori:**

#### **Ukollar:**

Og'ir infeksiyalarda— (meningit-larda har bir kilo uchun 25 mg.

dan - 75 mg. gacha har 6 soatda) ishlatalidi. Flakonlarda 0,5 g. dan chiqariladi.

Kuniga ukolni har 6 soatda bir marta qiling.

**Bir mahallik miqdori:**

kattalar: 0,5 -1 ,0 g. 8-12 yoshdagi bolalar: 0,250 g. (0,5 g. li flakonchaning 1/2 qismi)

3-7 yoshdagи bolalar: 0,125 g. (0.5 g. li flakonchaning 1/4 qismi)

3 yoshga kirmagan bolalar: 100 mg. (0,5 g. li flakonchaning 1/5 qismi). yangi tug'ilgan chaqaloqlar: 75 mg. (0.5 g. li flakonchaning 1/6 qismi)

Infeksiya belgilari yo'qolganidan keyin ham ampitsillin berishni kamida 2 kun davom ettiring.

**TA'SIR DOIRASI KENG ANTIBIOTIKLAR MAKROLIDLAR**

**Eritromitsin:**

0,25 g. li tabletka yoki kapsulalarda. Sirop: 5 ml. da 125 yoki 200 mg. dan chiqariladi.

Eritromitsini penitsillin va tetratsiklinga o'xshaydigan ta'siri bor. Dunyoning turli burchaklarida eritromitsin penitsillinga nisbatan zotiljam(pnevmoniya)ning ba'zi turlari va ma'lum teri kasalliklariga qarshi yaxshiroq ta'sir qiladi.

Eritromitsin penitsillinga allergiyasi bor odamlarga ishlatalishi mumkin. Shuningdek, uni tetratsiklinga allergiyasi bor odamlar va tetratsiklin ichish mumkin bo'limgan homilador ayollar va bolalar ichishi ham mumkin.

Har bir kasallik to'g'risida batafsil yozilgan boblarga qarang.

Eritromitsin xavfsiz, lekin aytilgan miqdordan ortiq ichmaslikka harakat qiling.

Uni 2 haftadan ortiq ichmang, chunki u sariq kasalligiga olib kelishi mumkin.

**Eritromitsin miqdori:**

Oshqozon og'rimasligi uchun dorini ovqat bilan ichgan ma'qul.

Bir kunda 4 mahal bering.

Bir mahallik miqdor:

kattalar: 0,5 g.

8-12 yoshdagи bolalar: 0,25 g

3-7 yoshdagи bolalar: 0,15 g, 1 choy qoshiq siropdan.

3 yoshga to'limgan bolalar: 0,75-0,15 g, yarim choy qoshiq siropdan.

**AZITROMITSIN (Sumamed, Zitromaks)**

Ta'sir doirasi keng shu mak-

roldi guruhidagi antibiotiklar ko'p infeksiyalar (o'pka, teri infeksiyalar, faringit)ga bir o'zi 5 kun ichida davolashi mumkin va xlamidiya, yumshoq shankr kabi kasallikkarni esa bitta miqdor (doza) bilan bar-taraf etishi mumkin.

250 mg.li kapsulalarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

15 yoshdan katta bolalar va kattalar: o'pka, teri infeksiyalar, faringitlarda: birinchi kuni 500 mg. dan bir marta, so'ng 250 mg. (bir kapsula)dan har kuni 2-5 kun davomida beriladi. Gonokokksiz uretritlar va servitsitlar (bachadon bo'yinchasining yallig'lanishi) yoki yumshoq shankrni davolash uchun 1,0mg. ni bir marta bering.

O'rta Otit (o'rta quloqning shamollashi) (6 oydan katta bolalar): har bir kilo uchun birinchi kuni 10 mg. bering, so'ng har bir kilo uchun 5 mg. dan berishni davom ettiring.

Tonzilit (2 yoshdan katta bolalar uchun) har bir kilo uchun 12 mg. dan kuniga bir mahal.

### **TETRATSIKLINLAR.** **Ta'sir doirasi keng antibiotiklar**

#### **Tetratsiklin (Apsiklin)**

Ko'pincha 100 mg. li (100.000 E.D.) tabletkalarda va 250 mg. li kapsulalarda chiqariladi.

Tetratsiklin ta'sir doirasi keng antibiotikdir; u talaygina ko'p va turli xil bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

Tetratsiklin ichilgani ma'qul, chunki u ichilganida ham yaxshi ta'sir qilib, ukolga nisbatan kamroq muammolarga sababchi bo'ladi.

#### **Tetratsiklin quyidagi hollarda ishlatalishi mumkin:**

Xelikobaktor pilori tufayli kelib chiqqan 12 barmoq ichak va oshqozon yaralari, bakteriya yoki amyo-balar chiqqan ich ketar yoki ich burug'(dizenteriya), sinusit, nafas yo'llari kasallikkarni (bronxit va bosh-qalar) siyidik yo'llari kasallikkarni, tif (terlama), brutsellyoz, vabo, shilpiq (traxoma), o't pufagi infeksiyalar. Xlamidiya, so'zak, salpingit, bezgak (xloroxinga chidamlı bo'lgan)

Tetratsiklin oddiy shamollash (tumov)ga yaxshi ta'sir qilmaydi. Bunda va boshqa ko'p kasallikkarda penitsillin va sulfanilamidlar yaxshiroq foyda beradi. Uning ishlatilishi chegaralangan bo'lishi kerak.

#### **Xavfi va Ehtiyyot choraları:**

1. Homilador ayol tetratsiklin ichmasligi kerak,

chunki u homilaning tish va suyaklarini shikastlashi yoki rangini o'zgartirishi mumkin.

Shuning uchun 8 yoshga to'imagan bolalar ham tetratsiklini faqat zarur vaqtarda va qisqa muddat davomida ichishlari kerak. Uning o'rniiga eritromitsin ishlating.

2. Tetratsiklin ichilganda, ayniqsa, ko'p ichilganda, ich ketar yoki qorin og'rig'iga olib kelishi mumkin.

3. „Eskirib” qolgan-saqlanish muddati tugagan tetratsiklin xavflidir.

4. Tetratsiklin yaxshi ta'sir qilishi uchun, dorini ichilgandan so'ng 1 soat davomida sut yoki antatsidlar (Almagel, Alyumag, Gastal, Protab) ichilmasligi kerak.

5. Tetratsiklin ichgandan so'ng oftob ta'sirida toshmalar paydo bo'lishi mumkin.

#### **Tetratsiklin Miqdori:**

har bir kiloga 5-10 mg. dan 4 mahal bering.

Tetratsiklinni 4 mahal iching.

Bir mahallik miqdori:  
kattalar: 250 mg.  
8-12 yoshdagisi bolalar: 125 mg.

Odatda **8 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun:**  
**tetratsiklinni ishlatmang**, uning o'rniiga ko-trimoksazol (Biseptol, T-iseptol, Baktrim) yoki eritromitsin ishlating.

So'zak, xlamidioz, salpingit va boshka ginekologik kasalliklar, vabo, tif (toshmali terlama) va brutsellyoz kabi kasalliklarning og'ir hollarida miqdorni ikki barobar ko'paytiring (bolalar uchun mo'ljalangan miqdordan tashqari).

Ko'p kasalliklarda tetratsiklin infeksiya belgilari yo'qolib ketgandan so'ng ham 1 yoki 2 kun davomida ichilishi kerak (odatda hammasi bo'lib 7 kun).

Ba'zi kasalliklar uzoqroq davolanishi kerak: Toshmali terlama 6 kundan 10 kungacha, brutsellyoz 2 haftadan 3 haftagacha, so'zak va xlamidiozda 7 kundan 10 kungacha va salpingitga 10 kundan 14 kungacha 4 marta, vabo ko'pincha qisqaroq muddat: 3 kundan 5 kungacha davo qilinadi.

#### **Doksitsiklin (T-Doksi, Vibramitsin)**

100 mg. li kapsula va tabletkalar, 100 mg. li ukol uchun bo'lgan amulalarda chiqariladi.

Doksitsiklin tetratsiklin guruhining qimmatroq vakili bo'lib, u kuniga 4 mahal emas, balki 2

mahal ichiladi.

Iloji bo'lganda u tetratsiklin ishlataladigan kasalliklarga qarshi ishlatalishi mumkin. Doksitsiklin sut yoki ovqat bilan ham ichilishi mumkin. **Uning xavf va ehtiyyotkorlik choralarini tetratsiklin bilan bir xil** (637 - bet).

### **Doksitsiklinning miqdori:**

100 mg. li tabletkalar

Doksitsiklin tabletkasini kuniga 2 mahal ichiring.

Bir martalik miqdori:

kattalar: 100 mg. (1 tabl.)

8 yoshdan 12 yoshdagi bolalar: 50 mg. (1/2 tabletka)

8 yoshgacha bolalar: **Doksitsiklin ishlatmang.**

### **LEVOMITSETIN:**

MA'LUM OG'IR INFEKSION KASALLIKLARGA QARSHI ANTIBIOTIK DORI

### **Levomitsetin (Xloramfenikol)**

Ko'pincha: 250 yoki 500 mg. li tabletkalar, 250 mg. li kapsula, mikstura 5 ml.da 125 mg. (suyuqlik). ukollar uchun: 1,0 g. li flakonchalar da chiqariladi.

Ta'sir doirasi keng bo'lgan bu antibiotik ko'plab turli bakteriyalarga qarshi kurashadi. U arzon, ammo

uning ishlatalishi biroz xavflidir. Shuning uchun uning ishlatalishi chegaralangan bo'lishi kerak.

Levomitsetin sulfanilamid, tetratsiklin, penitsillin, ampitsillin bilan davolanib bo'lmaydigan jiddiy infeksiyalarga qarshi ishlatalishi kerak. Meningit, peritonit, isitma, tif (toshmali terlama), ich terlama, chuqur ichak jarohatlari, septit-semiya yoki tug'ruqdan keyingi isitmaning og'ir turlari kabi hollarda, xavfsizroq (sefalosporin kabi) dori topilmasa, levomitsetindan foydalanishingiz mumkin.

Ampitsillin, odatda, levomitsetin kabi ta'sirga ega bo'lib, unga nisbatan xavfsizroqdir.

### **EHTIYOT BO'LING:**

Levomitsetin ba'zi odamlarning qoniga zarar yetkazadi. U, ayniqsa, yangi tug'ilgan va mudatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlar uchun xavflidir.

Jiddiy infeksiyalari bor chaqaloqlarga levomitsetin o'rniiga iloji boricha ampitsillin bering.

**Qoida sifatida:** 1 oydan kichik chaqaloqlarga levomitsetin bermang.

Levomitsetinni tavsiya qilin-gan miqdordan ko'p bermaslikka e'tibor bering.

Chaqaloqlar dozasi juda oz (quyiga qarang).

Dorini uzoq va takror ishlatmaslikka harakat qiling.

Ich terlamaning davolanishida, bemor shifoxonaga tushgan zahotiyoy levomitsetinning o'rniiga ampitsillin ishlatning.

Ich terlama levomitsetinga chidamli deb tan olingen joylarida, uning o'rniiga ko-trimaksazol, siprofloksatsin yoki sefotaksim ishlatning.

Ichiladigan levomitsetin ukoliga nisbatan foydaliroq va xavfsizroqdir.

Kasal yuta olmaydigan holdardan tashqari levomitsetinni ukol qilmang.

**Miqdori:**  
har bir kilo uchun 13-25 mg. dan 4 mahal,  
eng katta miqdori 1,5 g. dan kuniga 4 mahal.

Kuniga 4 mahal iching

Bir martalik miqdori: kattalarga: 500 mg. dan 750 mg. gacha.

Ich terlama, peritonit kabi xavfli infeksiyalarda kattaroq miqdor berilishi kerak.

8 - 12 yoshdagagi bolalar: 250-300 mg.

3 - 7 yoshdagagi bolalar: 125-200 mg., 1-1,5 choy qoshiq.

1- 2 yoshdagagi bolalar: 120 mg., 1 choy qoshiq.

6-12 oylik bolalar uchun: 90 mg. , 2/3 choy qoshiq.

2 haftalik 6 oygacha bo'lgan bolalar uchun: 50 mg. , 1/3 choy qoshiqdan.

Odatda: yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun levomitsetin ishlatmang. Agar boshqa iloji bo'lmasa, vazzining har kg. uchun 25 mg. dan kuniga faqatgina 1 mahal berasiz. Bundan ortiq bermang (masalan, 3 kg. bo'lgan bolaga 75 mg. dan (yarim choy qoshiq) har kun bir mahal beriladi).

## SULFANILAMIDLAR - ODDIY INFEKSION KASALLIKKA QARSHI ISHLATILADIGAN ARZON DORILAR

Sulfanilamidlar ko'p bakteriyalarga qarshi kurashadi, lekin ular boshqa antibiotiklarga nisbatan kuchsizroq allergik ta'sirlar (qichishish) va boshqa muammolarga sababchi bo'lishi mumkin.

Lekin ular arzon va ichiladigan bo'lganligi uchun foydalidir. Sulfanilamidlar, asosan, siyidik

yo'llari infeksiyalarida ishlatiladi.

Shuningdek, ular ba'zi qulqasalliklari, sachratqi va boshqa yiringli infekcion teri kasalliklarida ishlatilishi ham mumkin.

Hamma sulfanilamidlarning ishlatilish miqdori va maqsadi bir xil emas.

Agar siz yuqorida aytilgan sulfanilamidlarning birini ishlatmoqchi bo'lsangiz uning miqdori va ishlatilishini ko'rib chiqing.

Sulfatiazol (Norsulfazol) yuqorida aytilgan sulfanilamidlar guruhiga kiradi, shuningdek, u arzondir, lekin uni ishlatish maslahat berilmaydi, chunki uning salbiy ta'sirlari ko'proq.

Sulfanilamidlar ich ketarda ko'p yordam bermaydi, chunki ich ketarga olib keladigan mikroblarning ko'plari bu doriga chidamli bo'lib qolgan.

Shuningdek, ich ketib, suvsizlangan odamga sulfanilamid berilganda, buyrak og'ir darajada shikastlanishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING:** Sulfanilamidlar buyrakka shikast yetkazmasligi uchun, **ko'p suv iching;** bir kunda kamida 10 katta piyola choy.

Agar sulfanilamid toshma, qichishish, bo'g'imda og'riq, isitma, bel pastki qismining og'rishi yoki siyidikda qon paydo bo'lishiga olib kelsa, **uni ichishni to'xtating va ko'p suv iching.**

***Sulfanilamidlarni hech qachon suvsizlangan yoki 2 oyga-cha bo'lgan bolalarga bermang.***

**Eslatma:** Sulfanilamidlar yaxshi ta'sir qilishi uchun ularni davolovchi miqdordan ortiq bermang.

Doim yetarli bo'lsin, ammo ko'p ishlatmayotganingizga e'tibor bering.

**Sulfametoksazol + Trimetoprim (T-isepol, Ko-Trimoksazol, Bi-sepol, Groseptol, Baktrim, Ber-lotsid, Septra, Primotren, Siner-sul, Sumetrolim, Oriprim).**

400 mg. Sulfametoksazol + 80 mg. Trimetoprim tabletkalari 200 mg. Sulfametoksazol + 40 mg. Trimetoprim 5 ml. dagi suspenziya (100 mg. Sulfametoksazol + 20 mg. Trimetoprim tabletkalari ham chiqariladi).

Bularni bolalar va emizikli ayollarda ishlatish mumkin.

Toshma toshsa bu dorini ichmang.

**E'tibor bering:** *iloji bo'lsa, homiladorlarga bu dorini bermang. Ayniqsa, homiladorlikning oxirgi davrida ichilmasligi kerak.*

**Eslatma:** Ushbu dori mikdori ikki barobar kuchaytirilgan 840 mg.li tabletkalar ko'rinishida ham chiqariladi (Baktrin DS va Septra DS). Bunday tabletkaning yarmini ishlating.

Bu murakkab dorilar birikmasi ko'p bakteriyalarga qarshi kurashadi va ampitsillinga nisbatan arzonroq.

Sulfametoksazol + Trimetoprim birikmasi quyidagi kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi mumkin:  
siydik yo'llari infeksiyalari,  
qon aralash va isitmali ich ketar(shigellyoz),  
Ich terlama (tifoid),  
vabo,  
brutsellyoz,  
nafas yo'llari infeksiyalari (pnevmoniya), sachratqi,  
quloq infeksiyalari,  
so'zak.

#### **Miqdori:**

T-isep tol (biseptol- 480: sulfometaksazol- 400 mg. va Trimetoprim 80 mg. tabletkalar, hamda suyuq shakli uchun choy qoshiqlarda o'lchanadigan) miqdori:

**Kuniga 2 marta ko'p suv bilan bering!**

Bir martalik mikdori:

kattalar va 12 yoshdan oshgan bolalar:  
2 tabletka yoki 4 choy qoshiq.  
9 -12 yoshdagи bolalar: 1 1/2 tabletka yoki 3 choy qoshiq.  
4 - 8 yoshdagи bolalar: 1 tabletka yoki 1,5- 2 choy qoshiq.  
1 - 3 yoshdagи bolalar: 1/2 tabletka yoki 1 choy qoshiq.  
2 oylik - 1 yoshdagи bolalar:  
1/4 tabletka yoki 1/2 choy qoshiq kuniga 2 mahal.

#### **2 oydan kichik bolalarga bering!**

Siydik yo'llari infeksiyalarida yuqoridagi miqdorni 7-14 kun bering.

O'tkir bronxit va ich terlamalarda dorini 14 kun bering.

Qonli ich ketar bilan og'rigan bemorlarga dorini 5-7 kun ichiring.

So'zak uchun dorining katta miqdori ishlatilishi kerak (638 - bet).

#### **Sulfadimezin 0,25; 0,5 g. tabletka.**

Sulfadimezin siydik yo'llari infeksiyalarini davolash uchun ishlatilishi mumkin.

***Miqdori:***

Kattalar: 2,0 g birinchi mahal, keyin 0,5 - 1,0 g kuniga 2 mahal.

Bolalar: Har kilosiga 4 mg. dan 2 mahal

**2 oydan kichik bolalarga bermang!**

Kattalar: 0,5 g. - 2,0 g. har 6 soat  
Bolalar:

6-12 yoshdagi: 0,25-1,0 g har 6 soat

1-5 yoshdagi: 0,15 - 0,5 g har 6 soat

6 oy-1 yoshdagi: 0,1 - 0,25 g har 6 soat

**Nitrofurantoin (Furadonin)**

Ushbu dori siydik yo'llari infeksiyalarida ishlatiladi, uni homiladorlik davrida ham ichish mumkin.

25; 50; 100 mg. li kapsula va tablet-kalarda chiqariladi.

***Ehtiyyot choraları:***

1. Tug'ish vaqtı oz qolgan homilador (38- 42 haftalik) ayollariga bermang.

2. 1-oydan kichik chaqaloqlarga bermang.

3. Siydik jigar rang bo'lishi mumkin, lekin bu xavfsizdir.

***Miqdori:***

kattalar va 12 yoshdan katta bolalar: 50-100 mg. kuniga 4 mahal.  
1 oydan 12 yoshgacha bolalar: har bir kilo uchun 1,5 mg. dan har 6 soatda.

**AMINOGLIKOZIDLAR**

**Gentamitsin (Garamitsin), Tobramitsin (Brulamitsin, Nebsin), Streptomitsin, Kanamitsin.**

Ushbu dorilar faqat jiddiy kasalliklarda, zarur paytda ishlatilishi kerak. Ular karlik, buyrak shikastlanishi yoki ishdan chiqishi kabi jiddiy muammolarga ham olib kelishi mumkin.

Streptomitsin ham ushbu guruhga kiradi, ammo u odatda faqat silni davolash uchun ishlatiladi. (Sil xususida 685-betga qarang).

Bu dorilar malakali tibbiyot xodimlari tomonidan, boshqa xavfsizroq dorilar topilmaganda yoki ular qimmatligida ishlatilishi mumkin.

Ushbu dorilar ishlatilishi shart bo'lgan alohida kasalliklar to'g'risida davolash haqidagi boblarda aytib o'tilgan. Umuman aminoglikozidlar jiddiy buyrak infeksiyalari,

o'pka shamollash yoki salpingit kabi kasalliklarda ishlataladi (646-betga qarang).

Ushbu dorilarni xavfsizroq va osonroq ishlatish uchun antibiotiklarni yangi „Bir kunlik” ishlatilish usuli ishlab chiqarilgan.

Lekin kuniga 2 yoki 3 mahal „eski tavsiyalar” hali ham bolalarda ishlatilib kelinmoqda, balki bu ham kelajakda o'zgarishi mumkin.

Kitobda kattalarning miqdori yangi bir kunlik uslub bo'yicha yozilgan. Bolalarga esa "eskicha usul bo'yicha", kuniga 2-3 mahal berilgan.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, kattalarda "bir kunli" uslub kuniga bir necha marta qilinadigan ukollar bilan bir xil ta'sir qiladi, shuningdek, u buyrak, jigarni shikastlash, eshitish va quloqni og'ir bo'lib qolish muammolariga kamroq sabab bo'ladi.

Gentamitsin (Garamitsin) va Tobramitsin (Brulamitsin, Nebsin) 40 mg. -1 ml. da; 80 mg. -2 ml. da ampula yoki flakonchalarda.

**Miqdori:** (Gentamitsin va Tobramitsining miqdori bir xil):

kattalar va 12 yoshdan katta bolalarga: 240-320 mg. har 24 soat

(6-8 ml.dan kuniga bir mahal.)  
Bolalarga quyidagi bir martalik miqdorda har 8 soatda takror berib turing.

10-12 yoshdagи bolalarga: 60 mg.  
(1,5 ml.) 6-9 yoshdagи bolalar: 40 mg. (1,0 ml.)  
2-5 yoshdagи bolalar: 20 mg. (0,5 ml.)  
6 oylik-2 yoshdagи bolalar: 13 mg.  
(0,3 ml.)  
6 oylik bo'limgan bolalarga: 7 mg.  
(0,18 ml.)

### Kanamitsin

0,5 ; 1,0 g. li flakonlarda chiqariladi

### **Miqdori:**

kattalar: 0,750-1,0 g. har 24 soat  
9 -12 yoshdagи bolalar: 375 mg. har 12 soatda  
6 - 8 yoshdagи bolalar: 250 mg. har 12 soatda  
2-5 yoshdagи bolalar: 170 mg. har 12 soatda  
6 oylik bo'limgan bolalarga: 40 mg. har 12 soatda

### Streptomitsin

0.25; 0.5 va 1.0 g. flakonchalarda.

### **Miqdori:** (Sil kasalligi uchun)

Kattalarga: 1.0 g. kuniga bir mahal  
Bolalarga: har bir kilo uchun 20-40 mg. dan kuniga bir mahal (1,0 g. gacha)

## Ehtiyyot choralari:

1. Homiladorlikda Kana-mitsin, Tobramitsin, Strep-tomitsinlarni ishlatmaslikka harakat qiling. Lekin juda zarur bo'lsa, Gentamitsin (Garamitsin) homila-dorlikda ham ko'llanmokda.

2. Operatsiyadan avval ish-latmang, chunki dori odamlarni nar-koz ishlataladigan dorilarga bo'lgan sezuvchanligini kuchaytirishi mum-kin.

3. Katta yoshdagи odamlar (60 dan oshgan) dorini kamroq ishlatishlari kerak, chunki ularning buyraklari yaxshi ishlamaydi.

4. Buyraklari yaxshi ishla-maydigan odamlarda ishlatmang. Garchi u buyrak infeksiyalariga qarshi ishlatsa ham.

5. Dorini uzoq vaqt ishlat-mang, chunki bu karlik, buyrakning shikastlanishi yoki hatto ishdan chiqishi xavfini oshiradi.

## SEFALOSPORINLAR

Bular nisbatan yangi chiqqan kuchli antibiotiklar bo'lib, bakteri-yalarga qarshi ishlataladi. Ular boshqa antibiotiklarga qaraganda qimmatroq va faqat tavsiya qilin-ganda yoki arzon dorilar yo'q hollar-da ishlatalishi kerak.

Quyidagi kasallikkarda ishlati-ladi:  
pnevmoniya (zotiljam), siydiq yo'llari infeksiyalari, ichak va ginekologik kasallikkari, suyak va teri infeksiyalari, meningit, tifoid (ich terlama), dizenteriya (qonli ich burug'), penitsillinga chidamli so'zak.

Ushbu dorilar umuman ol-ganda bir qancha xavfsiz va salbiy ta'sirlari kam. Homilador ayollarga ham ularni ishlatsa bo'ladi.

Sefalosporinlar 1chi, 2chi va 3chi avlodlarga bo'linadi. Ushbu kitobda biz 1chi va 3chi avlodga kiritilgan ba'zilarini aytib o'tamiz.

1chi avlod:

### **Sefalosporinlar.**

Teri va Suyak infeksiyalari, zotiljam (pnevmoniya) kabi nafas yo'llarining ba'zi infektion kasallikkari va gine-kologik infeksiyalarga yaxshi natija beradi.

**Sefazolin** (Kefzol, Ansef, Totatsef, Ssefamezin)

0,25; 0,5; 1,0 g. flakonlarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

Kattalar har 8 soatda 1-3 g dan. 1 oylikdan katta bolalar: har bir kilo uchun 20-30 mg. dan har 8

soatda.

**Sefaleksin** (Suksil, Ospeksin, Piasan, Sporideks, Kefleks), 0.25-0.5 g. li tabletka yoki kapsulada chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar va 12 yoshdan katta bolalar: har 8 soatda 0.25-1.0 g. dan Bolalar: har bir kilo uchun har 8 soatda 8-16 mg. dan bering.

3chi avlod:

**Sefalosporinlar.**

Meningit,  
ichak infeksiyalari,  
pnevmoniya (Zotiljam),  
salpingit,  
so'zak,  
tifoid (Ich terlama),  
suyak va bo'g'imlar infeksiyalarini davolashda ishlataladi.

**Seftriakson** (Rotsefin, Lendatsin, Oframaks)

Muskul yoki venaga yuborish uchun 0.25;  
0.5; 1.0 g. li flakonlarda chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar: kuniga 1-2 g. dan bir mahal yoki 2 mahal (meningitlarda 1-2 g. dan 2 mahal).  
Balalarga: har bir kilo uchun 50-75

mg. dan har 12 soatda (meningitlarda har bir kilo uchun 100 mg. dan kuniga 2 mahal ishlating).

Asoratsiz o'tayotgan so'zakda: 125-250 mg. dan bir marta.

**Sefotaksim** (Klaforan, Sefantral)

Muskul yoki venaga yuborish uchun 0.5;  
1.0g. li flakonchalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar uchun: har 6 soatda 1-2 g.  
dan  
6-11 yoshdagи bolalar: 1 g. har 6 soatda.  
2-5 yoshdagи bolalar: 500 mg. har 6 soatda 4-24 oylik chaqaloqlar: 333 mg. har 6 soatda (1 g. li flakonning uchdan bir qismi)  
0-3 oylik chaqaloqlar: 250 mg. har 8 soatda. Og'irlashmagan so'zakda 500 mg. bir marta.

Organizmning ichki a'zolari hamda ko'zga tarqalib ketgan so'zakda:  
Kattalar: har 8 soatda 1g. dan.  
Yangi tug'ilgan chaqaloqlar va bolalar: har bir kilo uchun 25-50 mg. dan har 8-12 soatda.

**Sefiksim** (Sefopan)

Bu kuchli antibiotik bo'lib uni faqat kuniga bir mahal ichish mumkin. U quyidagi kasallikkarda ishlati-

ladi:

qulq infeksiyalari,  
bronxit buyrak va tomoq infeksiyalari,  
so'zak,  
ich terlama 200-400 mg. li tabletka ko'rinishida chiqariladi.

### ***Miqdori:***

Kattalar: 400 mg. dan kuniga bir mahal (og'irlashmagan so'zak uchun faqat bir miqdor bering.)  
6 oydan katta bolalar: har bir kilo uchun 8 mg. dan bir mahal ichiriladi.  
Ich terlama bo'lsa, 8 kun mobaynida har bir kilo uchun 10-15 mg. dan har 12 soatda.

## **XINOOLNAR**

Xinolonlar yangi kuchli dorilardir.  
Lekin ularni homilador va emizikli ayollar ishlatmasligi kerak, ularni bolalarga ham bermang.

Ular quyidagi kasallikkarda ishlataladi:  
teri va suyak infeksiyalari,  
siydiq yo'llari va prostata bezi infeksiyalari,  
ich ketarning ba'zi bir turlari,  
ich terlama (tifoid),  
boshqa dorilarga chidamli bo'lib qolgan sil, so'zak,  
xlamidiya,  
moxov

Ular ovqatdan 30-60 minut oldin ichilishi kerak.

### **Norfloksatsin (Girotsid, Norfloks, Urospez, Yunibid)**

400 mg. li tabletka ko'rinishida chiqariladi.

### ***Miqdori:***

Siydik yo'llari infeksiyalarda:  
kattalarga 400 mg. dan kuniga 2 mahal,  
10 - 21 kun davomida ichiladi.

Og'irlashmagan so'zakda: 800 mg. bir marta

Prostata bezi infeksiyasida: 28 kun davomida 400 mg. dan kuniga 2 mahal.

Qon aralash ich ketarda: 5 kun davomida 400 mg. dan kuniga 2 mahal

### **Siprofloxatsin (Sifloks, sipro, siprolet, sefobak, siteral, siprokor)**

0.25 g ; 0.5 g va 0.75 g tabletkalari, ko'z tomchilari va vena ichiga yuborish uchun flakonlarda chiqariladi.

### ***Miqdori:***

Og'irlashmagan so'zakda: 250 g. faqat 1 marta.

Siydik yo'llarining oddiy infeksiyalarida: kuniga 2 mahal 250 mg. dan 5-7 kun ichiladi.

Isitmali, qonli ich ketar, ich terlama (tifoid), suyak va bo'g'im infeksiyalarini, siydik yo'llarining og'ir infeksiyalarini: 500 mg. dan kuniga 2 mahal.

Suyak, bo'g'im, teri infeksiyalarini, moxov (Dorilar haqidagi "Yashil Sahifalar" bolimining 11 va 12 - qismlariga qarang), Sil kasalligi uchun 17 qismiga qarang): 750 mg. dan kuniga 2 mahal beriladi.

### **Ofloksatsin (Tarivid)**

Odatda 0.2 g. li tabletkalarda chiqariladi.  
0.3 g., 0.4 g. li tabletkalari ham bor, tomirga qilinadigan ukol va ko'z tomchilari shaklida ham sotib olinishi mumkin.

### **Miqdori:**

Ko'z infektion kasalliklarida, 1 yoshdan katta bo'lgan bolalar va kattalar: har 4 soatda 1-2 tomchidan 2 kun davomida, so'ng 5 kun davomida kuniga 4 mahal tomizing.

Teri infeksiyalarini, bronxit va oddiy pnevmoniya: 400 mg. dan kuniga 2 mahal bering.

Oddiy so'zakning boshlanishida:

400 mg. bir marta.

Erlik olati yoki qindan ko'p, hidli ajralma chiqqanida (xlamidiya yoki boshqa sabablardan): 7 kun davomida 300 mg. dan kuniga 2 mahal bering.

Siydik yo'llari infeksiyalarida: 3-10 kun davomida 200 mg. dan 2 mahal.

Prostatit: 6 hafta davomida 300 mg. dan kuniga 2 mahal

Brutsellyoz infeksiyalarida: 400 mg. dan kuniga bir mahal.

Ich terlama (Tifoid): 10 kun davomida 200-400 mg. dan kuniga 2 mahal bering.

Sil: 300 mg. dan kuniga bir mahal.

Moxov: 400 mg. dan har kuni 8 hafta davomida.

Qu - isitma: 600 mg. dan bir mahal har kuni 2 hafta davomida.

**Nalidiksonat Kislotasi (Negram)**  
0,5 g tabletkalarda chiqariladi.

Bu dori qonli ich ketar (Ichburug', Dizenteriya) va siydik yo'llari infeksiyalariga qarshi ishlataladi.

Homiladorlarga bu dorini bermang.

**Miqdori:**

Kattalar uchun: 1,0 g kuniga 4 mahal.

Bolalar uchun: har bir kiloga 12 mg. dan kuniga 4 mahal

7-11 yoshdagi bolalar: 250 mg. (1/2 tabletka)

3-6 yoshdagi bolalar: 150 mg. (1/3 tabletka)

1-3 yoshdagi bolalar: 120 mg. (1/4 tabletka)

**BOSHQA ANTIBIOTIKLAR****Metronidazol (Trixopol, Flagil, Metrogil, Klion, Efloran)****Klindamitsin (Dalotsins, Klimitsin)**

Ushbu dori linkomitsin guruhiga kiradi, lekin linkomitsinga nisbatan xavfsizroq. Klindamitsin ba'zi jiddiy infeksiyalarda, anaerob bakteriyalar sababli bo'lgan ichak kasalliklari, salpingit (ginekologik kasalliklar), ba'zi o'pka kasalliklari va infeksiyalangan jarohatlarda qisman ishlatiladi.

Yana qaysi infeksiyalarda ishlatilishini bilmoqchi bo'lsangiz quyiga qarang.  
75, 150, 300 mg. li tabletkalar, 150 mg./ml. ukollar 2 % li krem yoki losyon shaklida chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar: 150-450 mg. dan har 6 soatda

Bolalar: har kiloga 2-5 mg. dan har 6 soatda.

Bakterial Vaginitni davolash uchun: 100 mg. dan 7 kun davomida qin ichiga yotishdan oldin qo'yiladi. Bo'jama(husnbuzar)ni davolash uchun 2 % li eritmani kuniga 2 mahal betingizga surting.

**2. OG'RIQ, ISITMA, SHISHLARGA QARSHI DORILAR****Eslatma:**

Og'riqqa qarshi ko'plab dorilar mavjud, ularning ba'zilari, ayniqsa, Dipiron (analgin) kabilari. Aspirin, atsetominofen (paracetamol) yoki ibuprofenlar (667-bet) kabi xavfsiz dorilarni ishlatayotganingizga e'tibor bering.

**Aspirin yoki Atsetilsalitsilat Kislotasi**

(Anopirin, Aspro, Atsilpirin, Kolfarit) Ko'pincha: 0,25 yoki 0,5 g. li tabletkalarda chiqariladi.

Aspirin juda foydali, arzon „og'riq qoldiruvchi” yoki analgetikdir. Shuningdek, u isitma va shamol-lashlarga, hamda yengil qichishshлага qarshi kurashadi.

Og'riq, artrit yoki shamo-llashga qarshi, tarkibida aspirin bo'lgan ko'plab dorilar sotiladi, lekin ular qimmat va aspirinning o'zidan foydaliroq emas.

### **Xavfi va ehtiyyot choralarini:**

1. Oshqozon og'rig'i yoki hazm a'zolari kasalliklarida aspirin ishlatmang.

Aspirin - kislota bo'lgani uchun aytigan muammolarni jiddiy lashtirishi mumkin. Shuning uchun oshqozon yarasi bor odamlar hech qachon aspirin ichmasliklari kerak.

2. Aspirin ba'zi odamlarda qorin (oshqozon yoki me'da) og'rig'i yoki zarda bo'lishga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun, aspirinni sut, ozgina natriy bikarbonat (osh soda), ko'p suv yoki ovqat bilan birga iching.

3. Suvsizlangan odamga u yaxshi siymagunga qadar bir miqdordan oshiq dori bermang.

4. 12 yoshdan kichik bola, ayniqsa, chaqaloqlarga va astmasi (xurujga olib kelishi mumkin) bor odamlarga bermang.  
Chaqaloqlar uchun paratsetamol xavfsizroq.

5. Aspirinni bolalar ololmaydigan joyga qo'ying. Katta miqdori ularni zaharlashi mumkin.

6. Homilador ayollarga bermang.

### ***Og'riq yoki isitmaga qarshi Aspirin miqdori:***

Har 4-6 soatda bir iching (kuniga 4-6 mahal), lekin bolalarga kuniga 4 mahaldan ortiq bermang.

Kattalar: 0,5 g.

8-12 yoshdagisi bolalar: 170-250 mg. (170 mg. 0,5 g. li tabletkaning taxminan 1/3 qismi bo'ladi 250 mg. esa - 1ta 0,25 g. li tabletka).

3-7 yoshdagisi bolalar: 100-125 mg. (250 mg. li tabletkaning 1/2 qismi)  
1-2 yoshdagisi bolalar: 75 mg. (0,25 g. li tabletkaning taxminan 1/3 qismi).

1 yoshga to'limagan bolalarga aspirin bermang.

(Hayz davridagi kuchli og'riqlarda, og'ir artrit yoki revmatik isitmalar-da yukoridagi miqdor ikki barobar ko'paytirilishi mumkin. Yoki har bir kilo uchun 25 mg. dan har 6 soatda bering. Agar qulqlarda shang'illash paydo bo'lsa, miqdorni ozaytiring.)

**Paratsetamol** (Panadol, Pamol, Ef-feralgan, Akamol, Atsetofen, Aldol, Metamol, Proksasan, Teylinol, Atsetominofen) - og'riq va isitmaga qarshi.

Ko'pincha 200, 250 mg., 500 mg. li tabletkalar. Shuningdek sirop qo'rinaldi.

ishida ham chiqariladi.

Paracetamol aspiringa nisbatan bolalar uchun xavfsizroqdir. U oshqozonni bezovta qilmaydi va oshqozon yarasi bor odamlarga ham ishlatalishi mumkin. Shuningdek u homilador ayollar uchun ham xavfsizdir.

Paracetamolni kuniga 4 mahal bering.

#### **Bir martalik miqdor:**

kattalar uchun: 500 mg. -1 g. gacha

11-12yoshdagi bolalar: 500 mg.  
9-10 yoshdagi bolalar : 400 mg.  
6-8 yoshdagi bolalar: 320 mg.  
4-5 yoshdagi bolalar: 250 mg.  
2-3 yoshdagi bolalar: 160 mg.  
1-2 yoshdagi bolalar 125 mg.  
6-12 oylik chaqaloqlar: 100 mg.  
4-6 oylik chaqaloqlar: 80 mg.  
2-3 oylik chaqaloqlar: 60 mg.  
0-2 oylik chaqaloqlar: 40 mg.

**Ibuprofen** (Apifen, Ibusan, Artril, Burana, Dolven, Dolgit, Ibuspel, Nurofen) Korflam paracetamol 500 mg. va ibuprofen 400 mg. birikmasi Ko'pincha 200 mg. li tabletkalarda chiqariladi, lekin 400 mg., 600 mg. li tabletkalar va siropi ham bor.

Ibuprofen shikastlangandan keyin badan shishishi va og'rishi, artritdan bo'g'im og'riqlari, hayz

davri og'riqlari, bosh og'rig'i va isitmaga qarshi ishlataladi. U aspiringa nisbatan qimmatroq.

#### **EHTIYOG BO'LING:**

Ibuprofenni aspiringa allergiyasi bor odamlar ichmasligi kerak.

Homilador ayollar ibuprofenni ishlatalmasliklari kerak.

#### **Miqdori:**

og'riq va isitmaga qarshi—200 mg. tabletkalar.

Ibuprofenni har 4-6 soatda ichirib turing.

Bir martalik miqdori:

12 yosh va undan katta bolalar va kattalar: 200-400 mg. (1-2 tabletka)

Agar bitta tabletka og'riq yoki isitmani yo'qotmasa, 2 ta tabletka ishlatalishi mumkin.

24 soat davomida 6 ta tabletkadan ortiq dori ichmang.

**Ibuprofen miqdori** (bolalar uchun) Migren uchun 8-bo'limga karang.

9 yoshdan kichik bo'lgan bolalar uchun: 6-8 yoshdagi bolalar: 150 mg.

4-5 yoshdagi bolalar: 100 mg.  
2-3 yoshdagi bolalar: 75 mg.

12-23 oylik chaqaloqlar: 50 mg.  
6-11 oylik chaqaloqlar: 35-45 mg.  
3-5 oylik chaqaloqlar: 25-30 mg.  
0-2 oylik chaqaloqlar: 20 mg.

### **Piroksikam (Ruproks)**

20 mg. li kapsula, tabletkalar.  
Bu dori, ayniqsa, artritdan,  
bo'g'imlarning og'rishida ishlataladi.

### **Miqdori:**

Kattalar: 20 mg. kuniga 1 mahal.

## **3. ZAHARLANISHGA QARSHI DORILAR VA ANTITOKSINLAR**

### **Qoqsholga qarshi emdori**

U "AKDS" degan emdori tarkibida bo'ladi. Agar siz biror joyingizni chuqur qilib kesib olsangiz va qoqsholga qarshi 5 yildan beri emlanmagan bo'lsangiz, siz emdorini olishingiz kerak. Odatda kattalar qoqsholga qarshi har 10 yilda bir marta emlanadi.

## **ANTITOKSINLAR**

### **EHTIYOT BO'LING:**

Ko'p antitoksinlar, masalan: qoqshol, ilon va chayon chaqishiga qarshi antitoksinlar ot qonining zardobidan qilingan. Shu sababli ular xavfli allergik reaksiyaga olib kelishi mumkin (159 - bet, allergik shok).

Ot zardobini ukol qilishdan avval har ehtimolga qarshi epinefrin (adrenalin)ni tayyorlab qo'ying. Allergiyasi bor yoki oldin ham ot zardobidan qilingan antitoksinni olgan odamlarga uni qilishdan 15 minut avval antigistamin: prometazin (pipolfen, fenergan, diprazin) yoki difengidramin (dimedrol, benadril) kabi dorilarni qabul qilish yaxshi bo'ladi.

### **Qoqsholga qarshi antitoksinlar:**

**Qoqsholga qarshi Immuno-Globulin** (odam qonining zardobi) ko'pincha 250 E.D. li flakonchalarda chiqariladi.

**Qoqsholga qarshi antitoksin (ot zardobi)** ko'pincha: 1500, 20000, 40000 va 50000 E.D. li qilib chiqariladi.

Odamlar qoqsholga qarshi emlanmagan joylardagi tibbiy dori qutichasida (aptechkada) qoqshol antitoksinini bo'lishi kerak.

Uning ikki ko'rinishi bor: biri odam qonining zardobi (Qoqsholga qarshi immunoglobulin) va keyingisi ot qonining zardobidan (qoqsholga qarshi antitoksin) qilingan bo'ladi.

**Agar iloji bo'lsa, Qoqshol immuno - globulinini ishlating, chunki uning og'ir allergik reak-**

## **siyalarga olib kelish xavfi kam-roq.**

Lekin ot qonining zardobidan qilingan qoqshol antitoksinini ishlatmoqchi bo'lsangiz, allergik reaksiyaga qarshi ehtiyyot chorasini ko'ring.

Chuqur jarohatlangan odam Qoqsholga qarshi to'la emlanmagan bo'lса (347-bet), qoqshol belgilari paydo bo'lishidan oldin 250 E.D. (1 flakon) immunoglobulin yoki 1,500-3,000 E.D. antitoksin qilishi kerak. Bolalarga esa 750 E.D. ishlatish yetarlidir.

**Agar odamda qoqshol belgilari paydo bo'lса,** unga Qoqshol immuno-globulinidan 5,000 E.D. yoki qoqshol antitoksinidan 50,000 E.D. qiling.

Dorining hamma miqdorini bir joydan muskul orasiga yubormasdan, balki miqdorni bo'lib ishlatish (bir qismi dumbaga, boshqa yarmi esa songa) kerak yoki venaga ukol qilishni biladigan odam bo'lса, bir qismini tomirga ikkinchisini esa muskul orasiga yuborish mumkin.

Antitoksin qilingandan so'ng, qoqshol belgilari odatda yo'qolishning o'rнига zo'rayib boradi. **Bu usuldan ham muhim va murakkabroq davolash usullari haqida**

## **347-350-betlarda aytilgan.**

Muolajani darhol boshlang va tez tibbiy yordamga murojaat qiling.

## **Chayon chaqishiga qarshi zardob (antitoksin)\***

Ko'pincha ukol qilish uchun mo'ljallangan kukun shaklida flakonchalarda chiqariladi. Dunyoning turli joylarida turli antitoksinlar ishlab chiqariladi.

Chayon chaqishiga qarshi antitoksin faqat xavfli yoki o'ldiradigan chayonlar bor joylarda ishlatilishi kerak.

Antitoksin odatda kichik bolalarga va ayniqsa, tananing yuqori qismini chayon chaqqanida ishlatiladi.

Antitoksin qutichasi ichida ko'pincha to'liq ma'lumot (qo'llanmalar) bo'ladi. Ularga ehtiyyotkorlik bilan rioya qiling. Kichik bolalarga kattalarga nisbatan ko'proq antitoksin kerak bo'ladi. ( 2 yoki 3 ta flakon kerak bo'lishi mumkin).

Ko'p chayonlar kattalar uchun xavfli emas. Antitoksining o'zi xavfli bo'lgani tufayli uni kattalarga bermagan ma'qul.

## **Illoq chaqishiga qarshi zardob (antitoksin)\***

Ko'pincha ukol qilinadigan ampula va flakonlarda bo'ladi. Antitoksinlar yoki zaharlanishdan himoya qiladigan (zaharli ilonlar chaqishiga qarshi ishlatiladigan) dorilar dunyoda ko'p.

Agar siz odamni o'ldiradigan zaharli ilonlar bor joyda ya-shasangiz, qanday antitoksinlar borligi haqida bilib oling. Ularni oldindan sotib oling va zarur vaqtida ishlatish uchun saqlang.

Ba'zi kukun holida bo'lgan antitoksinlar sovutgichda saqlanmasligi mumkin. Ammo boshqalari sovuq joyda saqlanishi kerak.

Ilon zahriga qarshi antitoksinlarning ishlatilishiga oid yo'l-yo'riqlar ko'pincha dori bilan birga bo'ladi. Dorini ishlatishdan avval ularni o'rGANIB chiqing. Ilon qanchalik katta yoki odam yoshi qanchalik kichkina bo'lgan sari shuncha ko'p antitoksin ishlatilishi kerak.

Ko'pincha 2 yoki ko'proq flakon kerak bo'ladi. Odamni ilon chaqqandan so'ng qancha tez antitoksin qilinsa , u shuncha ko'proq foyda qiladi.

Allergik shokning oldini olish uchun (159 - bet) kerak bo'lgan ehtiyyot choralariga rioya qilganligin-gizga e'tibor bering.

### **Ichilgan zaharli moddalarga qarshi dorilar**

### **Ipekakuana - qayt qildirish uchun dori.**

Ko'pincha sirop holida chiqariladi.

Odam zaharni ichganidan so'ng uni qayt qildirish uchun ishlatiladi.

**Agar odam kuchli kislota, ishqor, benzin yoki kerosinlardan birini ichib zaharlangan bo'lsa, bunday hollarda dorini ishlatmang.**

### **Ipekakuana miqdori:**

Har qanday yoshdagi odam uchun 1 osh qoshiq bering. Agar odam qayt qilmasa, buni har yarim soatda takrorlab turing.

**Aktivlangan ko'mir (Ugol aktivirovanniy, Kole-Kompretten)-** ichilgan zaharga qarshi. 0.25 va 0.5 g. tabletkalarda chiqariladi.

Aktivlangan ko'mir yutilgan zaharni o'ziga shimib, ularning oshqozon va ichakdagisi miqdorini kamaytiradi, zaharlanish xavfini pasaytiradi.

### **Miqdori:**

1 piyola suv yoki sharbat bilan 20 g. aktivlangan ko'mir (40 ta 0,5 g. li tabletkalarni, suvgaga soling.)

#### **4. BEZGAKKA QARSHI DORILAR**

Bezgakka qarshi kurashadi-gan dorilar ko'p. Afsuski, dunyoning talaygina joylarida bezgak parazitlari bezgakka qarshi eng yaxshi dorilarga chidamli bo'lib qolgan.

Bu ayniqsa bezgakning eng jiddiy turiga tegishlidir. Sog'liqni Saqlash Vazirligi yoki o'zingizning mahalliy sog'liqni saqlash bo'limlari dan siz yashayotgan joydagi bezgakka qarshi eng axshi dorilar to'g'risida ma'lumot olishingiz muhimdir.

Yangi dorilar ishlab chiqarilmoqda, lekin ularning effektiv ta'siri chegaralangan, chunki bezgak kasalligi ularga tez chidamli bo'lib qoladi.

##### ***E'tibor bering:***

**Bezgakka immunitet yo'q va odam tez nobud bo'lishi mumkin.** Bezgak bor joylarda bo'lgan bola va odamlar tezda davolanishi kerak.

Bezgakka qarshi bo'lgan dorilar 2 ta maqsad uchun ishlatilishi mumkin:

1. Bezgak bilan og'riyotgan odamni DAVOLASH. Dori bir necha kun beriladi xolos.

2 OLDINI OLISH UCHUN. Qonda-gi bezgak parazitlarining yomon ta'siridan saqlash uchun ishlatiladi.

Bezgak bor joylarda kuchsiz va boshqa sabablarga ko'ra kasal-langan bolalarni saqlash va kasal-likning oldini olish uchun ishlatiladi. Shuningdek, u bezgak bor joylarga boruvchi va organizmi unga qarshi kurasha olmaydigan odamlarga ishlatiladi.

Dorilar odatda haftalar davo-mida beriladi. Bezgakning oldini olish uchun 352-betdagи chivin chaqishidan saqlanish maslahatiga rioya qiling.

Ba'zi bezgak dorilari bezgak ta'sirlarini davolash uchun ishlatilsa, boshqalari esa, faqat oldini olish uchun ishlatiladi. Yana ba'zilari ik-kalasi o'rnila ham ishlatilishi mumkin.

1996-yilning boshidan beri, xloroxin (xingamin, delagil, malereks) bezgakning oldini olish va davolashdagi eng foydali dorilar-dan biri bo'lib kelmoqda, ammo bezgak qo'zg'atuvchining chidamlili-igi shunda ham dunyoning boshqa joylaridagi kabi asta-sekin rivojlani-shi mumkin.

Xloroxinga bo'lgan chidamlilik Janubiy Afrika,

Sharqiy Afrika va ayniqsa, Shimoliy sharqiy Osiyoda rivojlangan. Xinin sulfat odatda boshqa dorilarga chidamli bo'lgan joylardagi og'ir bezgak yoki miyaga ta'sir qiluvchi bezgakni davolash uchun ishlatiladi.

**Mefloxin** (Lartam) yangi xloroxinga chidamli bo'lgan bezgakka qarshi va uning oldini olish uchun ishlatiladigan dorida. Fansidar ham, xloroxinga chidamli bo'lgan bezgakka qarshi ishlatiladigan dorida.

**Proguanil** xloroxin bilan birgalikda bezgakning oldini olish uchun ishlatiladi. **Primaxin** ba'zan davolanishdan so'ng boshqa bezgak dorisi bilan kasallikning qaytalanishidan saqlanish uchun ishlatiladi. **Tetratsiklin** ham ba'zan bezgakni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi.

## Xloroxin

Xloroxin ikki xil ko'rinishda: xloroxin fosfat va xloroxin sulfat ko'rinishlarida ishlab chiqariladi. Ularning ishlatilish miqdori farq qilganligi sababli, xloroxinning qaysi turi sizda borligi va dorilar qaysi maqsadga asoslangan ekanligiga e'tibor bering.

Ba'zi joylarda va bezgakning ba'zi turlarini to'la davolashda xloroxinga qo'shimcha dori qo'shish kerak bo'ladi. Tibbiy maslahat oling.

## Xloroxin Fosfat

(Xingamin, De-

lagil, Malareks). Ko'pincha 250 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Ichiladigan xloroxin fosfatning miqdori:** (250 mg. li tabletkalarni ishlatganda):

Bezgakning qattiq xurujlarida.

Birinchi miqdorni kuniga 2 marta bering, ikkinchi miqdorni oradan 6 soat o'tgach berasiz.

Kattalar: 4 tabl. (1000 mg.)

10-15 yoshdagisi bolalar: 3 tabl. (750 mg.) 6-9 yoshdagisi bolalar: 2 tabl. (500 mg.)

3-5 yoshdagisi bolalar: 1 tabl. (250 mg.)

1-2 yoshdagisi bolalar: 1/2 tabl. (125 mg.)

1 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar: 1/4 tabl. (63 mg.)

1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/8 tabl. (32 mg.)

Bezgakning oldini olish uchun (xloroxinga chidamli bo'lmagan joylarda):

Bezgak bor joyga borishdan 1 hafta oldin va uni tark etgandan so'ng 4 hafta davomida, bir haftada bir marta bering.

kattalar: 2 tabl. (500 mg.)

10-15 yoshdagisi bolalar: 1 1/2 tabl. (375 mg.)

6-9 yoshdagisi bolalar: 1 tabl. (250 mg.)

3-5 yoshdagisi bolalar: 1/2 tabl. (125 mg.) 1-2 yoshdagisi bolalar: 1/4 tabl.

(63 mg.)

1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/8 tabl.  
(32 mg.)

### Xloroxin Sulfat

Ko'pincha 200 mg. li tabletkalar  
(tarkibida 150 mg. xloroxin bor)  
chiqariladi.

### Xloroxin miqdori:

200 mg. li tabletkalar

Bezgakning qattiq xurujlarida:  
Bir martalik miqdor. kattalar: 4 tabl.  
(800 mg.)

10-15 yoshdagi bolalar: 3 tabl. (600  
mg.)

6-9 yoshdagi bolalar: 2 tabl. (400  
mg.)

3-5 yoshdagi bolalar: 1 tabl. (200  
mg.)

1-2 yoshdagi bolalar: 1/2 tabl. (100  
mg.)

1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/4 tabl.  
(50 mg.)

Quyidagi miqdorlarni birinchi  
dozadan 6 soat, 1 va 2 kundan  
so'ng bering: 2 nchi marta 6 soat  
o'tgandan, 2 chi va 3 inchi kunlari  
kuniga bir mahal. kattalar: 2 tabl.  
(400 mg.)

10-15 yoshdagi bolalar: 1 1/2 tabl.  
(300 mg.)

6-9 yoshdagi bolalar: 1 tabl. (200  
mg.)

3-5 yoshdagi bolalar: 1/2 tabl. (100

mg.)

1-2 yoshdagi bolalar: 1/4 tabl. (50  
mg.)  
1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/8 tabl.  
(25 mg.)

### Bezgakning oldini olish uchun

Bezgak bor joylarda 1 hafta va xavfli  
rayondan chiqib ketganidan so'ng  
4 hafta davomida bering.

kattalar: 2 tabl. (400 mg.)

10-15 yoshdagi bolalar: 1 1/2 tabl.  
(300mg) 6-9 yoshdagi bolalar: 1  
tabl. (200 mg.)

3- 5 yoshdagi bolalar: 1/2 tabl. (100  
mg.)

1-2 yoshdagi bolalar: 1/4 tabl. (50  
mg.)

1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/8 tabl.  
(25 mg.) dan bering.

Amyobalar keltirib chiqarjan  
absesssga qarshi: 250 mg.  
li xloroxin fosfat yoki 200 mg. li  
xloroxin sulfati ishlatgan holda;  
kattalar: 3 yoki 4 tabletkadan 2 kun  
davomida va keyinchalik kuniga 1,5  
yoki 2 tabletkadan 3 hafta davomida  
bering.

Bolalarga, ularning vazni yoki yoshiga qarab kamroq bering.

### Xinin sulfat

Ko'pincha 250; 300; 500 yoki 650 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Xinin chidamli bezgak (boshqa dorilar bilan tuzalmaydigan bezgak) va og'ir bezgak, shuningdek miyaga ta'sir qiluvchi bezgakka qarshi ishlatiladi. U ichilganda yaxshi ta'sir qiladi.

Agar xininni berishda qayt qilish kuzatilsa, bunda prometazin (Pipolfen ) kabi dori yordam berishi mumkin.

**Salbiy ta'sirlar:** Xinin ba'zan ko'p terlash, quloqlarning shang'ilashi yoki bitib qolishi, ko'zning xiralashishi, ko'ngil aynishi, bosh aylanishi va qayt qilish, ich ketishlarga olib kelishi mumkin.

Bezgakning qattiq xurujlarida beriladigan xinin miqdori, 300 mg. li tabletkalar ishlatilganda:

Kuniga 3 mahal 3 kun davomida bering: kattalar: 2 tabl (600 mg.) 10- 15 yoshdagagi bolalar: 1 1/2 tabl. (450mg.)

6-9 yoshdagagi bolalar: 1 tabl. (300 mg.)

3- 5 yoshdagagi bolalar: 1/2 tabl. (150 mg.) 1-2 yoshdagagi bolalar: 1/4 tabl. (75 mg.)

1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/8 tabl.

(38 mg.)

### Xinin yoki xloroxin ukollarini qachon qilish kerak?

Xinin yoki xloroxin ukollari faqat juda zarur paytlarda, kamdan kam qilinishi kerak. Agar kasalda bezgak belgilari paydo bo'lsa yoki u bezgak tarqalgan joyda yashasa, u qayt qilayotgan bo'lsa, titrashlar (tutqanoq) bo'lsa yoki meningitning boshqa belgilari namoyon bo'lsa, unda bosh miya bezgagi bo'lishi mumkin (miyadagi bezgak).

O'sha zahoti xinin qiling. (Yoki agar boshqa dori bo'lmasa, xloroxin qiling.) Qilinayotgan ukol **to'g'ri miqdorda** ekanligiga katta e'tibor bering.

### Tibbiy yordamga murojaat qiling!

#### Xinin Digidroxlorid ukollari

1 ml. dagi 500 mg. (50%)

Xinin ukollarini juda sekinlik bilan mushakka jo'nating va hech qachon venaga to'g'ridan to'g'ri qilinmasligi kerak, bu yurakka yomon ta'sir qilishi mumkin. Bolalarga bersangiz ehtiyyot bo'ling.

Miqdorning yarimini sekinlik bilan har bir dumbaga ukol qiling. Ukol qilishdan avval, shprits porshenini o'zingizga torting, agar bunda shprits ichiga qon kirsa, boshqa

joyga ukol qiling.

Ushbu miqdorni 12 soatdan so'ng qayta qiling:  
kattalar: 600 mg.  
bolalar: bolaning har kilosi uchun 10 mg . (Masalan:10 kg. bo'lgan 1 yashar bolaga 100 mg. (0,2 ml.) ukol qilinishi kerak.)

**Xloroxin ukollari** 250 mg. - 5 ml. da (5 % li)

Ukolni faqat bir marta (har ikkali dumbaga 1/2 bo'lib qiling):  
kattalar: 200- mg. (4 ml.) bolalar: bolaning vazniga qarab 10 mg. (0,2 ml.) dan har bir kilosiga qiling. (masalan: 10 kilo bo'lgan bir yashar bolaga 2 ml. ukol qilinadi.)

Agar bir kundan so'ng ham kasalda o'zgarishlar bo'lmasa, yukoridagi miqdor qayta qilinishi mumkin.

**Mefloxin\* (Lartam)** (\*Hali O'zbekiston-da yo'q)  
Ko'pincha 250 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Mefloxin xloroxinga chidamlı bo'lgan og'ir bezgak xurujlarining oldini olish va davolashda ishlatalidi.

**Ehtiyyot choralarini va salbiy ta'sirlar:**

Mefloxin tutqanog'i va ruhiy kasalliklari bor odamlarga ishlatalmasligi kerak. Homilador ayol boshqa dori topilmagan holdagina uni ichishi mumkin. Yurak muammolari bor odamlar dorini ichishdan avval tibbiymaslahat olishlari kerak.

Mefloxin ba'zan o'zini g'alati tutish, titroq, bosh aylanishi, qorin og'rig'i, bosh og'rig'i, ko'rish muammolari va ba'zan hushdan ketish kabi hollarga olib kelishi mumkin.

Uni ko'p ovqat bilan iching. Agar davolashda kattaroq miqdorlar ishlatilsa, salbiy ta'sirlar tezroq yuz berishi va asorati og'irroq bo'lishi mumkin.

#### ***Mefloxin miqdori:***

Bezgakning kuchli xurujlarida:  
Bir marotaba bering:  
kattalar: 5 tabl. (1250 mg.)  
12- 15 yoshdagи bolalar: 4 tabl. (1000 mg.)  
8- 11 yoshdagи bolalar: 3 tabl. (750 mg.)  
5- 7 yoshdagи bolalar: 2 tabl. ( 500 mg.)  
1-4 yoshdagи bolalar: 1 tabl. (250 mg.)  
1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/2 tabl. (125 mg.)

**Bezgakning oldini olish uchun.**

Haftada bir marta, bezgak bor joydan chiqqandan so'ng ham 4 hafta davomida quyidagi miqdorlar ni bering.

kattalar: 1 tabl. (250 mg.)  
45 kg. dan ortiq bolalar: 1 tabl. (250 mg.)  
31-45 kg. li bolalar: 3/4 tabl. (188 mg.)  
20-30 kg. li bolalar: 1/2 tabl. (125 mg.)  
15-19 kg. li bolalar: 1/4 tabl. (63 mg.)  
15 kg. gacha bolalarga bermang.

**Fansidar** (Pirimetamin + Sulfadoksin birikmasi). Ko'pincha: 25 mg. pirimetamin va 500 mg. sulfadoksin tabletka chiqariladi.

Fansidar sulfadoksinga chidamli bezgakni davolash uchun ishlatiladi.

#### **EHTIYOT BO'LING:**

Fansidar sulfanilamidlarga allergiyasi bo'lgan odam tomonidan ishlatilmasligi kerak. Agar dori toshma va qichishishlarga olib kelsa, ko'p suyuqlik iching va dorini takroran ichmang.

Bezgakning qattiq xurujlariga qarshi:  
bir marotaba beriladigan miqdor:

kattalar: 3 tabletka.  
9-14 yoshdagi bolalar: 2 tabl.  
4-8 yoshdagi bolalar: 1 tabl.

1-3 yoshdagi bolalar: 1/2 tabl.  
1 yoshgacha bolalar: 1/4 tabl.

#### **Proguanil** (Bigumal)

Ko'pincha 50; 100 mg. li tabletkalar da chiqariladi.

Proguanil xloroxinga chidamli bo'lib qolgan bezgakning oldini olish uchun ishlatiladi. Proguanil bezgakning qattiq xurujlarida ishlitmeydi.

Bezgakning oldini olish uchun ishlatiladigan proguanil **miqdori:**

Dorini har kuni bezgak bor rayonga kirgan kundan boshlab, undan chiqqandan so'ng 28 kun davomida iching.

kattalar: 2 tabletka (200 mg.)  
9- 14 yoshdagi bolalar: 1,5 tabl. (150 mg.)  
3- 6 yoshdagi bolalar: 1 tabletka (100 mg.)  
1- 2 yoshdagi bolalar: 1/2 tabl. (50 mg.)  
1 yoshgacha chaqaloqlar: 1/4 tabl. (25 mg.)

#### **Primaxin** (Avlon)

Ko'pincha 3; 9; 26,3 mg. li primaxin fosfat tabletka chiqariladi.

Primaxin ko'pincha xloroxin yoki boshqa bezgak dorisining ishlatalishidan so'ng bezgakning ba'zi

turlarining qayta takrorlanishidan saqlanish uchun ishlataladi. Qattiq xurujlarga qarshi promaxinning o'zi foyda qilmaydi.

**Salbiy ta'sirlari:** Homilador ayollar primaxin ichmasliklari zarur. Ba'zi odamlarda u kamqonlikka olib keldi. Tibbiy maslahat oling. Primaxin miqdori: kuniga bir mahal, 14 kun davomida.

Har miqdorda:  
kattalar: 26,3 - 27 mg. xar kuni  
8- 12 yoshdagi bolalar: 12 mg. har kuni  
3- 7 yoshdagi bolalar: 7 mg. har kuni

#### Tetratsiklin (Reverin)

Agar bezgak xloroxinga chidamli bo'lib qolgan bo'lsa, shunda kuchli xurujlarda Tetratsiklin davolash uchun ishlatalishi mumkin. Bunday bezgaklar bu yerda kam. Dori sekin ta'sir qilganligi sababli u boshqa dori (ko'pincha xinin) bilan birgalikda berilishi kerak.

Bunday joylarga boruvchi odamlar kasallik oldini olish uchun har kuni doktsiksiklin ichadilar. Tetratsiklin va dokstsiksiklinlarning miqdori, xavfi va ehtiyoj choralarini bo'yicha 638-betga qarang.

#### 5. ICHKILIKBOZLIK (ALKOGOLIZM)GA QARSHI DORILAR

**Disulfiram** (Teturam, Antabus)  
0,15 va 0,25 g. li tabletkalar chiqariladi.

#### Miqdori:

Dorini dastlab 0,3-0,5 g. dan kuniga 1 mahal ertalab iching, 2 haftadan keyin miqdorni har kuni 0,15 g. ga pasaytirib boring. Dorini odatda 3 oy ichish kerak, lekin ba'zilar doimiy ravishda ichishi kerak.

#### E'tibor bering:

Spiritli ichimliklar ichilmasligi shart. Agar ichiladigan bo'lsa, odam boshi og'rib, ko'ngli ayniyveradi.

#### 6. QANDLI DIABET

##### Qandli Diabetning 1-turi (Q.D.)

Insulin tanqisligi bilan bog'liq Q.D. bemorlar umrbod insulin qabul qilib yuradilar. Ko'proq yoshlarda uchraydi.

#### Eslatma:

Agar sizda qand kasali bo'lsa, shifokor qoningizdagagi qand miqdorini doimiy ravishda tekshirib turishi va siz uning ko'rsatmalariga rioya qilishingiz muhimdir.

Hech qachon insulin olish-

ni to'xtatmang, chunki bu o'limga olib kelishi mumkin. Bu, ayniqsa, 1 tur qandli diabet bilan og'ruvchilar uchun juda muhimdir.

Shuningdek insulin turini to'g'ri ishlatalayotganingizga e'tibor bering. Insulinning turlari ko'p. Ular turli vaqtarda ta'sir qiladi, ba'zilari bir necha soat ta'sir qilsa, bosh-qalari bir kun ta'sir qilishi mumkin. Shifokor bilan maslahatlashmay insulin turini almashtirmang.

### **Insulinlar**

Ta'sir vaqtı juda qisqa insulin:

#### **Xumalog**

Ta'sir vaqtı qisqa insulin:

#### **Aktrapid NM, (Regulyar insulin), Xumulin P ("R")**

O'rtacha vaqt ta'sir qiladigan insulin:

#### **Izofan insulin NM**

Ta'sir vaqtı uzoq davom etadigan insulin:

#### **Xumulin lente**

Ta'sir vaqtı juda uzoq davom etadigan insulin:

#### **Insulin-ultralente, Iletin Ultralente Xumulin-Ultralong**

### **Qandli Diabetning 2- turi (Q.D.)**

Insulin tanqisligi bilan bog'liq bo'limgan Q.D. Ko'proq katta yosh-dagi va semiz odamlarda uchraydi.

**Glipizid** (Minidiab, Glibinez, Antidi-ab)

5 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Nonushtadan oldin 5 mg. ni ichish bilan boshlang. Katta yoshdag'i odamlar 2.5 mg. bilan boshlashi kerak.

Qondagi qandni nazorat qilish uchun miqdor 2,5 mg. - 5 mg. gacha bo'lishi mumkin (ovqatlanish-dan oldin, qoningizdagi qand 140 mg. /dl. dan kam yoki 7,8 nmol./ l. bo'lishi kerak).

Odatda 10-15 mg. kerak bo'ladi. Agar kuniga 15 mg. dan ortiq dori kerak bo'lsa, ikkinchi doza kechki ovqatdan oldin berilishi kerak. Eng yuqori miqdor kuniga 2 mahal 20 mg. dan berishdir.

#### **Glibenklamid yoki Gliburid**

(Maninil, Diabeta). 1.25; 2.5; 5 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Nonushtadan avval 2.5 mg. ni

ichish bilan boshlang. Agar kerak bo'lsa miqdorni 2,5 mg. dan 20 mg. gacha oshirishingiz mumkin. Agar 10 mg. dan ortiq dori kerak bo'ladi-gan bo'lsa, miqdorni nonushtadan oldin va kechki ovqatdan oldin ichil-adigan qilib qoying.

**Tolbutamid** (Orabet, Butamid). 250; 500 mg. tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Ertalab 1-2 tabl. ichishdan boshlang va dorini zaruriyatga qarab eng yuqori miqdorga - kuniga 0,3 gr. gacha ko'paytirilishi mumkin.

#### **Akarboza (Glyukobay)**

50; 100 mg. tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Har safar asosiy ovqat bilan 25 mg. iching. 50 mg. dan bo'lgan eng yuqori miqdorgacha ko'paytirib boring. (agar sizning og'irligingiz 60 kg. dan ortiq bo'lsa kuniga 3 mahal 100 mg. dan ichishingiz mumkin).

## **7. RUHIY TUSHKUNLIKDA ISHLATILADIGAN DORILAR (ANTI-DEPRESSANTLAR)**

Bu dorilarni ko'p kasalliklar-da ishlatish mumkin.

Ular:

Ruhiy tushkunlikda, masalan: rak va bel og'rig'i singari surunkali og'riqlar vaqtida, bosh og'rig'ining oldini olish uchun, vahimaga tushish, uyqusizlik holatida, nerv og'riqlari yoki nevralgiya ma-halida, masalan, diabetik nevropati-yalar kabilarda ishlatiladi.

Tushkunlikka qarshi dorilar miyadagi kimyoviy o'zgarishlarni normallashtiradi. Biroq, ular sekin ta'sir qiladi va ta'sirni ko'rish uchun 2 yoki 3 hafta kerak bo'ladi.

Dori kamida 6 oy davomida ichilishi kerak, shunda ruhiy tushkunlikning yana takrorlanish xavfi kamroq bo'ladi.

#### **Dalachoy o'simligi (Trava Zveroboya, *Hypericum Perforatum*)**

Bu o'simlikning tushkunlikka qarshi ta'siri ilmiy ishlar bilan tas-diqlangandir. Dunyoda ko'p mam-lakatda ishlatiladi va O'zbekistonda bermalol topish mumkin. U foydali, arzon, shuningdek, xavotirlanish va tushkunlikni davolash uchun birinchi qadamdir. Ushbu tabiiy shifobaxsh o'simlikdan foydalaning.

***Miqdori:***

2- 4 choy qoshiq o'tni 200 ml. qaynoq suvgaga solib, kuniga 3 mahal damlama qilib ichiladi.

**Amitriptilin (Amizol)****Imipramin (Melipramin)**

25 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Bu dori shifokor tomonidan tavsiya qilinishi kerak. Amitriptilin (Amizol) bilan Imipramin (Melipramin) kabi antidepressantlarning salbiy ta'siriga o'xshaydigan: og'iz qurishi, o'rindan juda tez turganda bosh aylanishi va uyquga tortishi uchrashi mumkin. Keksa odamlar siyishga qiynalishlari mumkin.

Ushbu salbiy ta'sirlardan qo'rqmaslik kerak va o'rningizdan asta-sekin turishga harakat qiling, chunki tez tursangiz boshingiz aylanganidan yiqilib tushishingiz mumkin.

***Salbiy ta'sirlarni kamaytirishning birdan bir yo'li, bu dorini dastlab kichik miqdorlarda qabul qilishdir.*** Ushbu ikki dorining ta'siri bir xil, lekin ba'zi odamlar uchun imipraminni ichish qulayroq bo'lishi mumkin.

***Miqdori:***

Kuniga 25 mg. miqdorida Amitriptilin (Amizol) yoki Imipramin (Melipramin) iching. Dori bir mahal,

yotishdan taxminan bir soat oldin ichilishi kerak.

U tinchlanadiradi va uqlashga yordam beradi. Har 7 kunda miqdor 12,5 - 25 mg. ga oshirilishi mumkin. Oddiy miqdor kuniga 50-100 mg., eng yuqori miqdor kuniga 150 mg. dir. Katta yoshdagi odamlarga dori kamroq miqdorda ichilishi kerak.

***Yodingizda tuting: Tushkunlikka qarshi dorilar:***

- Uyquga tortishi 2-3 haftadan so'ng kamayadi.
- Dori sekin ta'sir qiladi. Ta'siri kamida 2-3 hafta ichida boshlandi, ba'zan bundan ham ko'p vaqt ni oladi. Bir necha kundan so'ng dori ta'sir qilmayapti deb o'ylab uni ichishni to'xtatmang.
- Hech qachon tavsiya qilingan miqdordan ortiq ichmang va *uni bolalardan uzoqroqda saqlang*.
- Dori kamida 6 oy davomida ichilishi kerak, shunda depressiya takrorlanishining xavfi kamroq bo'ladi.
- Shifokor ruxsatsiz dori ichishni to'xtatmang. Uning miqdorini bir necha hafta davomida asta-sekin ozaytirish kerak, dori ichishni bir daniga to'xtatib bo'lmaydi.
- O'rningizdan turayotganingizda

еҳтийот бо'линг, сепин-аста туратган гизга е'тбор бering, agar бoshingiz аylanayotganini сезсангиз qayta o'tirib oling.

- Saqich va qand og'iz qurishini kamaytiradi.
- Depressiyaga tushmagan odam bu dorini ichib olsa u kayf qilmaydi. Ular miyani qayta normallaydi. Bu dorilar narkotiklar guruhiiga kirmaydi.
- Ba'zan vazn ortishi hollari kuzatiladi.

### **Fluoksetin (Prozak)**

Tushkunlikka qarshi dorilarning yangi turlari Fluoksetin (Prozak) kabilari ham chiqarilgan.

Ularning salbiy ta'sirlari ozroq. Bularda og'iz qurishi, o'rindan turganda bosh аylanishi, ko'p uqlashlik yoki vazn ortishi kabi ta'sirlari yo'q. Lekin ular Amitriptilin (Amizol) va Imipramin (Melipramin) kabi dorilarga nisbatan qimmatroq. 10; 20 mg. kapsullarda chiqariladi.

**Miqdori:** ertalab 10-40 mg.

## **8. TINCHLANTIRUVCHILAR VA TRANKVILIZATORLAR**

Ko'pincha bu dorilar tushkunlikka qarshi dorilar bilan birgalikda ishlataladi va bemor o'zini yaxshiroq his qilganidan so'ng ularning

qabuli to'xtatilishi mumkin.

***Ushbu dorilarga (Valeriana va Buspiron (Buspar)dan tashqari) o'r ganib qolishingiz mumkin bo'lganligi tufayli ularni shifokor tavsiyasi va nazorati ostida ichishingiz zarur. Agar siz ularni bir haftadan ortiq vaqt davomida har kuni qabul qilgan bo'lsangiz, dorini ichishni birdaniga to'xtatmang.***

Dorini ichishni to'xtatish-dan avval shifokoringiz tavsiya qilgan miqdorni asta-sekin, kunga eng kichik tabletkaning yarim miqdoridan qilib kamaytirishingiz kerak

### **Valeriana Damlamasi**

#### ***Miqdori:***

Valeriana ildizidan 1-2 g. ni 200 ml. qaynagan suvga solib damlang. Yotganingizda iching.

### **Valeriana tindirmasi (1:5 nas-toykasi)**

#### ***Miqdori:***

Yotishdan oldin 4 ml miqdorida iching.

**Sibazon** yoki **Diazepam** (Relanium, Seduksen, Valium, Apourin, Faustan, Kalmpouz, Trankvin). 2; 5; 10 mg. tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

xavotirlanishga tushib qolgan holatlarni davolash uchun 2-10 mg. dan 2-3 marta ichish kerak.

Lekin u sekin 1-2 haftadan so'ng ta'sir qiladi.

5; 10 mg. tabletkalarda chiqariladi.

**Klonazepam** (Antelespin).

0,25 mg., 1 mg., 2 mg. tabletkalar-da chiqariladi.

**Miqdori:**

Kuniga 2-3 mahal 0,25-0,5 mg. dan boshlang. Kerak bo'lsa, ichishni kuniga 3 mahal 2 mg. dan iching (dorining eng yuqori miqdori).

Kuniga 2-3 mahal 5 mg. dan, kerak bo'lsa eng yuqori miqdorini kuniga 3 mahal 10 mg. gacha ko'taring.

**Alprazolam** (Kassadan, Xeleks, Ksanaks, Zaneks, Zoldak). 0,25 mg., 0,5 mg., 1 mg., 2 mg. tabletkalarda chiqariladi.

## **9. MIGREN VA BOSH OG'RIQLARGA QARSHI DORILAR**

Og'riqni qoldiruvchi ushbu dorilar migren-bosh og'riqlarda ichiladi. Boshingiz tez-tez og'rib tursa, bunday migrenli bosh og'riqlarning oldini olish ham mumkin.

**Miqdori:**

Kuniga 3 mahal 0,25 mg. bilan boshlang va kerak bo'lsa eng yuqori miqdor- kuniga 3 marta 3 mg. gacha ko'taring.

**Ergotamin Gidrotartrat**

1 mg. , 2 mg. tabletkalarda chiqariladi.

**Xlordiazepoksid** (Elenium, Librium, Padepur).

5; 10; 25 mg. tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

2 mg. tabletkani tilingiz ostiga qo'ying yoki uni yuting. Agar kerak bo'lsa 30 minutda yana 1-2 mg. ichishingiz mumkin, bir bosh og'rig'ida 6 mg. gacha dari ichilishi mumkin. Haftasiga 10 mg. dan ortiq dari ichmang.

**Miqdori:**

Kuniga 3-4 mahal 5-10 mg. dan boshlang. Eng yuqori miqdor kuniga 3 mahal 25 mg. dan.

**Ergotamin Gidrotartrat bilan Kofein** (Kofetamin)

Ushbu dorining tarkibida kofein bo'lib u uyqusizlik va yurakning tez urishi kabilarni keltirib chiqarishi mumkin. Tabletka tarkibida kofein

**Buspiron** (Buspar)

Bu ushbu guruhsiga kiruvchi o'ziga o'rnatib olmaydigan yagona doridir.

0,1 g. + ergotamin gidrotartrat 1 mg. bor.

### **Miqdori:**

Migrenli bosh og'riqlarning boshlanishida 1 yoki 2 tabletkadan iching. Agar zarur bo'lsa, dorini 4 soatdan so'ng qayta ichish mumkin. Bir safar bosh og'rig'ida 6 ta va haftasiga 10 tabletkadan ortiq dori ichmang. Miqdori 50- 100 mg. dan kuniga bir mahal.

**Ibuprofen** (Korflam, Apifen, Ibusan, Artril, Burana, Dolven, Dolgit, Ibus-pel, Nurofen).

Ko'pincha 200 mg. li tabletkalarda uchraydi.  
Shuningdek, 400, 600 mg. li tablet-kalari ham bor.

### **Miqdori:**

400-600 mg. miqdorida iching (2-3ta 200 mg. li tabletkadan). Kerak bo'lsa har 6 soatda takrorlang.

**Migrenning oldini olish uchun ishlataladigan dorilar**

### **Beta Blokatorlar**

Beta blokatorlar migrenning oldini oladi, qon bosimizgizni pa-saytiradi va yurakning tez urishini nazorat qiladi.

**Elatma: Beta Blokatorlarni quy-**

**idagi hollarda ishlatmang:** agar sizda astma, yurak astmasi (yetishmovchiligi) yoki og'ir qandli diabet kabi kasalliklar bo'lsa yoki yuragin-ginzning urish tezligi minutiga 55 ga yetmasa dorini ichmang.

**Propranolol** (Obzidan, Anaprilin, Dideral).

10; 20; 40; 80 mg. tabletkalarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

20-120 mg. dan kuniga 2 mahaldan

**Atenolol** (Novaten, Atenozan, Atenova, Tenolol, Unilok). 50; 100 mg tabletkalarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

50; 100 mg. dan kuniga 1-2 mahal.

**Metoprolol** (Korvitol, Belok, Lopresor, Vazokardin). 50; 100 mg. tabletkalarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

25-150 mg. dan kuniga 1-2 mahal.

**Nadolol** (Korgard).

20; 40; 80; 120 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

20-240 mg. dan kuniga bir mahal.

**Timolol** (Okuril, Okupres, Optimol). 5; 10; 20 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

10-60 mg. dan kuniga bir mahal.

**Kalsiy Antagonistlari: Verapamil**

(Izoptin, Finoptin, Lekoptin, Ormil, Falikard). 40; 80; 120; 240 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

240 mg. li tabletkalar kuniga 1-2 mahal ichiladi. Kichik dozali 80 mg. li tabletkalar kuniga 3 mahal ichilishi kerak.

Kalsiy Antagonistlari: migrenlarning oldini oladi, qon bosimizning pasaytiradi va yurakning tez urishini nazorat qiladi.

**Eslatma:**

Kalsiy Antagonistlarini, quyidagi hollarda ishlatmang:  
yurak astmasi (yetishmovchiligi), yoki yuragingizning urish tezligi 55 dan kam bo'lgan hollarda dorini ichmang.

**Quyidagi dorilar migren (bosh og'rig'i)ga qarshi ham foydalidir:**

**Dalachoy o'ti** (Trava Zveroboya, Hypericum Perforatum).

**Amitriptilin** (Amizol)

**Imipramin** (Melipramin)

**Fluoksetin** (Prozak).

Miqdori haqida 665 - betga qarang.

**10. TUTQANOQ (TALVASAGA, EPILEPSIYA, QUYONCHIQ)GA QARSHI DORILAR**

Bularning hammasi biroz uyquchanlikka olib keladi, ammo bu vaqt o'tgan sari yo'qolib ketadi. Homiladorlikda ushbu dorilarni iloji boricha ishlatmaslik zarur.

Ularni qabul qilish jarayonida shifokor sizni yaxshilab tekshirib turishi kerak.

**Karbamazepin** (Finlepsin, Tegretol, Epitol, Karbadak, Zagretol, Zeptol). 200 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar va 12 yoshdan katta bolalar: 200 mg. dan kuniga 2 mahal ichishni boshlasin.

Agar kerak bo'lsa, kunlik dozasini har haftada 200 mg. dan oshirish mumkin. Eng yuqori miqdori kuniga 2 mahal 500 mg. dan bo'ladi. Ba'zi odamlarga 3 mahal berilganda dori yaxshiroq ta'sir qiladi. Lekin bir kunda 1000 mg. dan ortiq ichmang.

6 - 12 yoshdagisi bolalar: kuniga 2 mahal 100 mg. dan ichishni boshlasin. Agar zarur bo'lsa, kunlik

miqdorini har haftada 100 mg. dan oshirish mumkin. Eng yuqori miqdor kuniga 2 mahal 500 mg. bo'ladi.

**Fenobarbital** (Barbinal, Lyuminal). 100 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Kattalar: yotishdan avval 50 mg. dan ichishni boshlasin, eng yuqori miqdor — 125 mg. gacha ko'tarish mumkin.

Bolalarga: yotishdan avval 3-6 mg./ kg. dan 1 mahal, kuniga 100 mg. gacha bering.

**Fenitoin** (Difenin).

30;100; 117 mg. li kapsulalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Kattalarga: kuniga 200-400 mg. dan bir yoki 2 mahal.

Bolalarga: ishlatmang.

**Valproat sodium** (Atsediprol, Apilepsin, Depakin, Depamid, Diprakin, Dipromal).

150; 200; 250; 300; 500 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Kattalar va bolalar og'irligining har kilosiga 15 mg. dan kuniga 2-3 ga bo'lib berishdan boshlang. Bu 50 kg. li odamga kuniga 3 mahal 750 mg. demakdir. Eng yuqori miqdor: har kuni har bir kilo vazn uchun 60

mg. gacha ko'paytiring.

**Benzodiapezin yoki Klonazepam** (Antelespin). 0,5 mg., 1 mg., 2 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Kattalar: 0,25-0,5 mg. dan kuniga 2-3 mahal. Zarurligiga qarab 5 mg. dan kuniga 3 mahalgacha bersa bo'ladi (eng yuqori miqdor).

10 yoshgacha bo'lgan bolalar: har 8 soatda 0,01 mg. dori miqdori bilan davolashni boshlashi kerak. Dorini qabul qilishning har 3 inchi kuni 0,25 mg. dan ko'paytirib turilishi mumkin. Kuniga oshirilgan miqdor har bir kilo uchun 0,15 mg. gacha tashkil etadi.

**Sibazon yoki Diazepam** (Relanium, Seduksen, Valium, Apourin, Faustan, Kalmpouz, Trankvin).

Barcha dorilar odatda tutqanoqda ishlatiladi, lekin ular boshqa dorilar topilmagan hollarda ishlatilishi ham mumkin.

2; 5; 10 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Tutqanoqning oldini olish uchun 2-10 mg. dan kuniga 2-3 mahal.

## **11. TERI KASALLIKLARI VA JA-ROHATLARIDA ISHLATILADIGAN DORILAR**

**Dezinfeksiyalovchilar** (infeksiyaga qarshi).

Sovun va qaynatilgan suv ko'pgina dorilardek foydali hamda ulardan arzonroqdir. Oddiy Sovundan foydalaning. Agar kerak bo'lsa, quyidagi larni qo'shimcha qilish mumkin.

**Yod yoki Zelyonka** (Ko'k dori) Kesilgan va infeksiyalangan joylariga har kuni surkab turing.

**Antibiotik mazlar (surtmalar)** (teri infeksiyalari (kasalliklari) uchun):

**Gentamitsin (Garamitsin),  
Batsitratsin + Neomitsin (Baneotsin), Neomitsin,  
Tetratsiklin (Reverin),  
Eritromitsin,  
Levomitsetin (Xloramfenikol, Sintomitsetin Leniment).**

Yuqorida ayttilgan antibiotik mazlar(surtmalar) infeksiyaning(yallig'lanishning) oldini olish yoki davolash uchun ishlataladi, infeksiyalangan(yallig'langan) joylarga kuniga 2 mahal surkaladi.

**Qichishishga qarshi**

Sababini aniqlang, agar infeksiya bo'lsa, uni davolang (balki po'panak (zamburug'), qo'tir, bit

**670**

va boshqa sabablar bo'lsa tegishli dorilar ishlating)

**Kortikosteroidli mazlar(surtmalar)** (Gidrokortizon kabi teri allergiyasi, qichishishiga qarshi gormonlar)

Ushbu dorilarni ishlatish xavfsiz, ammo boshqa kuchliroq kortikosteroidli mazlar ham uzoq vaqt davomida ishlatalganda terining yupqalashishi va undan chandiq hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Yuzga, qo'litiq va tashqi jinsiy a'zolarga ularni qo'y mang. Lekin yo'rgak-ketliklardan paydo bo'lgan toshmalarda 5-7 kun davomida ishlatalishi mumkin, ammo bundan ortiq ishlatmang.

**Kuchsizrog'i:**

**Gidrokortizon mazi(surtmasi)**  
1 % li

**O'rta kuchli:**

**Triamsinolon** (Ftorokort, Polkortolon, Triamkort),

**Flyuotsinolon atsetonid** (Sinaflan, Flutsinar, Sinalar)

**Quruq Yoki Qizargan Teri**

**Ruxli surtma (Sink mazi)**

Yo'rgak-ketlik toshmalari, oddiy kuyish, quruq va yorilgan lablariga qo'yiladi, terini quyosh nuridan saqlashda ham foyda beradi.

Jarohatlangan joyga kuniga 2-3 marta surting.

### Vazelin

Jarohat va qora qasmoqlarga bog'lamlar tayyorlashda ishlataladi. Shuningdek quruq teri va bichilgan lablar uchun foydalidir.

Zaruratga qarab kuniga 2-3 marta surting.

### Bujamalar (Husnbuzar)

Bu dorilar ba'zan bo'jamalarni davolash uchun ishlataladi. Lekin foydali bo'lishi uchun ular doimiy ravishda ishlatalishi kerak.

### Benzoilperoksid geli yoki losyoni

5; 10 % li krem yoki losyon ko'rinishida bo'ladi.

Zararlangan joylarga kuniga 2 mahal surting.

**Klindamitsin Fosfat kremi yoki suyuqligi** (Klimitsin T, Dalatsinss) 2 % li losyon yoki krem shaklida bo'lishi mumkin.  
Zararlangan joylarga kuniga bir marotaba surting.

**Zamburuqqa qarshi** (teri, jinsiy a'zolarda, tirnoq va soch infeksiyalari - Po'panak)

Zamburug'li kasalliklarni davolash qiyin. Kasallikni to'la davolash uchun dardning belgilari yo'qolib ketganiga qaramay, muolaja bir-

necha kun va hafta davom ettirilishi kerak. Shuningdek, tozalikka riosa qilish va vaqtida cho'milish ham juda muhimdir.

### Undetsilenat kislotasi

(Mikoseptinli surtma (maz).

Bu dori temiratki, bosh va terining turli zamburug' infeksiyalarida ishlatalishi mumkin. Undetsilenat kislotasi va oltingugurtli mazlar(surtmalar) boshdagи qasmoq (qaqach) larni yo'qotishda ishlatalishi mumkin.

Agar siz maz(surtma) va losyonlarni o'zingiz tayyorlasangiz ular arzonroqqa tushadi. Salitsilat kislotadan 3 qism yoki benzoy kislotadan 6 qismni 100 qism Vazelin, eritilgan dumba yog'i yoki aroq bilan aralashtiring. Teriga kuniga 3-4 mahal surting.

### Oltингugurt va Sirka (Uksus)

5 qism oltingugurt va 100 qism 5 % li sirkadan qilingan losyon ko'plab zamburug' infeksiyalariga qarshi kurashadi.

Surganingizdan so'ng teridagi dori qurisin. Shuningdek, oltingugurtdan 1 qism va 10 qism yog'dan maz qilish mumkin - bu Oltingugurtli mazga o'xshaydi.

**Oltингugurt-Salitsilat mazi**(surtmasi) 2 % li yoki 5 % li, (Sernaya maz).

Bu dori oltingugurt va yog'dan qilinadi.

**Miqdori:**

„Dog'lar” yo'qolib ketguniga qadar kuniga 3 mahal surkab turing va dog'lar qaytmasligi uchun har 2 haftada bir marta ushbu muolajani 2 oy davomida qayta bajar- ing.

**Selen disulfit\*** (Selenium sulfid, Sulsenum, Sulsen).

Ko'pincha 1 yoki 2.5 % li selen sulfat losyoni sifatida chiqariladi.

Selen disulfatli losyonlar turli rangli temiratkini davolashda ishlatiladi. Zararlangan joyga surting va 30 daqiqadan so'ng yuvning. Bu muolajani bir hafta mobaynida har kuni qaytaring.

**Klotrimazol** (Kanesten, Lotrimin, Yenamazol).

Bu ko'plab zamburug' infeksiyalariga qarshi ishlatiladi. 1 % li krem va 100 mg. li qin shamchalari shaklida ishlab chiqariladi.

Terida-o'zgarish yo'qolib ketgunga qadar teringizga yupqa qilib kuniga 2 mahal surting va yana qo'shimcha qilib yana 2 kun davom-

ida ishlatining (1-8 hafta).

Qinga - har kuni uqlashdan avval 7-14 kun davomida qo'ying (u bir oz kuydirishi mumkin, lekin bu xavfli emas).

**Grizeofulvin** (Gritsin, Grifulvin, Gefulvin).

Ko'pincha 125; 250 yoki 500 mg. li tabletka yoki kapsulalarda chiqariladi.

Bu juda qimmat dori bo'lib, faqat terining og'ir zamburug'li infeksiyalari va boshning chuqr temiratkisida ishlatiladi.

Shuningdek, u tirnoq infeksiyalarida ham ishlatiladi, ammo bu oylab vaqt olib, doim ham foyda qilmaydi. Homilador ayollar grizeofulvinni ishlatmaslikka harakat qilishlari kerak.

**Miqdori:**

Har bir kilo uchun 15mg., kuniga bir mahal. Kamida 1 oy davomida bir mahal bering.

kattalar: 500-1000 mg.

8- 12 yoshdag'i bolalar: 250-500 mg.

3-7 yoshdag'i bolalar: 125-250 mg.

1- 2 yoshdag'i bolalar: 125 mg.

Nistatin (Mikostatin maz (surtma)

Ko'pincha tabletka, maz (surtma)

va shamcha ko'rinishida chiqariladi.

Og'iz, qin yoki terining bukiladigan joylaridagi zamburug' infeksiyalari (Kandidamikoz) ni davolashda ishlataladi. Nistatin faqat zamburug'lardan kelib chiqqan infeksiyalargagina qarshi kurasha oladi.

### **Nistatin miqdori:**

bolalar va kattalar uchun bir xil.

Og'izdagi toshmalar: 250,000 ED tabletka maydalaniб, ozgina suv bilan aralashtiriladi va yonoqlarga kuniga 3-4 mahal surkaladi.

Teridagi kandidamikoz: iloji boricha o'sha joyni quruq saqlang va nistatindan tayyorlangan kukun yoki mazni(surtmani) kuniga 3-4 mahal ishlating.

Qin va ayollarning tashqi jinsiy a'zolaridagi kandidamikozida mazni(surtmani) kuniga 2 mahal qin ichiga surting yoki maxsus qin uchun ishlataladigan tabletkasini yotishdan avval 10-14 kun davomida qinga qo'yib yoting.

### **Ketokonazol** (Ketoral, Nizoral, Ketanil).

Ushbu dori krem yoki tabletka ko'rinishida chiqariladi. U juda qimmat bo'lganligi sababli, boshqa o'xhash dorilar ta'sir qilmaganda ishlatalishi kerak.

200 mg. li tabletkalar, 2 % li krem yoki shampun ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Ushbu dorining tabletkasi ni Eritromitsin, Terfenadin (Tedin, Lotanaks), Rifampin. **Ushbu dorilar oshkozon kislotasini oshirishi mumkin, shu tufayli zarda bo'lish kuzatiladi, shuningdek oshqozon yaralariga qarshi ishlataladigan dorilar bilan birgalikda ichmang.** Jigari kasal odamlar ushbu dorini ichmasliklari kerak.

Seboreya dermatiti kabi teri yoki tirnoqlardagi zamburug'li infeksiyalarda: 2 - 4 hafta davomida kuniga bir yoki ikki mahal surting.

Qazg'oqqa qarshi: krem yoki shampundan 1 minutga surting, yuvib tashlang, so'ng yana 3 minutga surting. 4 hafta davomida haftasiga 2 mahal ishlating.

Og'ir zamburug'li infeksiyalarda: 200-400 mg.li tabletkadan kuniga bir mahal 2-8 hafta davomida iching.

Agar jigaringiz kasal bo'lsa yoki ko'p spirtli ichimliklar ichsangiz dorini ishlatmang. Agar dorini 10 kundan ortiq qabul qilishingiz kerak bo'lsa, jigaringiz holatini bilish uchun

qoningizni shifokor tekshirishi kerak.

### **Qo'tirga qarshi:**

#### **Benzil benzoat, 20% li krem**

Ushbu dori homiladorlik va chaqaloqlik davrlarida ham ishlatalishi mumkin. Cho'milgandan so'ng kremni surting. Uni teri namligida surting, faqat jinsiy organlar va shiliq pardalariga tekkizmang. Birinchi surtilgan qoplam qurigandan so'ng ikkinchi bor surting va u ham qurisin. 48 soatdan so'ng cho'miling.

Agar yangi qo'tir dog'lari paydo bo'lsa, muolajani 7-10 kundan so'ng yana qaytaring.

Oltингugurt oddiy mazi(surtmani) va Oltингugurt Salitsilat mazi(surtmani) 2% yoki 5% li, (Sernaya maz(surtmasi))

Siz o'zingiz 30-50 g. oltингugurtni 500 g. Vazelin bilan aralashtirib oltингugurt mazini tayyorlashingiz mumkin. Butun tanangizga 3 kun davomida kuniga 3 mahal surting (yuzdan tashqari).

**Gamma benzen geksaxlorin\***  
(Lindan, Kvel, Gammazan). \*Hali O'zbekistonda yo'q.

Lindan odamlar uchun qimmat va qo'y, qoramol uchun arzon turadigan sifatida chiqariladi, lekin

bularning ikkalasi ham birdek ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun hayvonlarga mo'ljallangan lindanni odamlarda ham ishlatalish mumkin. Ammo u 15 % li suyuqlik bo'lganligi sababli uni 1 % li qilib suyultirish kerak. 15 % li lindandan 1 qism oling va unga 15 qism suv yoki Vazelin qo'shing va teridagi qo'tirlarga 199-betdagি ko'rsatmaga rioya qilgan holda ishlating. Bosh biti xususida 200- betga qarang.

### **OGOH BO'LING:**

Lindan zaharli bo'lib, xavfli salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin, ayniqsa chaqaloqlarda, tutqanoq kasalligi ham shular jumlasidandir.

Keragidan ortiq ishlatalang. Faqat bir marta ishlating, lekin zarur bo'lsa bir haftadan so'ng uni yana bir marta ishlatishingiz mumkin.

### **Bit**

Bosh bitlari - bosh terisida yashaydi va soch tolasining boshga yaqin joyiga oq tuxum qo'yadi. Sirkalar esa, qulqlar orqasida ko'proq topiladi. Barcha bosh kiyim va choyshab, bolish g'iloflari juda issiq suvda yuvish, qaynatish, yaxshi quritish va dazmollash yo'li bilan dezinfeksiya qilish kerak.

**Permetrin** (Zebrik, Nittifor)  
1%li losyon.

**Piretrin** (0.3 % li Piretrin, 3 % li

Piperonid, Rid).

Sochingizni losyon bilan ho'llang va 10 min. ga qoldiring, lekin undan ortiq vaqtga emas. Ko'pitirish uchun, kerakli darajada iliq suv quying va doimgidek shampunlang. Boshingizni yuvgach mayda tishli taroq bilan o'lik bit va sirka tuxumlarini sochingizdan tarab tashlang. Muolajani 7-10 kundan so'ng yangi bitlarni yo'qotish uchun qaytarish mumkin, lekin doimo shart emas.

**Jarohatlangan to'qimalarni qayta tiklash (chok solish). Mahalliy og'riqsizlantiruvchi dorilar.**

**Lidokain** (1% li yoki 2% li).

Ko'pincha ampula yoki flakonchalarida chiqariladi. Lidokain jaro-hatning chetlarini tikishdan avval, anesteziya (og'riq sezmaslik) uchun ishlatiladi. 20 ml.dan ortiq ishlatmang. Tikishdan oldin jarohatni yaxshilab yuvling.

## 12. MOXOVGA QARSHI DORILAR

Bu kasallik O'zbekistonda kamdan kam uchraydi. Moxovni davolayotganda asosiy 2 turidan qaysi biri bemorda borligini aniqlash kerak.

Agar dog'lar oqish, sezish qobiliyati pasaygan, lekin teri shishsiz yoki qalinlashmagan bo'lsa, bu

sil turi bo'lishi mumkin va bunda faqat 2 xil dori kerak bo'ladi. Agar kasalda shishlar ham bo'lsa, bu lepromatoz moxov bo'lishi mumkin va bunda 3 xil dori ishlatilgani yaxshi. **Agar iloji bo'lsa, moxovga qarshi dorilar malakali tibbiyot xodimi nazorati ostida ishlatilishi kerak.**

Moxovni davolash, kamida 6 oy va ba'zan butun hayot davomida bo'lishi mumkin. Moxov bakteriyasi (batsillasi) dorilarga chidamli bo'lib qolmasligi uchun dorilarni to'xtatmay, doimiy ravishda ichib borish zarur. Doringiz tugab qolishidan avval yangisini sotib oling.

**Tavsiya qilingan davolash.**

Teridagi moxovning turi uchun ikkala dorini ham kamida 6 oy davomida iching:

Har kuni **Dapson**,

har oyda bir marta **Rifampin** ichib turish kerak.

*Lepromatoz moxovda quyidagilar 2-5 yil davomida ichiladi:*

**Dapson** har kuni, **Rifampin** har oyda bir marta, har kuni **Klofazimin\***; va oydan oyga miqdorni oshiring.

\*Bu dori topilmasligi mumkin.

**Eslatma:**

Moxovda dapson bilan boshqa dori ham birgalikda ishlatsa, tezroq davolani ladi, ammo faqat dapsonni topish mumkin bo'lsa, bunda uning bir o'zi ichilganda ham, u ko'pincha yaxshi natijalarга olib keladi, ammo juda sekin. Shuning uchun, muolaja kamida 2 yil va ba'zan insonning butun hayoti davomida davom ettirilishi kerak bo'ladi.

Ba'zan moxovga qarshi dorini ichuvchi odamlar „moxov reaksiyasi” deb ataluvchi jiddiy muammoga duch kelishlari mumkin.

Bunda shish va yallig'lanishlar, dog'lar, isitma va nerv tolalarning shishishi va og'rishi kuzatilishi mumkin. Bu reaksiya bo'g'imlar, limfa bezlari va moyaklarning og'ishi, qo'l va oyoqlarning shishishiga yoki ko'zlar qizarib og'rishiga ham sabab bo'ladiki, hatto ko'z ko'rmay qolishi mumkin.

Ushbu reaksiyaning jidiy hollarida (nerv yo'llari bo'y lab bo'ladigan og'riq, holsizlik yoki quvvatsizlik, ko'zlarning qizarib yallig'lanishi yoki moyaklarning og'rishida) moxovga qarshi dorini ichishni davom ettirish kerak, lekin u bilan bir qatorda gidrokortizondek yallig'lanishga qarshi gormonal dori ham berish lozim. Malakali shifokor-

ga murojaat qiling, chunki kortikosteroidlar ham jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

**Dapson** (Diafenilsulfon, Avlosulfon).

Ko'pincha 25; 50 va 100 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Dapson, ba'zan og'ir kamqonlik yoki teri toshmalari sababchisi bo'lishi mumkin. Agar teri ko'p po'st tashlab archila boshlasa, dori ichishni to'xtating.

**EHTIYOT BO'LING:** Dapson xavfli doridir. Uni bolalar ola olmaydigan joyda saqlang.

**Miqdori:** har bir kilo vazn uchun 2 mg. dan kuniga bir mahal. Bir martalik miqdori: kattalar: 50-100 mg. 13-18 yoshdagi bolalar: 50 mg. 6-12 yoshdagi bolalar: 25 mg. 2-5 yoshdagi bolalar: haftasiga 3 mahal 25 mg.

**Rifampin** (Rifampsitsin, "R"-iin, Rimaktan), Klofazimin\*.

Ko'pincha 50; 150 va 300 mg. li tabletka yoki kapsula, ampula va kukun shaklida flakonchalarda chiqariladi.

Rifampin juda qimmat dori, ammo moxovni davolashning boshida undan birozgina kerak bo'ladi xolos, shunday qilib umumiyl

narxi qimmat emas. Salbiy ta'sir va xavflari haqida 459 - betga qarang. Rifampinni faqatgina malakali shifokor yoki tibbiyot xodimi tavsiyasiga asoslanib iching.

**Miqdori:** Har bir kilo uchun 10-20 mg. dan oyda bir marta. U ovqatdan 1 yoki 2 soat oldin ichilishi kerak.

Har oyda:

Kattalar: 600 mg.

8-12 yoshdagি bolalar: 450 mg.

3-7 yoshdagи bolalar: 300 mg.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar: 150 mg.

**Klofazimin\*** (Klofazimine)

Ko'pincha: 50 yoki 100 mg. li tablet-kalarda chiqariladi.

Klofazimin-qimmat dori. Umoxov bakteriyasiga qarshi kurashta rifampindek foydali bo'lmasa-da, lepromatoz moxovi bor ba'zi odamlarning moxov reaksiyasini pasaytirishga yordam beradi.

**Salbiy ta'sirlari:** Terining rangini qizartirishi mumkin. Bu faqat vaqtincha bo'lib dori ichishni to'xtat-ganigizdan so'ng 1-2 yil ichida yo'qolib ketadi. Oshqozonga aloqador a'zolarda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Homilador ayollarga tavsiya qilinmaydi.

**Miqdori:** har bir kilo uchun kuniga 1 mg. bering. Har kuni bir mahal

ichiladi va oyiga bir marta kattaroq miqdorda beriladi.

Bir kunlik miqdori: kattalar: 50 mg. har kuni bir mahal 3-12yoshdagи bolalar: 50 mg. har 2 kunda 3 yoshgacha bolalar: 50 mg. haftada 2 mahal

**Eslatma:** Klofazim ishlatishda malakali shifokor maslahatini olganingiz ma'qul.

### 13. ANTIGISTAMINLAR - AL-LERGIYAGA QARSHI DORILAR (TERI, KO'Z, BURUN ALLERGIYALARI)

**Prometazin** (Pipolfen) va **Difengidramin** (Dimedrol) - antigistaminlar bo'lib, ko'p uxlataladi.

**Dimengidrinat** (Dedalon), ko'pincha bosh aylanishida ishlataliladi. Boshqa sabablar bilan bog'liq qayt qilishlarda prometazin (Pipolfen ) foydaliroqdir.

Antigistaminlar oddiy shamilash (tumovda)da foyda bermaydi. Ular ko'pincha keragidan ortiqcha ishlataliladi.

Antigistaminlar astmada (nafas qisganda) ishlatalmasligi kerak, chunki dori balg'amni quyuqlashtiradi va nafas olishni yana ham qiyinlashtirishi mumkin.

Odatda, dori qutichasi

(aptechka)da antigistaminlardan bit-tasining bo'lishi yetarli. Prometazin (Pipolfen, Fenergan, Diprazin) bo'lgani ma'qul, chunki uni doim qabul qilish mumkin. Boshqa anti-gistaminlar miqdori ham berilgandir.

**Odatda, antigistaminlarni ichish foydaliroqdir.** Ukollar faqat kuchli ko'ngil aynishi yoki (qoqshol, ilon zahri va boshqalarga qarshi) antitoksindan, allergik shok xavfi bo'lgan mahallarda ishlatiladi. Bolalarda uning shamchasini to'g'ri ichakka qo'ygan ma'qul.

**Terfenadin** (Tedin, Lotanaks) va Astemizol (Gistalong, Gismanal, Stemiz)lar - odamni uxlatmaydi.

**Difengidramin** (Dimedrol, Benadril).

20; 25; 30; 50 mg. li kapsulalarda va 1 % li eritmasi (1 ml = 10 mg.) ampulada bo'ladi.

**OGOH BO'LING:** Difengidraminni yangi tug'ilgan chaqaloq va emizikli ayollarga bermang.

#### ***Miqdori:***

Kuniga 3-4 mahal bering:

kattalar: 25-50 mg.

8-12 yoshdagি bolalar: 25 mg.

2-7 yoshdagি bolalar: 12,5 mg.

chaqaloqlar: 5 mg.

Difengidramin faqat allergik shok holatlarida ukol qilinishi kerak.

Bir marotaba ukol qiling, agar kerak bo'lsa 2-4 soatda muolajani qaytar- ing.

kattalar: 25-50 mg. (2,5-5 ml.)  
bolalar: yoshiga qarab 10-25 mg. (1 - 2,5 ml.), yuqoriga qarang.  
chaqaloqlar: 5 mg. (1,5 ml.).

**Prometazin** (Pipolfen, Fenergan, Diprazin).

Ko'pincha: 25 mg. li tabletka, 25-50 mg. li drajelarda va 25mg. li (1ml) ukol uchun ampulalarda chiqariladi. (2,5 % - 2 ml.)  
12,5mg., 25 mg., 50 mg. li sham-chalar

**OGOH BO'LING:** Homilador ayol prometazinni faqat juda zarur bo'lgan paytdagina ishlatishi mumkin.

***Miqdori:*** har bir kilo uchun kuniga 1 mg. 25 mg. li tabletkalarni ishlatgan holda:

Kuniga 2-3 mahal ichiring:

Bir martalik miqdori:

kattalar: 25-50 mg. (1 yoki 2 tabletka) 7-12 yoshdagи bolalar: 12,5 mg. (1/2ta tabletka)

2-6 yoshdagи bolalar: 6-12 mg. (1/4- 1/2 tabletka).

1 yoshli bolalar: 4mg. (1/6 tabletka).

1 yoshgacha bolalar: 2-3 mg. (1/8 tabletka).

**Muskulga qilinadigan 25 mg.li 1 ml.dagi ukol:**

Bir marta ukol qiling va agar kerak bo'lib qolsa, 2-4 soatdan so'ng yana takrorlang:

Quyidagilar uning bir martalik miqdori:

kattalar: 25-50 mg. (1-2 ml.)

7-12 yoshdagi bolalar: 12,5 mg. (1/2 ml.)

7 yoshgacha bolalar: 6-12 mg. (1/4-1/2 ml.)

1 yoshgacha bolalar: 2,5 mg. (0,1 ml.)

25 mg.li shamchalarni ishlatganda:

To'g'ri ichakka (ichkariroqqa) kirgizing va kerak bo'lsa 4-6 soatda qaytaring.

Bir martalik miqdori:

kattalar va 12 yoshdan katta bolalar: 25 mg. (1 shamcha)

7-12 yoshdagi bolalar: 12,5 mg.(1/2 shamcha)

2-6 yoshdagi bolalar: 6 mg. (1/4 shamcha)

**Terfenadin** (Tedin, Lotanaks) **ishlatmang.**

**Ushbu dorilarni Eritromitsin yoki Ketokonazol (Ketoral, Nizoral, Ketanil) kabi dorilar bilan birgalikda ishlatmang. Homiladorlar va jigar kasalligi bor odamlar ham ichmasligi kerak.**

**60 mg.li tabletkalarda ishlab**

chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar: 60 mg. li tabletkadan 2 mahal.

6-12 yoshdagi bolalar: 1/2 tabletkadan kuniga 2 mahal.

3-5 yoshdagi bolalar: tabletkaning 1/4 qismdan kuniga 2 mahal.

**Astemizol** (Gistalong, Gismanal, Stemiz).

**Ushbu antigistaminlarni Eritromitsin yoki Ketokonazol (Ketoral, Nizoral, Ketanil) kabilar bilan birga ichmang. Homiladorlar va jigar kasalligi bor odamlar ham ichmasligi kerak.**

5 va10 mg. li tabletkalar 5mg. li - 5 ml. shaklida suspenziya flakonchalarida bo'ladi.

**Miqdori:**

Kattalar: 10 mg. , (1ta tabletka), kuniga 1 mahal 7- 12 yoshdagi bolalar: 5 mg., kuniga 1 mahal.

**Kuniga ovqatdan oldin faqat 1 mahal iching. Ortiqcha ishlatmang.**

Ovqatdan oldin iching.

**Dimengidrinat** (Dedalon).

Ko'pincha bosh aylanishda va mashina, kema yoki samolyotda ko'ngil aynashning oldini olish va davolashda ishlataladi. Boshqa antigistaminlar singari allergik ta'sirlarga qarshi va uxlatish uchun ishlatalishi ham mumkin.

50 mg. li tabletkalarda ishlab chiqariladi.

**Miqdori:**

Kuniga 4 mahalgacha iching.

Bir martalik miqdori:

kattalar: 50-100 mg. (1 yoki 2 tabletka)

7-12 yoshdagি bolalar: 25-50 mg.  
(1/2-1ta tabletka)

2-6yoshdagи bolalar: 12-25 mg.  
(1/4-1/2 tabletka).

1-2 tabletkasi dengiz va havo ke-  
masiga chiqishdan 30 daqiqa oldin  
ichiladi.

**Sinnarizin** (Sturegon).

25; 75 mg. dan tabletkalarda chiqariladi.

Bu dorining bosh aylanishga qarshi ta'siri yaxshidir. Bu dori ham sayohatda ko'ngil aynishining oldini oladi. Uch haftadan uzok vaqt ichilmasligi kerak. Uning allergiyaga qarshi ta'siri kam.

**Miqdori:**

kattalar va 12 yoshdan katta bo-  
lalar: 25 mg., kuniga 3 mahal.

5 - 12 yoshdagи bolalar: 12,5 mg.,  
kuniga 3 mahal.

**Xlorfiniramin\***

\*O'zbekistonda bo'lmasligi mumkin.

Ko'pincha: 4 mg. li tabletkalarda  
(boshqa o'chamdagи tabletkalar va  
siroplar ham bor) chiqariladi.

**Miqdori:**

Kuniga 3-4 mahal iching.

Bir martalik miqdori:

kattalar: 4 mg. (1 tabletka)  
12 yoshgacha bolalar: 2 mg.  
(1/2 tabletka) chaqaloqlar: 1 mg.  
(1/4tabl.)

**14. KO'Z VA QULOQ KASAL-LIKLARI UCHUN**

*Eshituv yo'lli infeksiyasi  
(tashqi otit)da quyidagidan foydalanishingiz mumkin:*

**Eslatma:** Quloq ichidagi infeksiya  
(O'rta Otit) da antibiotiklar ichiladi.

**3 % li Sirka** (uksus) + **Spir.**

Bu qimmat emas va ko'pincha foyda qiladi.

Quyidagilarni aralashtirib o'zingiz tayyorlashningiz mumkin:

1 qism - 70 % li osh sirkasi, 10 qism

- suv (qaynatilgan), 11 qism Spirit.

### **Masalan:**

toza idishga (dori uchib ketmasligi uchun qopqog'li bo'lsin):  
1 choy qoshiq 70 %li osh sirkasi, 10 choy qoshiq qaynatilgan suv va 11 choy qoshiq spirit qo'shib aralashtir-ing.

Quloqqa kuniga 5-6 mahal tomizing.

Agar tomizuvg'ich (pipetka) bo'lsa, uni ishlating.

**Sofradeks** (Neomitsin + gramin-sidin + deksametazon).

Quloqqa kuniga 4 mahal 8-10 tomchidan tomizing va og'riyotgan quloq tomonini tepaga qaratib 5 minut yoting. Quloqqa toza paxta tiqib qo'ying.

### **Tashqi otit va ko'z qizarib sha-faqlashishi.**

Quyidagi dorilar tashqi otit, ko'z qizarishida va eshituv yo'lining infeksiyalarida ishlatalidi:

**Gentamitsin**, ko'z tomchilari (Gentagut), **Eritromitsin**, ko'z mazi(surtmasi) **Neomitsin**, ko'z tomchilari (Soframitsin), **Sulfatsil-natriy** (Albutsid), ko'z tomchilari **Siprofloksatsin**, ko'z tomchilari (Siprolet, Siproflet)\*\*

„Ko'z tomchisi“ deb yozilganiga qaramay, bularni tashqi otida ham quloqqa tomizish mumkin.

\*\*Siprofloksatsin, ko'z tomchilari (Siprolet, Siproflet)ni - iloji boricha homilador ayollarga va bolalarga ishlatmang.

Agar boshqa antibiotiklar foyda qilmasa, shundagina ularni bolalar va homilador ayollarga ishlatish mumkin.

### **Miqdori:**

Ko'z infeksiyalarida: 1-2 tomchidan kuniga 3-5 mahal ko'zga tomizing. Mazni(surtmani) esa, past qovo-qning ichkarisiga kuniga 3-4 mahal qo'ying.

Tashqi otitni davolash uchun: quloqqa kuniga 3-5 mahal tomizing.

Chaqaloqlardagi ko'z infeksiyasin-ing oldini olish uchun:

4 % li Kumush Nitrat, ko'z tomchilari yoki 0,5 % li Eritromitsin Mazi(Surtmasi) yoki Tetratsiklin 1 % li Maz (Surtmasi).

Bola tug'ilishi bilanoq har ko'zga 1-2 tomchidan faqat bir marta tomizing yoki mazini(surtmasini) qo'ying.

**Glaukoma** (ko'z bosimi oshishi ko'ksuv)ga qarshi dorilar.

Bular ko'z bosimi juda ko'tarilib ketganda ishlataladi. Agar vaqtida davolanmasa, ko'rlikka olib kelishi mumkin. U odatda 40 dan oshgan odamlarda uchraydi.

Agar glaukoma yoki ko'zingizda og'riq bo'lsa, ko'rlikning oldini olish uchun o'sha zahoti shifokorga uchrang.

Dori yaxshi ta'sir qilayotgani ni bilib turish uchun, ko'zingizdagи bosimni tez-tez tekshirtirib turishin-giz kerak.

**Eslatma:** Ko'zingizga dorini tomizganingizdan so'ng 3 minut davomida yumib turing.

**Timolol**, 0,25-0,5 % li tomchilar (Timoptik, Arutimol).

1 tomchidan kuniga bir yoki ikki mahal.

**Pilotkarpin** (Pilotkarpin gidroxlorid) 1-4 % li Tomchilar 1- 2 ta tomchidan har 6-12 soatda.

**Epinefrin** (Adrenalin) 1-2 % li Tom-chilar.

1- 2 tomchidan bir yoki ikki mahal.

**Atsetazolamid** (Diakarb) tabletkasi. 250; 500 mg. li kapsula yoki tablet-kalarda chiqariladi.

### **Miqdori:**

Kuniga ikki mahal 125 mg. dan icha boshlang va zaruratga qarab kuni-ga 4 mahal 250 mg. gacha ko'pay-tiring (shifokor bilan maslahatlash-ing).

### **15. BO'QOQNING OLDINI OLISH VA DAVOLASH UCHUN**

Bo'qoqning oldini olish uchun: do-imo Yodlangan tuz yoki 5 % li yod eritmasini ishlating.

Bo'qoq bor bo'lsa: Quyida aytgan-larimizni qilsangiz, boshqa hech qanday dorisiz kichkina (1-2 sm. li ) bo'qoqlar yo'qolishi mumkin. Nati-jalar bir necha oy ichida ko'rindi.

### **Yodlangan tuz**

Bo'qoqdan saqlanishning eng yaxshi yo'li - yodlangan tuz ishlatalishdir. **Yodlangan tuz topsangiz, bu bo'qoqdan saqlanishning eng oson va kafolatli yo'lidir.** Doimo yodlangan tuz ishlating. Uni maxsus paketga qadoqlangani ishonchliroqdir.

### **5 % li Yod eritmasi**

1 ta 10 ml. li yod shishachasi arzon turadi va 7-8 oyga yetadi. 5 % li yod eritmasida1 tomchisiga taxminan 2 mg. yod to'g'ri keladi (yoki 2 ta

Antistrumin, yoki Yodid 100 tablet-kasiga).

Agar sizda bo'qoq bo'lsa (yoki yodlangan tuz topa olmasangiz) 5 % li Yod eritmasini ishlating.

### **Miqdori:**

Har kuni ertalab choynakka 5 % li yoddan 1 ta tomchi tomizing, oilaning har bir a'zosi uni 1-2 piyoladan bir mahal ichsin.  
Agar faqatgina 1 ta odam uchun bo'lsa: 1 piyolaga 1 tomchi, haftada 2 marta iching.

### **Ehtiyyot bo'linglar!**

Dorini 1ta tomchidan ko'p qo'shmang. Homiladorlik vaqtida 5 % li yod ishlatish kerak emas. Uning o'rnidagi yodlangan tuz ishlating.

**Yod Tabletkalari** (Antistrumin, Yodid 100).

Har bir tabletkada 1 mg. yod bor.

Bu dori 5 % li yodga nisbatan qimmatroq.

### **Miqdori:**

Kattalar: 1 ta tabletidan har kuni.  
Bolalar: 3 kunda 1 tadan tabletka ichishi kerak.

Bo'qoq yo'qolgandan so'ng, faqatgina yodlangan tuz yoki 5 % li yod eritmasini ishlating, aks holda bo'qoq yana paydo bo'ladi.

Haftada 2 marta 1 mg. li bitta tablet-kadan Antistrumin yoki Yodid 100 tabletkasidan iching.

5 % li yod (va Yodli tabletkalar)ni bolalardan uzoqda saqlashni unutmang. Ortiqcha miqdordagi yod ham zararlidir.

### **Eslatma:**

**Kattaroq bo'qoqlar bo'lsa (2.5 - 3 sm ), shifokor sizni albat-ta tekshirishi kerak.**

**Agar yod ta'sir qilmasa, shifokor sizga qalqonsimon bez gormonini bir necha oy ichishin-gizni tavsiya qilishi mumkin.**

**Agar odamda bo'qoq bo'lsa, qa-Itirasa, ozib ketsa, asabiylashsa va ko'zları kattalashib ketsa, bu oddiy bo'qoq emas, u jiddiy mu-olajalarni talab qiladi. Bu holda tezroq shifokorga murojaat qili-shingiz kerak bo'ladi.**

## **16. SHAMOLLASH (BURUN BITISHI) VA YO'TALGA QARSHI DORILAR**

### **Burun bitishi**

Ushbu dorilarni doim 72 soat (3 kun)dan ortiq ishlatmang. Agar siz ularni bundan ortiq ishlatadigan bo'lsangiz, organizm ularga o'rganib qoladi.

Qon bosimi yuqori, yuragi kasal, yuragi tez uradigan, glaukoma yoki qalqonsimon bezi o'ta aktiv bo'lgan odamlar ushbu dorilarni ishlatmasligi kerak.

**Naftizin** (Sanorin) 0,1 % li burun bitishiga qarshi tomchilar.

1- 2 tomchidan burunga kuniga 2-3 mahal yoki kerakligicha tomizing.

**Ksilometazolin** 0,1 % li Burun bitishiga qarshi tomchilar (Galazolin, ksimelin).

1- 3 tomchidan burunga kuniga 1-3 mahal yoki kerakligicha tomizing.

### **Yo'talga qarshi**

Yo'tal odam organizmining havo yo'llarini tozalovchi va himoyalovchi usul (refleks) dir. Odam yo'talganda turli mikrob va zarar keltiradigan balg'amlarni o'pkadan tashqariga chiqarishga yordam beradi.

Yo'tal organizmning himoya usuli bo'lgani tufayli ba'zan yo'talni to'xtatib yoki uni pasaytiradigan dorilarni ishlatishning foydasidan zarari ko'proq. **Yo'talni kamayti-ruvchi bunday dorilar** (yoki yo'tal bosuvchilar) faqat kasalni uxlatmayotgan, asabini buzayotgan, quruq yo'tallarga qarshi ishlatilishi kerak.

Shuningdek **balg'am ko'chiruvchilar** deb ataladigan dorilar ham bor, ular balg'amni suyuqlashtiradi va yo'talishni osonlashtiradi. Ular ishlatishga qulayroq va foydaliroqdir.

Hozirgi kunda, yo'tal dorilari keragidan ortiq ishlatilmoxda. Keng tarqalgan yo'talga qarshi siroplar bir oz yordam beradi yoki umuman foydasiz va pulni o'rinsiz sarflash xolos.

Eng muhim va yaxshi yo'tal dorisi - bu suvdir. Ko'p suv ichish va issiq suv bo'g'i balg'amni ko'chiradi va ba'zi yo'tal siroplariga nisbatan yo'talni yaxshiroq bosadi. Yo'l-yo'riq xususida 311-betga qarang. Shuningdek, uyda tayyorlanadigan yo'tal sharbati xususida 312-betga qarang.

**Dekstrometorfan** (Benikal roshe).

Sharbat (Sirop): har bir ml. da 3,5-30 mg. dori bor.

### **Miqdori:**

Kattalar: zarur bo'lganda har 6-8 soatda 30 mg. dan ichsin.  
6-12 yoshdagি bolalar: 15 mg. dan, zarur bo'lganda har 6-8 soatda;  
2-6 yoshdagি bolalar: 7.5 mg. dan, zarur bo'lganda har 6-8 soatda.

## 17. SIL DORILARI

Silni davolashda, doim silga qarshi **2, 3 hatto 5 ta dorini bir-ga ishlatgan muhim**. Agar faqat bittagina dori ishlatsa, sil bakteriyasi unga chidamli bo'lib qoladi va davolashni og'irlashtiradi.

Sil, odatda uzoq vaqt - 6-9 oy yoki ko'proq vaqt davomida davolaniladi. Muolajaning davom etish vaqtiga qanday dorilarning aralashmasi ishlatalayotganiga bog'liq. Sil qayta takrorlanmasligi uchun **to'la, uzoq davolanish juda muhimdir**.

Ba'zi sil dorilar (rifampin, pirazinamid, etambutol) dorixonada qimmat bo'ladi. Lekin ba'zi sog'liqni saqlash dasturlari sil tekshirishlarini olib boradilar va dorilarni bepul yoki arzonroqqa beradilar.

Malakali mutaxassis maslahati muhim, chunki davolash usullari o'zgaradi, bakteriya doriga chidamli bo'lib qoladi va yangi dorilar ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, ba'zi dasturlarda dorini faqat haftasiga 3 marta katta miqdorda berish tavsiya qilinadi.

Agar dorilar qichishish, teri va ko'zlarning sarg'ayishi, qorin og'rishi kabi ta'sirlarga olib kelsa, tibbiyot xodimiga dorining miqdorini o'zgartirish yoki boshqa doriga almashtirish haqida murojaat qiling.

Agar suvli toshmalar paydo bo'lsa, dorini tibbiyot xodimiga uchragunin-gizga qadar ichmang.

Sil dorilarini qabul qilayotgan mahalda, spirtli ichimliklarni ichmang. Ayniqsa, Izoniazid ichayotgan bo'lsangiz.

### Tavsiya qilingan dorilar

Sil kasalligini davolash asosan quyidagi omillarga bog'liq:

- Balg'amingizni tekshirt-irish natijasiga. Tibbiyot xodimi mikroskopdan foydalanib balg'amingizda sil bakteriyalari bor yoki yo'qligini aniqlaydi. Agar tekshiruvda sil bakteriyalari ko'rinsa, bu sizdag'i ushbu kasallik borligiga yaqqol dalildir.

- Siz sil kasalligiga qarshi avval davolangan bo'lsangiz, infeksiyani yo'qotish uchun 5 ta dorini birdaniga ichishingiz kerak.

- Kasalingiz og'irmi yoki yengilmi? Og'ir bo'lsa, u ko'proq dori talab qiladi.

### Siz qaysi toifaga kirasiz?

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti 1997 yil, sil kasalligini davolash yo'l yo'riqlarini 4 toifaga bo'lishni tavsiya qildi.

***Qaysi dorini qanday ichish  
kerakligini bilish uchun quyidagi  
jadvalga qarang:***

-Agar balg'am tekshiruvida sil bakteriyalari ko'rinsa va avval davolanmagan bo'lsangiz, siz 1-toifadasiz.

-Agar balg'am tekshiruvida sil bakteriyalari ko'rinsa va avval davolangan bo'lsangiz, siz 2-toifadasiz.

-Agar balg'am tekshiruvida sil bakteriyalari aniqlanmasa, ammo ko'krak qafasi rentgen qilinganida og'ir infeksiya belgilari ko'rinsa va avval davolanmagan bo'lsangiz, siz 1-toifadasiz.

-Agar balg'am tekshiruvida sil bakteriyalari aniqlanmasa, ammo ko'krak qafasi rentgen qilinganida yengil infeksiya belgilari ko'rinsa va avval davolanmagan bo'lsangiz, siz 3-toifadasiz.

-Og'ir sil infeksiyasi o'pkadan tashqarida bo'lsa, siz 1-toifadasiz. Infeksiya og'ir bo'lmasa, siz 3-toifadasiz.

-Agar 2-toifa uchun tavsiya qilingan davolanish yo'l-yo'riqlari bilan davolangan bo'lsangiz, ammo hali ham balg'am tekshiruvida sil bakteriyalari ko'rinsa,

siz 4-toifadasiz. Maxsus dorilar (ikkinchi qator dorilari) bilan maxsus joyda davolanishingiz kerak.

Kamdan-kam hollarda bemor to'liq davolangan va balg'am tekshiruvida bakteriya aniqlanmagan bo'ladi, lekin ko'krak qafasi rentgen qilinganida (yoki boshqa tekshiruv) infeksiya hali ham bordek ko'rindi.

Agar shunday bo'lsa, tibbiyat xodimi bemorga 2-toifa bo'yicha davolanishni tavsiya qilishi mumkin. Bu kamdan-kam uchraydi. Agar haqiqatda ham kasallik bo'lsa, bakteriya balg'am tekshiruvida ko'rindi.

Tioatstazondan tashqari hamma "sil kasalligiga qarshi" ishlataladigan dorilarning samaradorligi, ularni har kunlik va faqatgina haftada 3 marta qabul qilish bilan teng. Biz dorilarni "tibbiyat xodimi huzurida" haftada 3 kun qabul qilishni tavsiya qilamiz. (Kuzatiladigan Davolash Usuli deb ataladi).

Dorilarning davolash miqdorining jadvali quyida berilgan.  
***E'tibor bering: Haftada 3 marta ichiladigan dorilar miqdori kunli dori miqdoridan ko'proq bo'lishi mumkin.***

**Tavsiya Qilingan Davolash usullari:****Toifa**

	Birinchi 2 oy ichiladigan dorilar	Keyingi 4-6 oy ichiladigan dorilar
I	Izoniazid + Rifampin + Pirazinamid + Etambutol yoki Streptomitsin  Har kuni yoki haftada 3 mahal 2 oy davomida	Izoniazid + Rifampin 4 oy davomida har kuni yoki haftada 3 marta yoki Izoniazid + Etambutol 6 oy davomida har kuni.
II	Izoniazid + Rifampin + Pirazinamid + Etambutol + Streptomitsin** 3 oy**, har kuni yoki haftada 3 marta.  (*Streptomitsin-ni faqat 2 oy qabul qiling. 2 oydan so'ng uni qabul qilishni to'xtating.)	Izoniazid + Rifampin + Etambutol 5 oy har kuni yoki haftada 3 marta.
III	Izoniazid + Rifampin + Pirazinamid 2 oy har kuni yoki haftada 3 marta	Izoniazid + Rifampin 4 oy har kuni yoki haftada 3 marta yoki Izoniazid + Etambutol 6 oy har kuni
IV	Ikkinci qator dorilaridan foy-dalanib Maxsus davolash kerak.**	Ikkinci qator dorilaridan foydalanib Maxsus davolash kerak**

**Silga qarshi kerakli dorilarning miqdori**

Kattalar uchun odatdagagi miqdor yozilgan. Miqdorlar kattalar uchun ham bolalar uchun, dorining miqdori (mg. ) odamning og'irligi (kg.)ga asoslangan.

Dorilar	Har kuni Ichiladigan Miqdori	Haftada 3 Ma-hal Ichiladigan Miqdori
Izoniazid (Tubazid)	200-300 mg. (5 mg./kg.)	450-600 mg. (10 mg./kg.)
Rifampin	450-600 mg. (10 mg./kg.)	450-600 mg. (10 mg/kg)
Pirazin-amid	1200-1500mg. (25 mg./kg.)	1500-2000 mg. (35 mg./kg.)
Strep-tomitsin	750-1000 mg. (15 mg./kg.)	750-1000 mg. (15 mg./kg.)
Etambu-tol	800-1000 mg. (15 mg./kg.)	1600-1800 mg. (30 mg./kg.)
Tioatse-tazon*	150 mg. (2,5 mg./kg.)	

Balg'amni mikroskopda tekshirish nafaqat sil kasalligiga tashxis (diagnoz) qo'yish uchun, balki organizmni davolashdan kutilgan natijani aniqlash uchun qilinadi.

Odatda davolash natijasida balg'amda bakteriya yo'qoladi. Balg'amida sil bakteriyalari mavjud bemorlarni davolashda kutilidanatijani aniqlashda balg'amni tekshirish, qayta-qayta rentgenda tekshirishdan

yaxshiroqdir.

Balg'am odatda davolashning boshlanishida, so'ng 2, 4 va 6 oy davolashdan keyin tekshiriladi.

\*\* Ikkinch qator dorilari Siprofloksatsin, Ofloksatsin, Siklosepin va Kanamitsnlarni o'z ichiga oldadi.

### **Ba'zi holatlardagi davolash**

Homilador ayollarni davolash:

Ayol silga qarshi dori qabul qilishidan avval uning homiladorligi haqidada so'ralishi kerak.

Silga qarshi ko'pgina dorilarni homilador ayollar qabul qilsa bo'ladi. Lekin Streptomitsinni homilador ayollar ichishi mumkin emas. Ular Streptomitsin o'rniqa Etambutol ichishi mumkin. Homilador ayollar ham homilasi borligiga qaramay to'liq davolanishi kerak.

### **Emizikli ayollarni davolash:**

Yuqoridagi hamma dorilar emizikli ayollar tomonidan xavfsiz qabul qilinishi mumkin. Emizikli ayollar tavsiya qilingan dorini to'liq miqdorida qabul qilishi kerak. Ona odatdagidek emizishni davom ettiriши lozim.

Chaqaloq esa Izoniazid va BSJ emdorisi bilan emlanishi kerak.

### **Jigar kasali mavjud odamlarni davolash:**

O'tkir gepatitdan to'liq davanib chiqqan odam yuqoridagi dorilarni qabul qilishi mumkin. Gepatit B yoki S(L) kabi surunkali jigar kasalliklariga chalingan odamlar quyidagi tartib bilan davolanishi kerak:

Izoniazid+Rifampitsin+Streptomitsin+ Etambutol 2 oy va keyin yana 6 oy Izoniazid+ Rifampitsin, umumiy davolash muddati 8 oy.

Yana bir qo'llaniladigan tartib: Izoniazid+ Etambutol + Streptomitsin 2 oy, so'ng yana 10 oy Izoniazid+ Etambutol.

Kontraseptiv dorilarni qabul qilayotgan ayollar:

Rifampitsin, ichiladigan kontraseptivlar samardorligini pasaytiradi. Siz homiladorlikdan saqlanishning Spiral yoki Prezervativ singari boshqa usullaridan foydalanishingiz kerak.

### **SPID (OITS)**

SPIDga chalingan bemorlarni yuqoridagi tartiblarning barchasi bilan davolash mumkin, lekin davolashga 3 oy qo'shilib umumiy muddat 9 oygacha cho'zilishi kerak.

## Boshqa a'zolarga va nerv siste-masiga tarqalgan sil infeksi-yalari.

9 oylik davolash usuli o'tkir o'pka silida, meningit yoki umurtqa sili kasalligida ham qo'llanilishi mumkin.

### Dorilarning salbiy ta'sirlari.

Izoniazid, ba'zan nerv faoliyatining buzilishiga sabab bo'ladi. Bunday holatda oyoq kuygandek yoki qizib ketgandek bo'lib seziladi.

Buning oldini olish uchun har kuni 10 mg. piridoksin (Vitamin B6) qabul qilish orqali oldini olish mumkin. Homilador ayollar, jigar kasali bor odamlar, qand kasali (diabet) ga chalinganlar, ozib ketgan, ko'p spirtli ichimlik ichuvchilar va SPID (OITS)ga chalinganlar uchun bu juda muhimdir.

### Gepatitni keltirib chiqaruvchi sil-ga qarshi dorilardan foydalanish.

Izoniazid, Pirazinamid, Rifampitsin va ba'zan Etambutol gepatitga sabab bo'ladilar. Agar gepatitni keltirib chiqaradigan boshqa sabablar topilmasa, dorilar ichmay turishingiz kerak. Sariq kasalligi o'tib ketsa, avvaldagagi davolashga yana amal qilish mumkin.

Agar gepatit kuchli bo'lgan

bo'lsa, boshqa davolnish tartibiga amal qilish kerak. Streptomitsin + Izoniazid + Etambutol bilan 2 oy davomida har kuni so'ng, yana Izoniazid va Etambutol bilan 10 oylik davolash tavsiya qilinadi.

### Sil kasalligining Birinchi qator dorilari:

#### **Silga qarshi ishlataladigan dorilar miqdori yuqorida berilgan.**

##### **Izoniazid (Tubazid).**

100; 200; 300 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Bu silga qarshi eng asosiy doridir. Silni davolash uchun, u doim silga qarshi kamida yana bitta dori bilan birgalikda berilishi kerak. Oldini olish uchun bir o'zi ishlatalishi mumkin.

### **Xavfi va Ehtiyyotlik choralar:**

Ba'zan izoniazid kamqonlik, qo'l va oyoqlardagi nervlarning og'rishi, muskullarning tortilishi yoki, agar bemor ovqatga yolchimayotgan bo'lsa, hatto titroqlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Ushbu salbiy ta'sirlarni har kuni 50 mg. dan piridoksin (B6 vitamini) berish orqali davolash mumkin (706-bet).

Ba'zan izoniazid jigarni shikastlashi mumkin.

Agar kasalda izoniazidni qabul qilish jarayonida gepatit (sariq) kasalligining belgilari (teri va ko'zlarning sarg'ayishi, qichishish, ishtaha yo'qolishi va qorin og'rig'i, 108-bet) paydo bo'lsa u dori ichishni to'xtatishi kerak.

Sil bilan og'riyotgan odamning oila a'zolari silga chalinib qolmasligi uchun izoniazidni jadvaldagi miqdorida 6-9 oy davomida qabul qilish tavsiya qilingan.

**Rifampin** (Rifampitsin, "R"-iin, Rimaktan).

Ko'pincha 50; 150 yoki 300 mg. li tabletkalar yoki kapsulalar ko'rinishida bo'ladi.

Ushbu antibiotik qimmat, ammo silga qarshi kurashishda juda kuchlidir. Shuningdek, u Izoniazid va silga qarshi yana kamida bitta boshqa dori bilan birga ichilganda davolanish davrini ancha qisqartiradi. (Rifampin, shuningdek, moxov kasalligini davolashda ham ishlatalidi, 675-betga qarang.)

Rifampinni doimiy ravishda to'xtatmay ichish zarur. Ishlatayotgan doringiz tugamasdan oldin yangisini olib qo'ying.

**Xavfi va Ehtiyyotkorlik choralar:**

*Rifampin jigarni jiddiy shikastlashi mumkin. Jigari kasal yoki homilador bemorlarda dorini shifokor nazorati ostida ishlatish zarur.*

**Salbiy ta'sirlari:**

Siydik, ko'z yoshlari, axlat, so'lak, balg'am va ter rifampin sababli qizg'ish bo'lib qolishi mumkin. Ba'zan rifampin isitma, ishtaha kuchayishi yoki pasayishi, qayt qilish, ko'ngil aynishi, titroq, toshma va hayz muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Rifampin ichiladigan kontraseptivlarning quvvatini pasaytiradi. Shuning uchun kontraseptiv dorilarni ichuvchi ayollar dorilarning miqdorini oshirish bo'yicha shifokor bilan maslahatlashishlari kerak.

Yoki dorini ichish mobaynida prezervativ, spiral (bachardon ichi vositasi), diafragma (bachardon bo'yinchasi qalpoqchasi) kabi boshqa usullarni ham qo'llashi kerak.

**Pirazinamid** (Pirazinamid-500, Pizid-500, Pizina). Ko'pincha 500 yoki 750 mg. li tabletkalarda bo'ladi.

**Salbiy ta'sirlari:**

Bo'g'imlarning shishib og'riishi, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi

va qayt qilish, siyishga qiynalish, charchash va isitma bo'lishi mumkin.

**Etambutol** (Ebutol, Kombutol, Temibutol). Ko'pincha, 100; 200; 400; 500 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

### **Xavfi va Ehtiyyotkorlik choraları:**

Etambutol uzoq vaqt mobaynida, katta miqdorlarda ichilganda, ko'zlarning og'rishi yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Ko'z muammolari yuzaga kelayotganda, dori ishlatalishni to'xtatish kerak. Doridan kelib chiqqan ko'z muammolari dori to'xtatilgandan so'ng asta o'zi tuzalib ketadi.

### **Streptomitsin**

Ko'pincha 100; 200; 500 mg. dan shishachalarda chiqariladi.

Streptomitsin hali ham silga qarshi yaxshi ta'sir qiladigan dorilar-dandir. Rifampinga nisbatan kuchsizroq, lekin unga qaraganda arzon.

### **Xavfi va Ehtiyyotkorlik choraları:**

Tavsiya etilgan miqdordan ortiqcha berilmasligi kerak. Streptomitsin juda uzoq muddat davomida ishlatsa, karlikka olib kelishi mumkin. Agar quloqda shang'llash paydo bo'lsa yoki eshitish qobili-

yati susaya boshlasa, dori ichishni to'xtatib, shifokorga uchrang.

**Streptomitsinni homilador ayol-lar yoki buyragi kasal odamlar qabul qilmasligi kerak.**

### **Sildan tashqari hollarda streptomitsinning ishlatalishi.**

Streptomitsin va penitsillin juda zarur bo'lsa, birgalikda ba'zi og'ir infeksiyalarni davolashda ishlatalishi mumkin. Shunga qaramay, streptomitsinni boshqa kasallikkarda ishlatalishi chegaralangan bo'lishi kerak, chunki bu silni doriga chidamli qilib qo'yadi va davolashni og'irlashtiradi.

Streptomitsin ba'zan penitsillinga chidamli bo'lgan so'zakka qarshi ham ishlataladi, bunda faqtgina bir martalik miqdor kerak (480 bet).

### **Tioatsetazon\*** (Tibon, Ambatizonum, Diazan, Parazon, Tubigal).

\*O'zbekistonda hali yo'q.

Ko'pincha tarkibida 50 mg. Tioatsetazon bo'lgan tabletkalarda chiqariladi.

**Salbiy ta'sirlari:** Toshma, qayt qilish, bosh aylanishi yoki ishtaha yo'qolishi kabilarga olib kelishi mumkin. Salbiy

ta'sirlari ko'pincha, OITS (SPID) bilan og'rigan odamlarda kuchliroq bo'ladi.

ayollarga bermang.

## **18. ASTMAGA QARSHI ISHLATIL-ADIGAN DORILAR**

### **Ikkinci qator dorilari**

Quyida berilgan dorilar odatda sil kasalligini davolashda ishlatiladigan dorilar ta'sir qilmay qolganida ishlatiladi.

**Ularni topish oson, ammolar qimmat (**homiladorlikda bularni ishlatmang**).** Ularni yuqorida aytilgan dorilarga qo'shib qabul qilish kerak.

**Siprofloksatsin** (Sifloks, Sipro, Siprolet, Sefobak, Siteral, Siprokor). 0.25 g., 0.5 g. va 0.75 g. li tabletkalalar, ko'z tomchilari va venaga yuboriladigan ukollar ko'rinishida ishlab chiqariladi.

#### **Miqdori:**

Kattalar: 750 mg. dan haftada besh kun, kuniga bir mahal.

Eslatma: Bolalar yoki homilador ayollarga bermang.

#### **Ofloksatsin** (Tarivid).

0,2; 0,3; 0,4 g. (200; 300; 400 mg.) li tabletkalarda chiqariladi.

#### **Miqdori:**

600 mg. dan haftada 5 kun har kuni bering.

**Eslatma:** Bolalar va homilador

Umuman olganda, ukol va tabletkalardan ko'ra nafas yo'llari orqali beriladigan dori (Aerozol) dan foydalanish kerak. Agar bolani o'rgatishga ko'p vaqt sarflasangiz, hatto kichik yoshdag'i (3-6 yashar) bolalar ham nafas orqali olinadigan dorilardan foydalanishni o'rganishi mumkin.

Nafas orqali olinadigan dorilardan foydalanish uchun siz:

1. Idish (baloncha)ni silkiting.
2. Nafasingizni chiqaring.
3. Idishni og'zingizga yaqin qo'ying, ammolar og'zingiz ichiga emas.
4. Idishdan dori sepiladigan darajada uni bosing va o'sha zahoti chuqr nafas olishga harakat qiling.
5. Nafasingizni 30-45 sekund ushlab turishga harakat qiling.
6. Nafasingizni chiqaring va muolajani 1-4 marta qaytaring.

Astmani davolashda ikki xil dori ishlatiladi. Birinchisi - nafas olishni o'sha zahoti yengillashtirsa, ikkinchisi esa bir necha soatdan so'ng ta'sir qiladi, ammolar ta'siri uzoqroq davom etadi va doimiy ravishda ishlatilsa, o'pka ishini yaxshilaydi.

## A. O'tkir astma - Havo yo'larini kengaytiruvchi dorilar

Ushbu dorilar nafas olishni 3-6 soatga yengillashtiradi, lekin shilliq qavatlarning nafas olishni qiyinlashtiruvchi darajadagi yallig'lanishini davolamaydi.

Ushbu dorilar faqat astma xurujlarida ishlatilishi zarur. Boshqa paytlarda esa nafas qisishining oldini olish uchun aerozolli steroid (gormon)lardan har kuni foydalan-ganingiz ma'qul (694-betga qarang). Ushbu dorilarning ishlatilishi xususida ko'proq ma'lumot olish uchun 308 - betga qarang.

**Salbutamol** (Salbutol, Albutamol, Albuterol, Salamol, Ventolin).

Aerozol (Kattalar va Bolalarda): 1-2 marta zaruratga qarab har 4-6 soatda bir nafasga oling.

Tabletkalari 2; 4; 8 mg. dan chiqariladi

6-11 yoshdagi bolalar: 2 mg. dan kuniga 3 mahal.

Kattalar va 12 yoshdan katta bolalar: 2-4 mg. dan kuniga 3 mahal.

Sirop (5 ml. da 2 mg.) 6 yoshga kir-magan bolalar har bir kilo uchun 0,1 mg. dan zaruratga qarab 3 mahal ichishi kerak.

## Orsiprenalin sulfat yoki Metaproterenol Aerozol (Alupent)

Aerozol (Kattalar va Bolalarda): har 4-6 soatda 1-2 marotaba takrorlab sepish kerak.

Tabletkalar 10; 20 mg. li; Sirop 10 mg. har 5 ml. da chiqariladi.

6-9 yoshdagi bolalar: 10 mg.

kuniga 3-4 mahal. Kattalar va 10 yoshdan katta bolalar: 20 mg. dan kuniga 3-4 mahal.

## Aminofillin (Eufillin) va Teofillin

Ushbu dorilarni yuqoridagi aerozollarni ishlatganingizdan so'ng ham nafas olishga qiyalsangiz ishlating. Lekin dori yurak urishini tezlashtirishi, betoqat qilishi va ux-lashga qiyinalish kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Agar yuragingiz kasal bo'lsa, uni ishlatmang. Agar ko'ngil aynishi yoki qayt qilish boshlansa, miqdorni kamaytiring.

Aminofillin (Eufillin) yoki Teofillin bilan boshqa qo'shimcha

dori ichishga ehtiyyot bo'ling. Siprofloksatsin, Eritromitsin, Simitidin, Homiladorlikdan saqlovchi ichiladigan dorilar va Gormonli tabletkalar kabi dorilarni boshqa dorilar bilan ichganda, quyida aytilgan miqdorni kamaytirish kerak.

Ushbu dorilarning keragidan ortiq ishlatalinishi tutqanoqqa olib kelishi mumkin. Aminofillinning miqdori ozaytirilganda esa yordam bermasligi mumkin.

Shifokoringiz bilan maslahatlashing.

**Aminofillin** (Eufillin) va **Teofillin** 150 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

#### ***Aminofillin va Teofillin miqdori:***

Kattalar: 150- 250 mg. dan har 8 soatda

6- 12 yoshdagi bolalar: 150 mg. dan har 8 soatda zaruratga qarab. 2-5 yoshdagi bolalar: har 8 soatda 90- 100 mg. dan keragicha bering.

#### ***Epinefin 0.1% (Adrenalin)***

Boshqa davolash muolajalari foyda qilmaganda ishlataladi, xolos. Agar iloji bo'lsa, yuragi kasal keksa odamlarga ishlatmang.

#### ***Miqdori:***

Kattalar: 0,1 % li Adrenalin bo'lsa: 0,2-0,3 ml. dan (0,2-0,3 mg.dan)

teri ostiga yuboring. Agar kerak bo'lsa 15 minutdan so'ng yana qaytarish mumkin.

Bolalar: 0,1 % li Adrenalin bo'lsa, har bir kilosiga 0,01 ml. dan to'g'ri keladi.

11 yoshdan katta bolalar: 0,3 ml.  
7-11 yoshdagagi bolalar: 0,2 ml.  
2-6 yoshdagagi bolalar: 0,1 ml.

#### ***Ipratropium bromid Aerozol (Atrovent, Troventol).***

Aerozol: zaruratga qarab kuniga 4 mahalgacha har safar 2 martadan sepiladi.

#### ***B. Astmaning oldini olish uchun ishlataladigan aerozol gormonlar (Gormonlar).***

Bular o'rtacha yoki og'ir astma bilan kasal odamlar uchun kerakli dorillardir. Ular nafas yo'llaridagi shishlarni pasaytiradi, amma ta'sir qilguniga qadar bir necha soat o'tadi. Yuqorida aytilgan dorilardek ishlatalishi bilanoq nafas ravon bo'lmaydi.

Lekin agar ushbu dorini kunda ishlatsangiz, sizda umuman nafas qisishlari bo'lmasi ligi mumkin! Agar siz ko'p xirillab nafas olsangiz, ushbu doridan har kuni foydalaning.

Ba'zi odamlar bronxit bilan kasal (yoki boshqa infeksiyalarda) bo'lib qolganlarida, faqat 2-3 hafta

davomida ishlatalishlari mumkin. Boshqa kasallar esa yaxshi nafas olishlari uchun undan har kuni foy-dalanishlari kerak bo'ladi.

***Salbiy ta'sirlarini kamaytirish va xirillashlarning oldini olish uchun iloji boricha ozroq miqdorda ishlating. Dorini ishlatgandan so'ng, og'zingizni suv yoki choy bilan chayqang va tupurib tashlang.***

**Beklometazon Aerozol** (Bekotid, Beklat, Beklomet, Aldetsin, Bekonaz).

Aerozollar:

Kattalar: kuniga 2-4 mahal 2-4 martadan sepish kerak.

6 yoshdan katta bolalar: kuniga 2-4 mahal 1-2 martadan sepish kerak.

**Flunizolid Aerozol** (Ingakort).

Kattalar: kuniga 2 mahal 2-4 maro-taba sepish kerak.

6 yoshdan katta bolalar: kuniga 2 mahal 1-2 marta sepiladi.

## 19. YURAK HASTALIKLARI-GA QARSHI VA YUQORI QON BOSIMI OSHISHIGA QARSHI DORILAR

Quyidagi dorilarni faqat tib-biyot xodimi bilan maslahatlashgan xolda qabul qiling.

Qon bosimini pasaytiradigan dorilar  
Qon bosimi 140/90 dan past bo'lishi

kerak.

Quyidagi dorilar **qon bosimini pasaytiradi, ammo ular har kuni ichilishi kerak**. Sizning boshingiz og'rimasa ham qon bosimiz o'ta baland bo'lib, yurak va organizmning boshqa qismlarini shikastlashi mumkin.

Davoni odatda kichik dozalardagi beta blokatorlar yoki si-ydik haydovchilar (diuretiklar) bilan boshlagan ma'qul:

**Siydik Haydovchilar** (Diuretiklar).

**Gidroxlortiazid** (Gipotiazid, Digidroxlortiazid, Dixlotiazid).

25; 50; yoki 100 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

Har kuni ertalab 12.5 mg. dan boshlang. Agar bir haftadan so'ng ham qon bosimi 140/90 dan yuqori bo'lsa, miqdorni 25 mg. gacha ko'taring. Eng yuqori miqdor bir kunda 50 mg. dir.

**Ehtiyyot chorralari:**

Gidroxlortiazid (Gipotiazid, Digidroxlortiazid, Ezidriks)ning yuqori miqdori qon tarkibidagi kaliy tuzini ozaytirib yuboradi. Kuniga 50 mg. dan dori ichayotgan bo'lsangiz, meva (o'rik, olma, nok, shaftoli), kartoshka, ko'katlarni ko'p iste'mol

qilib, kuniga ushbu dori bilan kaliy moddasi bor tabletka (quyiga qarang) yoki Spironolakton (Veroshpiron, Spiriks)ni qo'shib iching.

Dorini bir necha oy qabul qilgandan so'ng qoningizdagi kaliy miqdori past emasligini tekshirtirish yaxshi bo'lar edi.

### **Kaliy va Magniy moddasi bor tabletkalar:**

**Kaliy + Magniy** tabletkalari  
(Panangin, Asparkam), Kaliy xlorid yoki Kaliy atsetat tabletkalari.

Ushbu dorilar qon bosimini pasaytirmaydi, ammo Gidroxlortiazid (Gipotiazid, Digidroxlortiazid, Ezidriks) yoki Furosemid (Laziks) kabi siyidik haydovchilar bilan kuchli dorilar ichilishi kerak.

Odatda uni Spironolakton (Veroshpiron, Spiriks), Gidroxlortiazid + Triamteren (Triampur kompozitum), yoki Angiotenzin Fermentni O'zgargiruvchi Antagonisti kabi dorilar bilan ichilmaslik kerak, chunki bular ham qon tarkibidagi kaliy miqdorini oshiradilar.

**Spironolakton** (Veroshpiron, Spiriks).  
25; 50; 100 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** 25-100 mg. dan kunda bir

marta.

***Ushbu dori jigar sirrozi bilan kasal va qon bosimi yuqori yoki qorni shishgan odamlar uchun yaxshidir.***

**Gidroxlortiazid + Triamteren** birikmasi (Triampur kompozitum) 25 mg. Triamteren va 12,5 mg. Gidroxlortiazid birikmasidan iborat. **Miqdori:** kuniga 1-3 tabletkadan ertalab qabul qiling.

### **Beta Blokatorlar**

Ushbu dorilar yuqori qon bosimini davolash uchun yaxshi va quyida aytilgan muammolarni davolash uchun ham qulay:  
yurak urishi tezlashganda,  
yurak kisishida (stenokardia),  
yurak infarktida, migrenli bosh og'riqning oldini olishda.

Beta blokatorlar nafaqat qon bosiminingizni pasaytiradi, balki boshqa muammolarda ham yordam beradi.

Ushbu dorilar qabulini birdan to'xtatmang, chunki bu bosimning juda ko'tarilib ketishiga olib kelishi mumkin. Siz dorining miqdorini asta- sekin pasaytirishingiz kerak.

### **Eslatma:**

**Quyidagi hollarda Beta Blokatorlarni ishlatmang:**

astma, yurak astmasi(yetishmovchiligi), yurak urishi 55 dan past bo'lsa, og'ir qandli diabet kasalligida.

*Davolashni kichik miqdor bilan boshlang va kerakliliga qarab 3-7 kunda oshirib boring.*

**Atenalol** (Novaten, Atenozan, Atenova, Tenopol, Unilok).

**Novaten** O'zbekistonda ishlab chiqariladi va topish osonroq. 50; 100 mg. tabletkalarda chiqarildi.

**Miqdori:** 50-100 mg. dan bir mahal.

**Propranolol** (Obzidan, Anaprilin, Dideral).

10; 20; 40; 80 mg. tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** 20-120 mg. dan kuniga 2 mahal.

**Metoprolol** (Korvitol, Belok, Lopressor, Vazokardin).

50; 100 mg.li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** 25-150 mg. dan kuniga2 mahal.

**Nadolol** (Korgard).

20; 40; 80; 120 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** 20-240 mg. dan kuniga bir mahal.

**Timolol** (Okuril, Okupres, Optimol). 5; 10; 20 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** 10-60 mg. dan kuniga bir mahal.

**Kalsiy Antigonistlari:**

**Verapamil** (Izoptin, Finoptin, Le-koptin, Ormil, Falikard). 40; 80; 120; 200; 240 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

240 mg. li tabletkalardan kuniga bir yoki ikki mahal. 80 mg. li miqdorni esa, kuniga 3 mahal qabul qilish kerak.

**Angiotezin Fermentni O'zgartiruvchi Antagonisti**

Ushbu dorilar siydk haydovchi dorilar bilan birgalikda ishlatilganida, qon bosimi yanaham pasayadi. Ular quyidagilarni davolash uchun foydali:

Yuqori qon bosim (ayniqsa qand kasalligi vaqtida.), yurak astmasi (yetishmovchiligi).

**Ushbu dorining sal-**

**biy ta'sirlaridan biri - odamni yo'taltirishi mumkin, ammo bu xavfli emas. Agar yo'tal kuchli va to'xtamaydigan bo'lsa yoki yuzingiz shishsa (bu doriga xos emas) ushbu dori qabulini to'xtating.**

**Enalapril** (Enam, Ednit, Renitek, Berlipril, Enapril) 2.5; 5; 10; 20 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

Kuniga bir marta 2,5-5 mg. ichishdan boshlang va zaruratga qarab ko'paytiring. Eng yuqori miqdor kuniga 40 mg. (Ko'pincha kundalik miqdor 20 mg. dan oshganda dori ikki mahal beriladi.).

**Kaptopril** (Kapoten, Alkadil, Deptopril, Tenziomin, Alkadil). 25; 50; 100 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

12.5 - 25 mg. dan kuniga 2 mahal ichishdan boshlang va zaruratga qarab kuniga 2 yoki 3 mahal 50 mg. gacha ko'paytiring. Eng yuqori kundalik miqdor 450 mg.

**Lizinopril** (Sinopril).

2.5; 5; 10; 20; 40 mg. li tabletkalar da chiqariladi.

**Miqdori:**

Kuniga 10 mg. dan ichishni boshlang va zaruratga qarab eng yuqori miqdor - kuniga 40 mg. gacha ko'paytiring.

**Lozartan (Kozaar)\*.**

**Eslatma:** Ushbu dori yuqorida aytilan dorilar singari yo'talga sababchi bo'lmaydi.

20; 50 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** Kuniga 25 mg. dan ichishni boshlang va zaruratga qarab eng yuqori miqdor - kuniga 100 mg. gacha ko'taring.

**Gipertoniya (yuqori qon bosimi) ga qarshi ishlatalishi mumkin bo'lgan boshqa dorilar quyidagilari:**

**Alfa Blokatorlar:**

**Bular nafaqat qon bosimni pas-aytiradi, balki siyishga qiynaladigan keksa odamlarning siyishini osonlashtirishga ham yordam beradi.**

**Eslatma:**

**Ushbu dorilar tez o'tirib turganda yoki miqdor tez ko'paytirilganda bosh aylanishiga olib kelishi mumkin.**

**Prazozin** (Minipress, Pratsiol, Adverzuten).

1; 2; 5 mg. li tabletkalarda chiqarildi.

**Miqdori:** Ushbu dorini birinchi bor qabul qilganingizda yotishdan avval 1 mg. iching, so'ng 1 mg. dan kuniga 2 mahal qabul qilishingiz mumkin. Asta sekin miqdorni ko'paytirib, kuniga ikki mahal 10 mg. gacha yetkazing.

**Doksazozin** (Kardura).

1; 2; 4; 8 mg. li tabletkalarda chiqarildi.

Ushbu dorini ham birinchi bor qabul qilganingizda, yotishdan avval 1 mg. qabul qiling so'ng 1 mg. dan kuniga 1 mahal qabul qilishingiz mumkin. Asta-sekin miqdorni kuniga bir mahal 8 mg. gacha ko'paytiring.

**Miqdori:** Kuniga 1 mg. dan boshlang va kuniga 8 mg. gacha ko'paytiring.

## Simpatolitiklar

Ushbu dorilar yuqoridagilariga nisbatan salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'proq ular uyquchanlik va ba'zan ruhiy tushkunlik yoki parkinsonizmga olib kelishi mumkin.

Oshqozon yarasi bor odam-

lar bu dorilarni ichmasliklari kerak, chunki ular oshqozon kislotasi ortishiga olib keladi.

**Rezerpin + Digidralazin** (Adelfan). 0,1 mg. Rezerpin + 10 mg. Digidralazin birikma tabletkalari.

**Miqdori:**

1-2 tabletkadan kuniga 3 mahal.

**Rezerpin + Digidralazin + Dixlotiazid** (Adelfan-Ezidreks).

Rezerpin 0,1 mg. + Digidralazin 10 mg. + Gidroxlortiazid 10 mg.

**Miqdori:** 1- 2 tabletkadan kuniga 2 mahal.

**Metildofa** (Dopegit, Dopanol, Metildopa).

250 mg. li tabletkalarda chiqarildi.

**Miqdori:** 1 tabletkadan kuniga 2 mahal. Zaruratga qarab kuniga 3 mahal 500 mg. gacha ko'paytiring.

**Rezerpin** (Raupazil).

0,1 mg. , 0, 25 mg.li tabletkalarda chiqarildi.

**Miqdori:** Kuniga 0,1 mg. dan icha boshlang va kerakliligiga qarab kuniga 0,5 mg. gacha ko'paytiring.

**Raunatin**

0,002 g. tabletkalarda chiqarildi.

**Miqdori:** Kuniga 1 tadan 2 mahal

ichishni boshlang va zaruratga qarab kuniga 2-3 tadan 2 mahalgacha oshiring.

***minishingiz mumkin.***

**Markaziy Nerv Sistemasida Alfa - 2 Adrenoretseptorlarini rag'bat-lantiruvchi:**

**Klonidin** (Klofelin, Katapresan, Gemiton)  
0,075; 0,1; 0,15; 0,2; 0,3 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

***Miqdori:*** 0,1 mg. dan 0,3 mg.  
gacha kuniga ikki mahal (**USHBU DORI QABUL QILISHNI BIRDANIGA TO'XTATMANG**).

Agar siz dorini anchadan beri qabul qilayotgan bo'lsangiz va uni qabul qilishni to'xtatmoqchi bo'lsangiz, siz uning qabulini asta sekin kuniga ikki mahal 0,1 mg. gacha kamaytiring, so'ng 5 kunda bir va nihoyat dori qabulini to'xtating.

Agar siz dori qabulini birdan to'xtatsangiz qon bosimi ko'tarilib ketishi mumkin, bu esa xavflidir. Dori qabul qilishni hech qachon birdaniga to'xtatmang.

**OGOH BO'LING:** *Ushbu dori sizni uyquchan qilib, og'zingizni qurishi mumkin. Bu muammo dori ishlatalishni eng oz miqdor bilan boshlaganda kamayadi. Dori qabulidan so'ng uyqusiramayotganligingizga ishonch hosil qilgan hollardagina mashina*  
**700**

**Yurak qisishini (Stenokardiya) davolash va Yurak Infarktining Oldini Olish (Yurak Tomirlari Yetishmovchiligi).**

**Aspirin yoki Atsetilsalitsilat kislotata** (Anopirin, Aspro, Aspivo, Atsefein, Atsilpirin, Kolfarit).

Ushbu dori yurak xuruji(infarkt) va miyaga qon quylishi(in-sult) xavfi bo'lgan odamlarda tromb paydo bo'lishidan saqlash uchun ishlataladi. Yurak xuruji yoki insulti bo'lgan odamlar ushbu dorini har kuni ichishlari kerak. Agar oshqozon yoki 12 barmoq ichakda yara bo'lsa, dorini ichmang.  
0,25-0,5 g. li tabletkalar (dorining boshqa miqdorlari ham uchraydi: masalan, 0,3 mg. li tabletkalarda chiqariladi.)

***Miqdori:*** 150-250 mg. dan kuniga bir mahal (0,25 g. tabletkaning yarimi).

**Beta Blokatorlar** (yuqoriga qarang).

Yuqorida aytilgan qon bosimi (gipertoniya) kasalligida ishlataligan dorilarga qarang. Ushbu dorilar yurak qisishini kamaytiradi, yurak infarkti xavfini pasaytirib, qon bosimi nazorat qiladi (463-464 betlar-

ga ham qarang).

### Nitroglitserin

0,0005 g. tabletkada chiqariladi.

Bu dori yurak tomirlarini vaqtinchalik kengaytiradi. Bu ayniqsa, yuragida qon yetishmovchiligidan yurak sohasida to'satdan og'riq paydo bo'lgan odamlar uchun foydalidir.

### Miqdori:

Ko'krak qafasidagi og'riqni qoldirish uchun 1ta Nitroglitserin tabletkasini til ostiga qo'ying va dori so'rilib shunchi kuting. Agar kerak bo'lsa, 5 minut dan keyin taqrorlash mumkin.

### Sustak, Nitrong, Sustonit, Nitrogranulong.

Ushbu dori ham yurak tomirlarini vaqtinchalik kengaytiradi. Ko'krak qafasi og'rigining oldini olish uchun foydalidir. 2,6 va 6,4 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

### Miqdori:

Har 8-12 soatda iching. Bundan ko'p ishlatsa, o'z kuchini yo'qotadi.

### Nitrosorbit

Ushbu dori ham yurak qon

tomirlarini vaqtinchalik kengaytiradi. 5; 10; 20; 40 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

### Miqdori:

Og'riqning oldini olish uchun kuni ga 3 mahal 10-20 mg. dan iching. (Og'riqni pasaytirish uchun 10 mg. li tabletkani tilingiz ostiga qo'yish mumkin).

Quyida aytilgan dorilar doimiy ravishda ichilganda yurak kasalliklarining xavfini pasaytirishi mumkin. Ular qon tarkibida yurak tomirlarini shikastlashi mumkin bo'lgan, *gomotsisteinning kamayishiga olib keladi*. Bunda Foli (Folat) kislotasi eng yaxshi dori. B6 va B12 vitaminlari (Sianokobalamin, Eritsitol-Depo) kabilar ham foydalidir.

### Folat (Foli) kislotasi (Folvit).

Ushbu vitamin homilador ayollar uchun ham, tug'ruq shikastlarining oldini olish uchun ham foydalidir. 1 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

### Miqdori:

1 mg. dan har kuni bir mahal

### B6 Vitaminini (piridoksin).

10; 25; 50 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

50 mg. bir ml. da ukol qilish uchun.

**Miqdori:** 10-50 mg. dan kuniga bir mahal.

Alohiда holdagi bu vitamin tabletkalarini topish qiyin bo'lishi mumkin, ammo u polivitamin tabletkalari tarkibida bo'ladi.

**Vitamin B12** (Sianokobalamin, Eritsitol-Depo)

0,5 mg. (500 mg.) bir ml. li ampu'lalarda chiqariladi.

Ba'zi polivitaminlar tarkibida ham bor.

**Miqdori:** 0,5 mg. dan har 2 oyda bir marta ukol qilinadi yoki 0,025 mg. li tabletkadan har kuni bir mahal ichiladi.

## 20. KAM QONLIK

**Temir Sulfat tabletkali:** Ferro-gradument, Tardiferon, Gemoferprolangatum, Ferropileks, Feramid, Ferronal, Gino-Tirdiferon, Xeferol.

Ko'pincha: 200; 300 yoki 50 mg. li tabletkalar shaklida (shuningdek suyuqlik shaklida, aralashma va bolalar uchun sirop-sharbatlar shaklidagi ichimliklar sifatida) ishlab chiqariladi.

Temir sulfat, ayniqsa, kamyon yoki ovqatga yolchimagan homilador ayollar uchun muhimdir.

Temir sulfat Vitamin S (L)

(meva va sabzavotlar yoki S (L) vitamin tabletkasi) bilan ichilganda yaxshiroq ta'sir qiladi.

**EHTIYOT BO'LING:** *Miqdor to'g'riliqiga e'tibor bering. Temir sulfatning ortiqchasi zaharlidir. Tabletkalarni bolalar ololmay-digan joyda saqlang. Temir sulfatni juda ozib ketgan odamlarga bermang.*

**Kamqonlik** uchun temir sulfat *miqdori:*

Bir martalik miqdori:

kattalar: 200-325 mg.

9-12 yoshdagи bolalar: 50-75 mg.

6-9 yoshdagи bolalar: 50-60 mg.

3-6 yoshdagи bolalar: 40 mg.

1-3 yoshdagи bolalar: 30 mg.

6-12 oylik chaqaloqlar: 20 mg.

6 oylik chaqaloqlar: 10 mg.

- Ovqatdan oldin ichish kerak.
- Agar qamqonlikning og'ir turi bo'lsa (gemoglobin 7 dan past), birinchi oyda kuniga 2 mahal iching, bundan keyin faqatgina 1 mahal ichishingiz mumkin
- Ukoldan tabletkalar yaxshiroq va xavfsizroq.
- Tabletka ichsangiz, birinchi ko'k choy yoki qaynatilgan suvni og'zingizga olib, so'ngra tabletkani darhol suv bilan birga yuting.
- Qora choy ichmang, u temir moddasi so'rilihiga to'sqinlik qiladi.

- Chaqaloqlar uchun tablet-kalarni maydalash mumkin. Lekin maydalangan tabletkalar tishi bor bolalarda tishlarini qoraytirishi mumkin. Tabletkani yutolmaydigan-larga, maydalangan tabletkalarni ovqat bilan aralashtirib, qoshiqda bering va uni tishlariga tegizmas-dan darhol yutsin.

- Yuqoridagi miqdorni: kunda 1 mahal 4-6 oy ichib yuring. Agar 4-6 oy to'liq ichmasangiz, chala davolangan bo'lasiz.

- Temir moddasi axlatni qoraytirishi mumkin.

Bu zararli emas. Bu faqatgina temir moddasining qoraligidandir.

- Yaxshi ovqatlanish yo'li bilan kamqonlikning oldini olishingiz mumkin.

- Agar oshqozonda yara bo'lsa, tabletka ichishdan oldin yara davolangan bo'lishi kerak.

- 1 oy davolanganingizdan so'ng, takroran qonni analiz (tahlil) qildiring. Agar har kuni temir mod-dasi ichilgan bo'lsa, foyda ko'rishin-giz kerak.

Bo'limasa, temir yetish-movchiligining boshqa sababi bo'lishi mumkin (Folat kislota yoki Vitamin B12 kam bo'lishi mumkin). Shifokordan maslahat oling.

### **Folat (Foli) kislota (Kislota Folievaya)**

1 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Qonda folat kislota kam bo'lsa, qon hujayralari kattalashadi va soni kamayib ketadi. Shuning natijasida, kamqonlik kelib chiqadi.

Agar kasalning talog'i kat-talashgan yoki ko'rinishi sarg'ish bo'lsa va ayniqsa, kamqonlik temir sulfat bilan davolanmasa, unga Folat kislota bering. Kamqon yoki ovqatga yolchimagan homilador ayollarga Folat kislotasi temir kabi zarurdir.

Folat kislota to'q yashil bargli o'simliklar, go'sht, jigar yoki folat kislota tabletkalaridan olinishi mumkin. Odatda bolalarni davo-lash uchun 2 hafta yetarli bo'ladi, lekin anemiyaning talassemiya deb atalmish anemiyaning turi mavjud bo'lgan ba'zi joylarda, uni yillab qabul qilish kerak bo'lishi mumkin.

Kamqon va ovqatga yol-chimagan ayol homiladorlik davrin-ing har kunida folat kislota va temir tabletkalarini qabul qilishi kerak.

***Miqdori:***

Kattalar va bolalar: kuniga 1 mg.  
dan

**Vitamin B12** (Dianokobalamin,  
Eritzitol-Depo).

0,025 mg. li tabletkalar\*, 0,5 mg.  
(500 mkg.) dan ampulalarda  
chiqariladi. (Ba'zi polivitaminlarning  
tarkibida ushbu vitamin bor.)

\*Tabletkalarni topish qiyin bo'lishi  
mumkin.

B12 Vitamini yetishmovchiligi  
sababli kelib chiqqan kamqonlik  
ko'p uchramaydi. Bu odatda katta  
yoshdagi odamlar yoki oshqozon  
yoki ichaklari olib tashlangan odam-  
larda uchraydi.

Shifokoringiz qoningizni  
analiz qilishi, qoningizdagi vitamin  
miqdori va qon hujayralarining kat-  
taligini tekshirishi kerak. Qonning  
qizil hujayralari Vitamin B12 yetish-  
movchiligidan kattalashib ketadi.

***Miqdori:*** Har 2-3 oyda 0.5 mg. dan  
ukol qilinadi yoki 0,025 mg. li tablet-  
kadan kuniga bir mahal ichiladi.

## **21 .OVQATGA YOLCHIMASLIKDA ICHILADIGAN QO'SHIMCHA DORILAR**

Chaqaloq uchun sutli aralashma:  
**Kichkintoy va Nestle.**

**Esingizda tuting: bolalar  
uchun eng yaxshi ovqat - ona  
sutidir.**

Emizmaydigan ayollar yosh bolalari  
(chaqaloq)ga yuqoridagilarni ishlashi  
mumkin. Ular to'yimli, lekin  
oddiy ovqatdan qimmat.

**Ruh(sink) sulfati.**

Ruh yaxshi ovqatlanmay  
qolgan chaqaloqlar va yosh bolalar-  
ga ancha foydali. U vazn normal  
bo'lganiga qadar har kuni ichilishi  
kerak.

Ruh sulfat kukun shaklida  
bo'lishi mumkin. Siz uni kattalar  
uchun kapsulaga solish haqida  
dorixona xodimi bilan gaplashishin-  
giz mumkin. Bolalarga siz kukunni  
ovqatga aralashtirib berishingiz  
mumkin.

***Miqdori:***

Kattalar: 100 mg. dan kuniga uch  
mahal.

Bolalar: har bir kilo uchun kuniga  
bir mahal 2,0-3,0 mg. (eng yuqori  
kunlik miqdori 100 mg.), *jumladan:*

1 oylik chaqaloqlar: 6-8 mg.

2-3 oylik chaqaloqlar: 8-10 mg.

4-6 oylik chaqaloqlar: 12-14 mg.

6-9 oylik chaqaloqlar: 15-20 mg.

9-12 oylik chaqaloqlar: 20-25 mg.

1- 4 yoshdagi bolalar: 25-30 mg.  
 5- 8 yoshdagi bolalar: 35-45 mg.  
 9- 12 yoshdagi bolalar: 50-70 mg.

### Vitamin A (Retinol)

5,000 va 25,000 M.E. kapsulalarda chiqariladi.

**EHTIYOT BO'LING:** Vitamin A ning ortiqchasi tutqanoqlarga olib kelishi mumkin. Bolalarga ko'p bermang va ulardan uzoqroqda saqlang.

**Oldini olish uchun:** Shabko'rlik va kseroftalmiya ko'p uchraydigan joylardagi bolalar ko'proq sariq mevalar va sabzavotlar, to'q yashil bargli o'simliklardan va tuxum, jigar kabi hayvonlar mahsulotlaridan ham iste'mol qilishi kerak. Baliq jigari va yog'i Vitamin A ga boy. A vitamining kapsulalari ham berilishi mumkin. Oldini olish uchun 1tadan kapsulani 4-6 oyda bir bering, bundan ortiq emas.

**Emizadigan onalar** tuqqanidan so'ng, shuningdek tug'uruqdan keyingi 1 oy ichida bir marta vitamin A (200,000 M.E.) ichib, chaqaloq ko'z muammolarining oldini olishlari mumkin.

**Qizamiq bo'lib qolgan bolalarda** kseroftalmiya xavfi katta, shuning uchun kasallik boshlanganda A vitaminini berilishi kerak.

Vitamin A yetarli bo'lmagan joylar-

da bolalarga berilgan qo'shimcha ovqat yoki A vitamini kapsulalari ularning qizamiq va boshqa jiddiy kasalliklardan nobud bo'lmashklariiga yordam beradi.

Davolash uchun vitamin: 200,000 M.E. miqdorida ichiladi yoki 100,000 M.E. miqdorida ukol qilinadi. Keyingi kuni ichish yoki ukol qilish uchun yana 200,000 M.E. dan beriladi va 1-2 haftadan so'ng takrorlanadi.

1 yoshga to'lmagan bolalarga miqdorning yarmini bering.

### Polivitaminlar (Multivitaminlar).

Bular turli ko'rinishda bo'la di, lekin tabletkalari eng arzon va foydalidir. Vitaminlarning ukollari bekorchi pul sarflashga olib keladi, hamda keraksiz og'riq va ba'zan absessslarga olib keladi. Vitaminlarning sharbatni va suyuqliklari tarkibida eng asosiy vitaminlar bo'lmaydi va qilgan foydasiga nisbatan qimmat turadi.

Ozuqali ovqat vitaminlarning eng zo'r manbaidir. Agar qo'shimcha vitaminlar kerak bo'ladi gani bo'lsa, vitamin tabletkalarini ishlating.

Odam tegishlicha ovqatlanmaydigan bo'lsa, qo'shimcha vitaminlar ichish foydalidir. Tabletkalar

tarkibida kasal uchun kerakli vitaminlar borligiga e'tibor bering (143-bet).

**Vitaminli tabletkalarni ishlatayotgan bo'lsangiz, kunda 1tadan tabletka yetarli bo'ladi.**

### **Vitamin B6 Piridoksin.**

10; 25; 50 mg. li tabletkalar va 50 mg. dan ukol uchun ampulalar shaklida chiqariladi.

Shuningdek, polivitaminlar tarkibida ham bor.

#### **Miqdori:**

Kattalar: kuniga 100-200 mg.

Bolalar: kuniga 10-50 mg.

**Vitamin B12** (Sianokobalamin, Er-itsitol-Depo). 468-bet ga qarang.

#### **Vitamin K3** (Vikasol).

0,015 g. li tabletka va 10 mg. bir ml. li ampulalar shaklida chiqariladi.

Agar yangi tug'ilgan chaqalo-qning biror joyidan (og'iz, kindik, peshov) o'z o'zidan qon oqa boshlasa, bu K3 vitamin kamligidandir. 1 mg. (0,1 ml.)ni sonining tashqi tarafiga ukol qiling. Qon oqishi to'xtamasa ham bundan ortiq miqdorni ukol qilmang. Juda kichik bo'lib tug'ilgan bolalarda (2 kg. dan kichik) qon ketish xavfini kamaytirish maqsadida K3 vitamini ishlatalishi mumkin. Onaning tug'ruqdan keyingi qon ketishida Vitamin K3 ni ishlatish foydasizdir.

#### **D vitamin guruhi**

Quyoshda toblanish Vitamin D ichishga nisbatan foydali, arzon va xavfsiz davolash usulidir. Agar dori ichish kerak bo'lsa, ortiqcha dori ichmasligingiz kerak. (Raxit bo'lsa, 245- betga qarang):

#### **Ergokalsiferol (Vitamin D2)**

Yog' va spirtdagi 0,5 % li eritmalar

**Xolekalsiferol** (Vigantol) (Vitamin D3) 0.5% li eritmalar.

#### **Miqdori:**

1 tomchidan har kuni bir mahal. **Eh-tiyot bo'ling! Ortiqcha ichilmasin.**

3- 4 oy davomida ichib boring.

Har kuni sut iching.

### **22. KO'NGIL AYNISH VA QAYT QILISH**

#### **IMBIR O'SIMLIGI**

**Miqdori:** 1-2 choy qoshiqdan damlab, kuniga 3-4 mahal iching. Homiladorlik toksikoziga qarshi ta'siri bor o'simlikni ishlatish xafsizroq.

**Prometazin** (Pipolfen, Fenergan, Diprazin).

5; 25; 50 mg. li tabletkalar

2,5 % li eritmasi (25 mg. bir ml. da) ukol uchun ampulalarda chiqariladi.

**OGOH BO'LING:** Homilador ayol prometazinni faqat juda zarur

***paytdagina ishlatishi mumkin.***

**Miqdori:** (0,5 mg. har bir kilo uchun, agar kerak bo'lsa, har 4-6 soatda takrorlang)  
25 mg. li tabletkalari ishlatalganida: Kuniga 4 mahal iching.

Bir martalik miqdori:  
kattalar: 25 mg. (1 tabletka)  
7-12 yoshdagi bolalar: 10-15 mg.  
(1/2 ta tabletka)  
2-6 yoshdagi bolalar: 5-10 mg.  
1 yoshli bolalar: 4 mg. (1/6 tabletka)  
1 yoshgacha bolalar: 2 mg.  
**2,5% li eritmasi** ishlatalganida:  
Bir marta ukol qiling va agar kerak bo'lib qolsa, keyingisini 2-4 soatdan so'ng takrorlang:

Bir martalik miqdori:  
kattalar: 25-50 mg. (1-2 ml.)  
7-12 yoshdagi bolalar: 10-15 mg.  
(0,4-0,6 ml.)  
2-6 yoshdagi bolalar: 5-10 mg  
(0,2-0,4 ml.) 1 yoshli bolalar: 4mg.  
(0,1-0,2 ml.)  
1 yoshgacha bolalar: 2 mg.(0,1 ml.)

**25 mg. li shamchalari** ishlatalganda:  
Peshovning ichkariroq'iga kirkizing va kerak bo'lsa 4-6 soatda qaytar-ing.

Bir marta ishlataladigan miqdori: kattalar va 12 yoshdan katta bolalar:  
25 mg. (1 shamcha)  
7-12 yoshdagi bolalar: 12,5 mg.

(1/2 shamcha)  
2-6 yoshdagi bolalar: 6 mg. (1/4 shamcha)

**Metoklopramid** (Serukal, Reglan, Tomid).

Agar oshqozoningiz ko'p og'risa, uni ishlatmang. Vrachga uchrang.

**Ushbu dori bo'yin yoki yuz muskullarining vaqtincha tortilishiga olib kelishi mumkin.**  
**Bunda Difengidramin (Dimedrol, Venadril), yordam berishi mumkin,** 677- betga qarang.

10 mg. li tabletkalar, 10 mg. li (2 ml.) li ampulalar ko'rinishida chiqariladi. Ovqatdan oldin ichish kerak.

***Miqdori:***

Kattalar: 10-20 mg. dan kuniga 3 mahal. Bolalar: har bir kilo uchun 0,5 mg. kuniga 4 mahal zarurligiga qarab. Difengidramin (Dimedrol, Venadril) bilan berish yaxshiroqdir.  
9 - 2 yoshdagi bolalar: 10 mg.  
5- 9 yoshdagi bolalar: 5-7,5 mg.  
2 - 4 yoshdagi bolalar: 5 mg.  
1 yoshli bolalar: 2,5 mg.

***Dimengidrinat* (Dedalon).**

50 mg.li tabletkalarda chiqariladi.  
Zaruratga qarab kuniga 4 mahal iching. Bir martalik miqdori:

Kattalar: Agar kerak bo'lsa, 50 mg. (1 tabletkadan) kuniga 4 mahal iching.

Bolalar: har bir kilo uchun 1 mg., kuniga 4 mahal (kunga 1 mahal 25 mg. gacha)

6-12 yoshdagi bolalar: 25 mg.

2- 6 yoshdagi bolalar: 6-12,5 mg.

mg. li tabletkalarda chiqariladi.

### ***Miqdori:***

Qorin dam bo'lsa, kattalar: 500-750 mg. dan kuniga 3-4 mahal ichishi kerak.

Antidot (zaharlanishga qarshi): 20 g. dorini 250 ml. suvga solib iching.

## **23. OSHQOZON KISLOTASINING KO'PLIGI, ZARDA BO'LISH, OS-HQOZON YARALARI VA QORIN-NING DAM BO'LISHIGA QARSHI DORILAR**

### **Qorinning dam bo'lishi**

**Simetikon** (Espumizan).

Ushbu dori qorinda ko'payib ketgan gazdan qutulish uchundir. Uni kichik bolalarda ham ishlatish mumkin.

### ***Miqdori:***

Kattalar: 40-125 mg. dan yaxshilab chaynab yutiladi va har 6 soatda bir ichiladi (iloji bo'lsa ovqatdan oldin va uqlashdan oldin qabul qiling).

Bolalar:

2- 12 yoshdagi bolalar: 40 mg. dan zaruriyatiga qarab kuniga 4 mahal ichiring.

2 yoshgacha bolalar: 20 mg. kuniga 4 mahal

**Aktivlangan ko'mir** (Ugol aktivirovanni, Kole-Kompretten). 250; 500

### **Oshqozon va O'n ikki barmoq yaralari va zarda bo'lish**

***E'tibor bering:*** Spirtli ichimliklarni ko'p ichmaydigan yoki aspirin kabi dorilarni ko'p qabul qiladigan odamlarda bakteriya infeksiyasidan yara paydo bo'lishi mumkin.

Agar yara bo'lsa (endoskopiya-da tasdiqlangan bo'lsa) 13-bob, 320-betga qarang.

Ushbu infeksiya va yarani davolash uchun qo'yidagi tabletkalarni iching:

Doksitsiklin 100 mg. dan + Metronidazol (Trihopol) 500 mg. dan + Omeprazol (Omez, Zerotsid) 20 mg. dan.

Ushbu dorilarning hammasini kuniga 2 mahal 7-10 kun davomida ichish muhimdir. Antibiotiklar bo'yicha ma'lumot olish uchun 629- betga qarang.

**Quyida berilgan dorilar osh-qozon kislotasini kamaytirib, og'riqni pasaytirishga va yaralar ni davolashga yordam beradi:**

**Alyuminiy gidroksid va Magniy gidroksid-Antatsidlar** (Almagel, Alyumag, Gastal, Protab).

Suspenziya: 0,1 g Alyuminiy + 0,1 g Magniy 5 ml. da.

Tabletkalar: 0,2-0,45 g. li Alyuminiy va Magniy.

Ushbu antatsidlar zarda bo'lish yoki yarani davolashda ishlatalishi mumkin. Ularni ovqatdan 1 soat keyin va uqlashdan avval ichgan ma'qul.

**Ogoh bo'ling:** Ushbu dorilarni tetratsiklin bilan birga ichmang.

#### **Miqdori:**

Suspenziya: 5-30 ml (1 choy - 2 osh qoshiq) ovqat mahallari orasida va uqlashdan avval iching.

Tabletkalar: 1-3 tabletkani yaxshi chaynab, ovqatdan 1 soat keyin yoki yotishdan avval ichiladi.

**Natriy gidrokarbonat:** Choy (ichimlik) sodasi.

**Antatsid sifatida:** oshqozoni og'rib zarda bo'ladigan odamlarda juda ehtiyyotkorlik bilan ishlatalishi kerak.

#### **Miqdori:**

1/2 choy qoshiq sodani suv bilan aralashtirib iching. Ko'p ishlatmang.

**Hazm a'zolarining surunkali kasalliklari yoki oshqozon yaralarini davolashda ishlatalishi kerak.** Boshida yordam bergandek bo'lsada, keyinchalik oshqozon kislotasining ko'payishiga olib keladi, bu esa holatni og'irlashtiradi. Bunda (lekin zarda bo'layotganda emas) Atsetominofen yoki aspirin bilan birga ichilishi kerak. Alko-Zelgser - Natriy gidrokarbonat va Aspirin aralashmasidir.

Tishlarni tozalash uchun, „soda” bilan tuz aralashmasi tish pastasi o'rniqa ishlatalishi mumkin (427 - bet).

**EHTIYOT BO'LING:** Ba'zi yurak kasalliklari, oyoq yoki yuzida shishlari bor odamlar natriy gidrokarbonat sodasi yoki tarkibida ko'p natriy bo'lgan boshqa narsalarni iste'mol qilmasliklari kerak.

**Quyidagi dorilar** oshqozon yarasiغا qarshi kuniga bir mahal yotishdan avval ichiladi. Zarda bo'lishga qarshi ular kuniga ikki mahal ichilishi kerak.

**Omeprazol** (Omez, Zerotsid, Gazek, Gastrokaps, Omerpol). 20 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Ushbu dori kislotani kamaytishish uchun ishlataladigan eng kuchli doridir. Agar boshqa dorilar yordam bermagan bo'lsa, bu dori sizga yor-

dam berishi mumkin.

**Miqdori:**

kuniga 1-2 mahal (ovqatdan avval yoki keyin)

**Famotidin** (Gastridin, Gastrozidin). 40 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** Yotishdan avval kuniga bir yoki ikki mahal.

**Simitidin** (Gistodil, Primamet, Tagamet, Neytronorm, Ulkamet).

200 mg. li tabletkalar.

**Miqdori:** Yotishdan avval (4 tabletka — 800 mg.) yoki 2 tabletkadan kuniga ikki mahal.

**Ranitidin** (Raniberl, Ranisan, Gen-Ranitidin, Gistik, Ranigast, Ranital, Rantag, Ulsereks, Zantak, Zoran).

150; 300 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:** Yotishdan avval 300 mg. yoki kuniga ikki mahal 150 mg. dan.

**Vismut** (De-Nol, Biskolsitrat).

Bakterial infeksiya sababli kelib chiqqan yarani davolashda ishlataladi. Dori qimmat bo'lib, uni topish ham qiyin.

0,12 g. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar: 1-2 tabletkadan kuniga 4 mahal.

6-12yoshdagи bolalar: 1 tabletkadan kuniga 4 mahal.

3-6 yoshdagи bolalar: 0,5 tabletkadan kuniga 4 mahal.

**Ichakning o'qtin-o'qtin og'rishi:**

**Yalpiz o'ti**

**Miqdori:** 1-2 choy qoshiqdan damlab kuniga 3 mahal iching.

**Validol, Mentol**

**Miqdori:** kuniga 2-3 mahal iching

**Belladonna** (Bekarbon, Belladonna ekstrakti).

10 mg. li tabletkalarda chiqariladi. Kattalar: 1 tabletkadan kuniga 3-4 mahal.

**EHTIYOT BO'LING: Dorini ko'p ichmang.**

**Ditsiklomin 20 mg., Paracetamol 500 mg (Kloomin).**

Kattalar: 1 tabletkadan kuniga 3-4 mahal

**Xlordiazepoksid + Klidinium bromid (Libraks)**

Ushbu dori hali O'zbekistonda yo'q, lekin kelajakda paydo bo'lishi mumkin. Xlordiazepoksid 5 mg. + Klidinium bromid 2,5 mg.

**Miqdori:** 1-2 kapsuladan kuniga 3-4 mahal ovqatdan va yotishdan

oldin ichiladi.

## 24. ICH KETAR (O'TKIR) VA SUV-SIZLANISH.

Suvsizlanish va Ich ketarga davo qilish va bularning oldini olish:

**Ich ketarni davolash:**

**Ich ketarni davolashning ko'p hollarida dorilar kerak emas.** Agar ich ketar og'ir bo'lsa, faqat suvsizlanish xavfi mavjud. Agar ich ketar ancha vaqt davom etsa, bunda odam ozib, holsizlanib qolishi mumkin. Shuning uchun davolashning eng muhim qismi yetarli darajada suv va ovqat berishdir. Ich ketarning sababidan qat'iy nazar quyidagilarga e'tibor bering. Ich ketar jadvalini ko'ring 298 - bet. Agar bemorning ichi suvdek ketayotgan bo'lsa yoki ich ketib, qayt ham qilsa suvsizlanish belgilari paydo bo'lishini kutib o'tirmang. Tezda chora ko'ring, 281-betga qarang.

**Organizmada yo'qotilgan suvni tiklovchi ichimlik (Regidron).**

283 - betga qarang va yaxshilab o'qing. Regidron sotib olish shart emas. Uning o'rniqa suyuq ovqatlar yoki toza suv bersangiz ham bo'ladi. Eng muhimi ichi ketayotgan odamga ko'p suyuqlik bering. **Shirin choy, Fanta, Koka Kola, Sprayt yoki shirasi ko'p boshqa suyuqliklarni bermang, chunki**

**ular bolaning ahvolini yanada og'irlashtiradi.**

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti Suvni Tiklovchi Ichimlik tarkibini quyidagicha tavsiya qiladi:

**1 litr toza suvgaga 3.5 g. natriy xlorid (NaCl), 2.9 g. natriysitrat (yoki 2.5 g. Trisodiumssitrat yoki Natriy bikarbonat), 1.5g. Kaliy xlorid (KCL), 20 g. Glyukoza.**

Aynan shunday tarkibli Suv Tiklovchi Ichimlikni ishlatish muhim. O'zbekiston dorixonalarida sotiladigan "Suv Tiklovchi" Ichimlik "Regidron"dir. Lekin Regidronning tarkibi, uning qayerda ishlab chiqarilganligiga qarab turlichadir. Tarkibida yuqorida ko'rsatilgan tuzlar aralashmasi bor Regidronni ishlatining. (masalan, Finlyandiyada ishlab chiqarilganini).

### EHTIYOT BO'LING:

Regidron yoki unga o'xshaydigan suv tiklovchi ichimliklarni to'g'ri tayyorlash uchun turli miqdorda suv kerak bo'ladi. Agar siz ushbu paketlardan ishlatayotgan bo'lsangiz, unga qancha suv kerakligini aniq bilib oling. Suvni keragidan kam ishlatish xavfli bo'lishi mumkin.

Ich ketishi to'xtaganidan keyin yuqoridagi ovqatlarni hamda ularga qo'shib boshqa ovqatlarni ham yana ikki hafta berib turing. Bu

ovqatlar organizmning qayta tiklanishiga yordam beradi.

Iloji bo'lsa, bola tuzli ovqatlarni ham iste'mol qilsin.

**OGOH BO'LING:** *Agar siz ichi o'tayotgan bolani shifoxonaga olib bormoqchi bo'lsangiz, unga uydan chiqib ketishdan avval ko'p suyuqlik va iloji bo'lsa, uyda tayyorlangan suv tiklovchi ichimlikdan bering. Agar iloji bo'lsa, o'sha ichimlikdan (agar bo'lmasa, oddiy suvdan) bolaga yo'lda va navbatni kutish davomida berish uchun o'zingiz bilan birga oling. Bolaga suyuqlikni ichganicha bering. Agar bola qayt qilayotgan bo'lsa, oz ozdan har daqiqada berib turing. Suyuqlikning oz miqdori bola ichida qoladi va bu qayt qilishni pasaytiradi.*

### Loperamid (Imodium)

2 mg. li tabletkalar yoki kapsulalar da chiqariladi.

Ich ketarda ko'pincha dori kerak bo'lmaydi (13 - bobga qarang). Ushbu dorilar ich ketishni sekinlashtirishi mumkin, ammo uni davolamaydi. Ularni faqat suvdek ketayotgandagina qabul qiling.

***Ushbu dorini isitma chiqayotganda yoki axlatda qon***

*bo'lgan paytlarda ichmang. Uni faqat zarur paytlardagina ishlating.*

### ***Miqdori:***

Kattalar: 2ta tabletka ichib, so'ng har bir ich ketishidan so'ng bir dona tabletkadan ichsin. Bir kunda ko'pi bilan 8 tabletka yoki kapsula ichish mumkin.

### Bolalar:

birinchi kundan tashqari quyidagi miqdorlarning yarmi berilishi kerak. 9-11 yosh: kuniga 3 mahal bittadan. 6-8 yosh: kuniga ikki mahal bit-tadan.

2-5 yosh: 1/2 tadan kuniga uch mahal.

### **25. QONLI ICH KETISH (ICHBURUG', DIZENTERIYA), LYAMBLOIZ VA AMYOBIAZ**

Agar odam axlatida qon va shilimshiq bo'lsa, u ichburuqqa chalingan. Iloji boricha, tibbiyat xodimlariga murojaat qiling.

**Quyidagilarga e'tibor bering. Ich ketishi jadvalini ko'ring 298- bet.**

13-bobga qarang, 296-betni ham o'qing.

Ich ketishida birinchi o'rinda, suvsizlanishni davolash kerak va yaxshi ovkatlanish zarur.

Quyida berilgan dorilar qon (va shilimshiq) aralash ich ketar vaqtida yoki O'zbekistonga boshqa mamal-akatdan endigina kelgan odamlar tomonidan ishlatilishi mumkin.

Ko'p suyuqlik bersangiz, maqsadga muvofiq bo'ladi. Regidron kabi tuzli eritmalar kichkina bolalar va chaqa-loqlarda ishlatilishi kerak.

***Oddiy ich ketishda antibiotik ichmang, u yordam bermaydi, aksincha, zarar qilishi ham mumkin.***

**ICHBURUG' - QON ARALASH  
ICH KETISHI. (Dizenteriya) ga qarshi dorilar:**

Agar ichburug' bo'lsa, Loperamid (Imodium) kabi ich ketishini sekinlashtiradigan boshqa dorilarni ishlatmang.

**EHTIYOG BO'LING:** Bemor homilador bo'lsa, faqatgina Sefotaksim (Klaforan, Sefantral) va Sefriakson (Rotsefin, Lendatsin, (Eframaks) dan foydalaning.

**Sulfametoksazol + Trimeroprime** (T-iseptol 480, Biseptol, Ko-Trimoksazol, Groseptol, Baktrim, Berlotsid, Septra, Primotren, Sinersul, Sumetrolim, Oriprim).

*Bularni bolalar va emizikli ayollarda ishlatish mumkin. Lekin, iloji bo'lsa,*

*homiladorlarga bu dorini bermang. Ayniqsa homiladorlikning oxirgi davrida ichilmasligi kerak. Uning o'rniga Sefotaksim (Klaforan, Sefantral) ishlatilishi mumkin.*

Agar oddiy ich ketishi bo'lsa, yuqoridagi dorilarni bermang.

Dorining miqdori xususida 642- bega qarang.

**Nalidiksonat Kislota (Negram)**

0,5 g. tabletkalarda chiqariladi. Homiladorlarga bu dorini bermang.

**Miqdori:**

Kattalar: 1,0 g. kuniga 4 mahal.  
Bolalar: 12 mg. har bir kilo uchun kuniga 4 mahal.

7-11 yoshdagli bolalar: 250 mg. (1/2 tabletka). 3-6 yoshdagli bolalar: 150 mg. (1/3 tabletka). 1-3 yoshdagli bolalar: 120 mg. (1/4 tabletka).

**Siprofloxatsin** (Sifloks, Sipro, Siprolet, Tifloks, Sefobak, Siprokor, Siteral).

250 mg., 500 mg., 750 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Ushbu dori qonli yoki isitmali ich ketishga qarshi juda foydalidir. Shuningdek u ich terlamaga qarshi ham ishlatiladi.

**Bolalar, homilador yoki emizikli ayollar bu dorini ishlatmasligi kerak.** Ularga Sefotaksim (Klaforan yoki Sefanral) berasiz.

**Miqdori:** 500 mg. (Ikkita 0,25 g. li tabletka) 5-7 kun davomida kuniga ikki mahal.

**Sefotaksim** (Klaforan, Sefanral) va **Sefriakson** (Rotsefin, Lendatsin, Oframaks).

**Ularni homiladorlar va bolalarga ishlatish mumkin.**

Antibiotiklar bilan tuzalmayotgan qonli yoki isitmali ich ketarda shulardan birini ishlatish kerak.

Miqdorlar uchun Dorilar bo'limiga qarang.

### **Amyobiaz va Lyamblioza qarshi Dorilar**

Amyobalar tufayli ichketarda axlat ko'pincha ko'p shilimshiqli yoki bir oz qonli bo'ladi. Ko'pincha ichaklar tortishib og'riydi, ammo bir oz isitma bo'lishi ham mumkin. Amyobali ich ketish Metronidazol yoki Tinidazol bilan davolanadi.

**Tinidazol** (Tiniba, Fazijin).

Ushbu antibiotik lyamblioza va amyobiazga qarshi yaxshi foyda

beradi. U bolalarda ham ishlatilishi mumkin.

Ushbu dorini qabul qilish davrida spirtli ichimliklarni iste'mol qilmang. 250; 500 mg. li tabletkalarda chiqarildi.

### **Miqdori:**

Lyamblioza qarshi:  
Kattalar: 2 g. bir marotaba.  
Bolalar: har bir kilo uchun 50 mg. dan bir marotaba (eng yuqori miqdori kuniga 2 g.).

### **Amyobiazga qarshi**

Kattalar: 3 kun davomida bir mahal 2 g. dan.  
Bolalar: har bir kilo uchun 60 mg. dan 3 kun davomida kuniga bir mahal (eng yuqori miqdor kuniga 2 g.)

**Metronidazol** (Trixopol, Flagil, Metrogil, Klion, Efloran).

Ushbu antibiotik lyambliozi, amyobiazlarni davolashda foydalidir. Shuningdek, u oshqozon, ichak yaralarini davolovchi antibiotik sifatida ham ishlatiladi (321 - betga qarang). Dorining qabuli vaqtida spirtli ichimlik ichmang.

**Homiladorlikning birinchi 3 oyida bu dorini ishlatmang.** 200; 250; 400; 500 mg.li tabletkalarda chiqarildi.

**Lyambliozi:**

Kattalar: 250 mg. dan kuniga 3 mahal 5 kun davomida.

**Bolalar:**

8-12 yoshdagi bolalar: 125 mg. dan kuniga 3 mahal.

3-7 yoshdagi bolalar: 60-100 mg. dan kuniga 3 mahal.

3 yoshgacha bolalar: 10-60 mg. dan kuniga 3 mahal (har bir kilo uchun 5 mg. bo'ladi).

**Amyobiaz:**

Kattalar: 750 mg. dan kuniga 3 mahal 10 kun davomida Bolalar:

10-12 yoshdagi bolalar: 400-500 mg. dan kuniga 3 mahal

7-9 yoshdagi bolalar: 300-375 mg. dan kuniga 3 mahal

4-6 yoshdagi bolalar: 225-250 mg. dan kuniga 3 mahal

2-3 yoshdagi bolalar: 165-200 mg. dan kuniga 3 mahal

1-2 yoshdagi bolalar: 150 mg. dan kuniga 3 mahal

4-12 oylik chaqaloqlar: 90-125 mg. dan kuniga 3 mahal

0-3 oylik chaqaloqlar: 50 mg. dan kuniga 3 mahal.

**Furazolidon (Nifolidon, Apzon, Eurokson).**

Bu dori lyambliozi, vabo va qonli ich ketishiga qarshi ta'siri bor - lekin boshqa dorilarga nisbatan foydasi

kamroq. ***U homilador ayollar va bolalarda ham ishlatalishi mumkin.***

50; 100 mg. li tabletkalar.

15 ml. da 50 mg. li suyuqlik va boshqa ko'rinishida chiqariladi.

**Miqdori:**

Kattalar: 100 mg. dan 5 kun davomida kuniga 4 mahal.

Agar lyambliozi degan shubha bo'lsa, 7-10 kun davomida davol-ang.

1 oylik va undan katta bolalar: har bir kilosi uchun 1,5-2,0 mg. dan 5-7 kun davomida kuniga 4 mahal .

10-12 yoshdagi bolalar: 50 mg. dan kuniga 4 mahal.

7-9 yoshdagi bolalar: 40 mg. dan kuniga 4 mahal.

4-6 yoshdagi bolalar: 30 mg. dan kuniga 4 mahal.

1-3 yoshdagi bolalar: 20 mg. dan kuniga 4 mahal.

7-11 oylik chaqaloqlar: 15 mg. dan kuniga 4 mahal.

2-6 oylik chaqaloqlar: 8-10 mg. dan kuniga 4 mahal.

**26. ICH QOTISHI (QABZIYAT)**

Turli xil ich yurgizuvchi va yumshatuvchilarni ishlatish yoki ishlatmaslik haqida 83 - betda aytilgan. Odamlar ich yumshatuvchi dorilarni shundoq ham keragidan ortiq ishlatishmoqda.

**Ular faqat, ich juda qotib ketgan va ichni bo'shatish uchun odam og'riqdan qiynaladigan paytdagina ishlatalishi kerak.** Ichi ketayotgan, ichagi og'riyotgan yoki suvsizlangan odamga ich yumshatuvchilarni hech qachon bermang.

Ich yumshatuvchilarni 2 yoshdan kichik bolalarga ham bermang.

Umuman olib qaraganda, axlatni eng yaxshi yumshatuvchilar bu ko'p tolali ovqatlar: sabzavotlar, olma, olxo'ri, qovun kabi mevalar. Ko'p suyuqlik ichish (kuniga 8 piyola suv) ham yordam berishi mumkin.

### **Sano (Kassiya) o'simligi**

Ushbu o'simlikni har kuni ichmasligingiz kerak. Agar har kuni ichsangiz unga o'rganib qolishingiz mumkin, lekin haftada ikki mahal ichishingiz mumkin.

**Miqdori:** 0.5-1 choy qoshiq bargini qayna- tilgan 200 ml. suvgaga damlab iching.

### **Magniy tuzi (Sol Amarum).**

Oq kukun yoki kristal ko'rinishida bo'ladi.

Magniy Sulfat 25 % li ampulalarda ham chiqariladi. Tarkibida 0,25 g. magniy sulfat bor. Agar suv bilan

arashtirsangiz, ichsa bo'ladi.

### ***Miqdori:***

Bu dori achchiqligidan quyidagi miqdorni bir piyola sharbat bilan arashtirib iching. Och qoringa ichilganda yaxshi ta'sir qiladi.

Kattalar: 5 g.

Bolalar (har bir kilo uchun 0,25 g.)

6-12 yoshdagи bolalar: 3 g.

2-6 yoshdagи bolalar : 2 g.

2 yoshga to'Imagan bolalarga bermang.

### **Bisakodil (Dulkolaks)**

5; 10 mg. li shamchalar ko'rinishida ishlab chiqariladi.

O'q ko'rinishidagi bu dori orqa peshovga qo'yiladi. Ichakni yurgizadi va axlat chiqishini osonlashtiradi. Shamchani qo'yaningizdan so'ng 15-30 minut yotish shamchaning tushib ketishidan saqlaydi. **Dorini haftasiga ikki martadan ortiq ishlatmang.** Agar ularni ko'p ishlatsangiz, organizm ularga o'rganib qoladi.

Dori ko'pincha 1 soat ichida ta'sir qila boshlaydi.

### ***Miqdori:***

Kattalar va 12 yoshdan katta bolalarga: bitta 10 mg. li shamchadan. 2-12 yoshdagи bolalarga: bitta 5 mg. li shamchadan.

**Mineral yog'.**

Bu ko'pincha bavosili (gemorroy) bor, axlati qattiq va og'riq bilan kel-adigan odamlarda ishlataladi. Lekin haqiqatda u axlatni yumshatmaydi, balki yog'laydi. Tolalari ko'p bo'lgan sabzavot va mevalarni iste'mol qilgan yaxshiroqdir.

**Miqdori:** kattalar va 12 yoshdan katta bolalar: kechki ovqatdan 1 soat so'ng 2-3 choy qoshiq iching. 5-11 yoshdagи bolalarga: 1-2 choy qoshiq bering. Ovqat bilan birga ichmang, chunki yog' ovqatdagи ba'zi vitaminlarni o'ziga tortib oladi.

**OGOH BO'LING:** *Yotganiningizda ichmang.*

*5 yoshdan kichik bolalar va homilador yoki emizikli ayollar, joyidan tura olmaydigan bemorlar va yutishga qiynaladigan odamlarga bermang.*

**Glitserin Suppozitoriy** (shamcha). Bular orqa peshovga qo'yiladi-gan dorillardir. Ular asta ichaklarni yog'laydi va axlatning tashqariga chiqishini osonlashtiradi. Bu dori bolalarga ham ishlatalishi mumkin.

Shamcha yoki suyuq ko'rinishlarida bo'ladi.

**Miqdori:**

Kattalar va 6 yoshdan katta bolalar: 3 g. li shamcha yoki 5-15 ml. ho'qna-klizma sifatida.

6 yoshgacha bolalar: 1-1,5 g. li

shamcha yoki  
2-5 ml. ho'qna-klizma sifatida.

**27. QURTLAR (GIJJALAR)**

Qurtlarni yo'qotish yetarli emas. Shaxsiy va jamoa tozaligi talablariga rioya qilish kerak. Agar oiladagi biror kimsaning qurti bo'lsa, butun oilani davolash yaxshidir.

**Mebendazol** (Vermoks, Vormnil, Vermizol, Vormin).

Ko'pincha 100 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Ushbu dori ankilostoma, qil-bosh gjija, askarida, ostritsa, stron-giloidoz va boshqa qurtlarga qarshi ishlataladi. Shuningdek, dori trixi-nellyozda ham biroz foydali bo'lishi mumkin. Og'ir qurt infeksiyalarning davolanishida ichakda biroz og'riq va ich ketish hollari kuzatilishi mumkin, ammo salbiy ta'sirlar ko'p uchramaydi.

**EHTIYOT BO'LING:** *Mebendazol ni homilador va 2 yoshga kirma-gan bolalarga bermang.*

**Miqdori:**

100 mg. li tabletkalar ishlataliganida: Kattalar va bolalarga bir xil miqdorda bering.

**Askarida, qilbosh gjija va stron-giloidozlarga** qarshi: bitta tablet-kani kuniga 2 mahal (ertalab va kechki payt) 3 kun davomida (ham-masi bo'lib 6 tabletka) ichiring.

**Ostritsaga qarshi:** 3 hafta davomida haftada bitta tabletkadan ichiring.

**Pirantel** (Gelmintoks, Kombantrinum).

125; 250 mg. tabletkalarda chiqariladi.

Ushbu dori ankilostoma, qilbosh gijja, askarida, ostritsaga qarshi ishlataladi.

Salbiy ta'sirlari kam, lekin bosh og'rishi, ko'ngil aynishi va ich ketishi mumkin.

**EHTIYOT BO'LING:** *Piperazin bilan birga ichmang.*

**Miqdori:**

Har bir kilo uchun 10 mg. dan bir mahal berasiz. Shuningdek:

Kattalar: 500-750 mg. bir marta

Bolalar:

8-12 yoshdagи bolalar: 200-350 mg.

bir marta

4-7yoshdagи bolalar: 150-200 mg.

bir marta

1-3yoshdagи bolalar: 100-125 mg.

bir marta

6-12 oylik chaqaloqlar: 75-90 mg.

bir marta

3-6 oylik chaqaloqlar: 50 mg. bir

marta

**Piperazin Adipinat**

1 ml. da- 50 mg. suyuq dori shakli da chiqariladi.

**Ogoh bo'ling:** *Tutqanoq kasalining bo'lsa, bu dorini ichmang. Boshqa dori ishlating.*

**Miqdori:**

Askaridozni davolash uchun piperazin miqdori: Har bir kilo uchun 75 mg. kuniga bir marta.

500 mg.li tabletka yoki 1 ml. - 50 mg. dan suyuq dorini har kuni bir marta 2 kun davomida bering.

kattalar: 3500 mg. (3,5 g.)

8-12 yoshdagи bolalar: 2500 mg. (3 osh qoshiq)

3-7 yoshdagи bolalar: 1500 mg. (2 osh qoshiq)

1-3 yoshdagи bolalar: 1000 mg. (1 (1/3) osh qoshiq)

1 yoshgacha bolalar: 500 mg. (2/3 osh qoshiq)

**Albendazol\***

Ushbu dori O'zbekistonda topilmasligi mumkin. 200 va 400 mg. li tabletkalarda chiqariladi. Ta'siri mebendazol kabitidir, ammo ko'pincha qimmatroq bo'ladi.

U ankilostoma, qilbosh gijja, strongiloidoz, askarida, lentasimon qurt, exinokokkoz, ostritsalariga qarshi kurashadi, salbiy ta'sirlari kam uchraydi.

**EHTIYOT BO'LING:** *Albendazolni*

***homilador ayollarga bermang.******Miqdori:***

1 yoshli bolalar va kattalarga bir xil miqdorda bering.  
 - 12 oylik bolalar: 200 mg. dan ishlating.

Ostritsa, askarida, qilbosh gjija, ankilostomalarda: 400 mg. (2ta tabletka), bir marta

Lentasimon qurt: 400 mg. dan har kun bir mahal, 3 kun ichasiz.

Strogiloidoz: 400 mg. (2 tabletka) kuniga 2 mahal 3 kun davomida ichiladi va bir haftadan so'ng muolaja takrorlanadi.

Exinokokkoz: 400 mg. dan kuniga 2 mahal ichib boriladi. 1 oy davomida iching,

2nchi oy dam olasiz, keyingi oy yana ichasiz.

Odamga jarroh yordami kerak. Agar exinokokk tarqalib ketgan bo'lsa va operatsiya qilishning imkoniyati bo'lmasa, quyidagi davolash tartibini tavsiya qilamiz:

400 mg. dan kuniga 2 mahal 1 oy davomida iching, so'ng 2-4 hafta dam oling va yangi oydan davoni takrorlang. Umuman davolash tartibini 8 martagacha takrорlash mumkin.

Bolalar uchun: har bir kilo uchun

10-15 mg.

**Prazikvantel (Azinoks, Beltrizid).**

150 mg. li va 600 mg. li tabletkalar-da chiqariladi.

**EHTIYOT BO'LING: Homilador ayollar va 3 yoshgacha bo'lgan bolalar prazikvantel ichmasliklari kerak. Emizikli ayollar dorini qabul qilishi mumkin, lekin oxirgi qabulidan so'ng 72 soat davomida bolalarini emizmasliklari kerak (sutni sog'ib, to'kib yuboring).**

**Salbiy ta'sirlari:** Prazikvantel charchoq, bosh aylanishi, bosh og'rishi va ishtaha yo'qolishi kabilarga olib kelishi mumkin, ammo lentasimon qurtlarni davolanishida ishlatiladigan kichik miqdorlarda salbiy ta'sirlar kam uchraydi.

Lentasimon (Tasmimon) qurtlarning ko'p turlariga, jumladan, qoramol va cho'chqa lentasimon qurtlari ham ularga qarshi ishlatiladi.

**Miqdori:** (har bir kilo uchun 10 mg. kuniga bir marta). Faqat bir marotaba qabul qiling.

600 mg.li tabletkalar ishlatilganida:

Kattalar: 600 mg.

8-12 yosh bolalar: 300 mg.

4-7 yosh bolalar: 150 mg.

Kalta lentasimon(tasmimon) qurtlarga qarshi ko'proq miqdor ishlatiladi:

Faqat bir marotaba qabul qiling.  
kattalar: 1500 mg.  
8-12 yoshdagi bolalar: 600 mg.  
4-7 yoshdagi bolalar: 375 mg.

### **Niklosamid (Fenasal)**

Ko'pincha 500 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

Niklosamid lentasimon qurtlarga qarshi eng yaxshi doridir. U ichakdagi lentasimon qurtlarning ko'p turlariga qarshi kurashadi, ammo ichakdan tashqarida joylashgan kistalarga qarshi emas.

### **Lentasimon qurtlarga qarshi niklosamid miqdori:**

**Faqat bitta miqdornigina yaxshilab chaynab yuting.** Dorini ichishdan 2 soat oldin yoki keyin ovqatlanmang. Klizma qilish lentasimon qurtlardan qutulishga yordam berishi mumkin.

kattalar va 8 yoshdan katta bolalar:  
2 g. li dorini chaynab ichilsin.  
2-8 yoshdagi bolalar: 1 g.  
2 yoshgacha bolalar: 500 mg.

### **Tiabendazol\***

Ushbu dori O'zbekistonda hali bo'imasligi mumkin.

Ko'pincha 500 mg. li tabletka yoki mikstura (5 ml. da 1 g.) holida bo'la-di.

Tiabendazol, mebendazol yoki al-

bendazollarga nisbatan ko'p salbiy ta'sirlarga sabab bo'lgani tufayli uni faqat yuqorida aytilgan dorilar topilmaganda yoki qurtlar ichakdan tashqarida bo'lgan hollarda ishlatish kerak.

U ankiostoma, qilbosh gjija va strongiloidozlar guruhiга kiruvchi boshqa qurtlarga qarshi ishlatiladi. U, shuningdek, askarida va os-tritsalarda ham ishlatiladi, ammo piperazinning salbiy ta'sirlari kamro-qdir. U yordam berishi mumkin.

**OGOH BO'LING: Tiabendazol askaridaning tomoqqa qarab chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa nafas olishni qiyinlashtirishi mumkin.**

Shuning uchun, agar siz bemorda boshqa qurtlardan tashqari askarida ham borligini taxmin qilsangiz, tiabendazolni berishdan oldin uni avval piperazin bilan davolash oqilona bo'ladi.

**Salbiy ta'sirlari: Tiabendazol ko'pincha charchoq, o'zini kasaldek his qilish va ba'zan qayt qilishlarga olib kelishi mumkin.**

### **Miqdori:**

(har bir kilo uchun 50 mg. hisobidan ichiladi): 500 mg. li tabletkalar yoki 5 ml. dagi 1 g. mikstura shaklida chiqariladi.

3 kun davomida 2 mahal bering.  
Tabletkalarni chaynab ichish kerak.

Bir martalik miqdori:

kattalar: 1500 mg.  
8-12 yoshdagi bolalar: 500 mg.  
4-7 yoshdagi bolalar: 375 mg.  
1-3 yoshdagi bolalar: 250 mg.  
6-12 oylik chaqaloqlar: 150 mg.  
3-6 oylik chaqaloqlar: 75 mg.

## 28. GEMORROY (BAVOSIL)

**Gidrokortizon 1 % li Maz(surtma),  
Gidrokortizon shamchalar,  
Benzokain (Anestezol shamchasi),  
Anestezin mazi(surtmasi) 5  
%-10% li,  
Novokain shamchasi,  
Troksevazin 2 % li.**

Ushbu dorilar gemorroy (Bavosil) og'rig'ini pasaytiradi. Axlatni yumshatuvchi parhezlarga rioya qilish muhimdir. Ich qotishi haqida 715-betga qarang.

### Miqdori:

Shamcha: Shamchani ichingiz kelganidan so'ng va yotishdan avval orqa peshovga qo'ying.

Krem: Ich kelgandan so'ng va yotishdan avval gemorroy ustiga surting.

## 29. VAGINITGA QARSHI DORILAR

Qindan chiqadigan suyuqlik (ajramalar), qichishish va noqulayliklarning sabablari turli xil infeksiyalar bo'lishi mumkin. Bulardan eng ko'p uchraydiganlari trixomonoz, mog'or, kandidamikoz va bakteriyalardir. Tozalik va spirtli, suvli purkashlar (sprinsevaniyalash) ko'p infeksiyalarga qarshi ta'sir qiladi. Maxsus dorilar ham quyida berilgandir.

### A. Po'panak (zamburug', kandidamikoz)

*Ko'pincha qichishish va achishish hamda bir oz ajralmalarning chiqishiga olib keladi.*

### Osh sirkasi (uksus)

70 % li sirka (osh sirkasi). 1 choy qoshiq 70 % li osh sirkasini bir litr qaynatilgan suv bilan aralshtiring. So'ng kuniga 1-3 martadan bir hafta davomida, so'ng har ikki kunda bir yana bir hafta davomida qinni yuvning. Bu ayniqsa, qindagi bakterial infeksiyalarga qarshi yaxshi kurashadi.

### Klotrimazol (Kanesten, Lotrimin, Yenamazol).

Qin tabletkalari: 100; 500 mg.  
Qin kremi: 1 % li.

**Miqdori:**

Qinga 7 kecha tabletka qo'yib yoting.

Agar krem ishlatilayotgan bo'lsa, 7 kun davomida (taxminan 50 mg.) kremni yotishdan avval qinga qo'yib turing.

**Nistatin (Mikostatin mazi(surtmasi))**

Krem (yoki tabletkalar)ni 14 kun davomida kuniga ikki mahal qinga qo'yib turing. Klotrimazolga nisbatdan foydasи kamroq.

**Borat kislota - faqatgina qinga ishlatiladi. U hech qachon ichilmasligi kerak!**

Sizga dorixona xodimi uni qindagi boshqa narsalar bilan davolab bo'lmaydigan yoki boshqa davanish usullarining iloji bo'lmagan hollarda tavsiya etishi kerak va zamburug'(kandidamikoz) ga qarshi ishlatiladi.

**Miqdori:**

homilasi yo'q ayollar: 600 mg. li shamcha, kapsulani 14 kun davomida kuniga ikki mahal qinga qo'yishi kerak (**bolalardan uzoqroqda saqlang va hech qachon ichmang**).

**Flukonazol (Diflyukan)**

Bu qimmat, lekin juda foydali va oson ishlatiladigan doridir. 50; 100; 150; 200 mg. li kapsulalar-da chiqariladi.

**Miqdori:**

150 mg. ni faqat bir marotaba ichiladi.

**B. Bakterial Vaginit va Trixomonoz.**

**Dorini qabul qilish davomida spiritli ichimlik ichmang va uni homiladorlikning dastlabki 3 oy davomida ishlatmang. Iloji bo'lsa homiladorlik vaqtida qabul qilmang. Uning o'rniga Klotrimazol (Kanesten, Lotrimin, Yentamazol) larni ishlatishga harakat qiling.**

**Tinidazol (Tiniba, Fazijin)**

**Bu dorini qabul qilish davrida spiritli ichimliklarni iste'mol qilmang.**

250; 500 mg. li tabletkalarda chiqariladi.

**Miqdori:**

**Trixomonoz va yengil bakterial vaginitda:**

2 g., bir marotaba

**Bakterial vaginitda:**

0,5 g. dan kuniga 2 mahal 5 kun

iching.

**Metronidazol** (Trixopol, Flagil, Metrogil, Klion, Efloran). Qin tablet-kalari:  
200; 250; 400; 500 mg. li bo'ladi.

#### **Miqdori:**

500 mg. 7 kun davomida, kuniga ikki mahal qingga qo'yiladi.  
Ichiladigan 0.5 g. li tabletkasi 7 kun davomida  
1 tadan kuniga 2 mahal ichiladi.

## 30. TANOSIL KASALLIKLARI

**Gonoreya (So'zak) va Xlamidiaga** qarshi dorilar: 18 bob, 437-440-bet-larga qarang. **Ushbu ikki kasallik bitta odamda bir vaqtning o'zida bo'lishi mumkin, ba'zan ularni belgilariga qarab ajratish qiy-indir. Ko'pincha bu kasallikkarning ikkalasida ham ushbu dorilar ichiladi.**

**Xlamidiozga qarshi dorilar (bitta-sini ishlating).**

**Tetratsiklin\*\*\*** (Reverin) 500 mg. 7 kun davomida kuniga 4 mahal.

**Doksitsiklin\*\*\*** (Vibramitsin) 100 mg. 7 kun davomida kuniga ikki mahal.

**Eritromitsin** (Erik, Ertromsin,

Ilozon) 500 mg. 7 kun davomida kuniga 4 mahal.  
yoki

\*\*\* *Homiladorlikda qabul qilmang.*

**Azitromitsin (Sumamed)**  
1,0 g faqat bir marotaba ichiladi.

Ushbu dorilarni qabul qilish-dan avval ular haqidagi ma'lumotga - Dorilar bo'limiga qarang. **Oldida\*\*\* shunday belgi ishlatalig'an dorilar homiladorlikda ichilmasligi kerakligiga e'tibor bering.**

**Quyidagi kasalliklar shu infeksiyalar sababli kelib chiqadi:**

**Uretrit** - siydiq chiqarish kanalining yallig'lanishi.

**Servitsit** - bachadon bo'ynining yallig'lanishi.

**Salpingit** - dori miqdorlari haqida 18-bob, 451-betga qarang.

**Epididimit** - (moyak ortig'inining yallig'lanishi).

**Gonoreya (So'zak)ga qarshi quyidagi dorilar Xlamidiozga qarshi dorilardan **biri bilan** birligalikda ishlatalishi kerak.**

**Gonoreya (So'zak)ga qarshi (bitta-sini ishlating) Sefriakson (Rotsefin, Lendatsin, Oframaks) 125 mg.**

muskulga qilinadigan ukol, faqat bir marotaba ishlatiladi.

**Sefiksim** (Sefopan) 400 mg. faqat bir marotaba ichiladi.

**Ofloksatsin\*** (Tarivid) 400 mg. faqat bir marotaba ichiladi.

Yoki

**Siprofloksatsin\*** (Sifloks, Sipro, Siprolet.Tifloks, Sefobak, Siteral) 500 mg. faqat bir marotaba ichiladi.

Metronidazol (Trixopol, Flagil, Metrogil, Klion, Efloran) qabul qilmang.

### 31. PAPILLOMATOZ

#### **Podofillin (Podofilinum)**

Podofillin (Podofilinum) 10-25 % li suyuqlik ko'rinishida chiqariladi.

U odatda jinsiy a'zolardagi so'gallarni kamaytirish uchun ishlatiladi. Podofillin sog'lom teriga salbiy ta'sir qiladi, shuning uchun ehtiyojkorlik bilan ishlatilishi kerak. Dorini ishlatishdan avval so'gallar atrofidagi teriga Vazelin yoki boshqa yog'li maz(surtma) surtsangiz yaxshi bo'ladi. (Bu ayniqla erlik olatidagi teri kabi so'galga tegishi mumkin bo'lgan sog'lom teri uchun muhimdir.)

Suyuqliknini surting va u quri-

sin. Uni 3-6 soatdan so'ng yuvib tashlang. Muolaja keyingi haftasiga qaytarilishi mumkin. Odatda bir necha haftalik muolajalar qilinishi kerak bo'ladi.

**OGOH BO'LING: Dori ichilmasligi kerak.**

*Agar sirtqi salbiy ta'sirlari kuchli bo'lsa, dorini boshqa ishlatmang. Podofillin qonayotgan so'gallarda, homilador va emizikli ayollar-da ishlatilmasligi kerak.*

#### **Dixloratsetat kislota**

Ko'pincha tiniq suv ko'rinishida chiqariladi.

Podofillin topilmagan joylarda, so'gallarni kamaytirish uchun dixloratsetat kislota ishlatilishi mumkin. Lekin u sog'lom terini shikastlashi mumkin, shuning uchun ehtiyojkorlik bilan ishlatilishi kerak.

So'gal atrofidagi terini Vazelin yoki boshqa yog'li maz(surtma) bilan himoya qilishingiz lozim.

Katta va yo'g'on so'gallaragi o'lik qatlamni ehtiyojkorlik bilan kesib tashlang. Tish tozalagich yordamida so'galga kislotadan kichik tomchi tomizing.

Tish tozaligichning uchi bilan kislotani so'gal ichiga biroz ishqalab kirititing. Bir necha davolash muola-

jalari kerak bo'lsa mustaqil ravishda har haftada qaytarilishi mumkin.

**OGOH BO'LING: Kisloti jiddiy kuyishlarga olib kelishi mumkin. Qo'l terisi va terining sog'lom joylarini kislotadan saqlang va tegib ketgan paytlarda zudlik bilan o'sha joyni toza suvda yuvung.**

## 32. HOMILADORLIKdan SAQLAYDIGAN DORILAR

**Ichiladigan dorilar. Masalan: Levonorgestrel + Etnilestradiol** (Rigevidon, Ovidon, Triziston, Mikroginon, Trikvilar va boshkalar).

Quyidagi dorilarni O'zbekistonda topolmaysiz. Bu dorilar bepul beriladi. Hozirgi paytda yangi dorilar paydo bo'layotgani tufayli boshqa dorilarni topishingiz mumkin.

### **E'tibor bering:**

Miyaga qon quylgan, tromboflebit, yurak infarkti, ko'krak beziraki, yuqori qon bosimi va sariq kasalligi bor ayollar bularni ichmasligi kerak.

Emizikli ayollar yoki bu dorilardan boshi og'riydigan, qon bosimi ko'tariladigan yoxud yoshi 40 dan oshgan ayollar faqat progesteronli dorilarni afzal ko'rishlari mumkin - 4-guruhga qarang.

Homiladorlikdan saqlovchi ichiladigan dorilarning ishlatalishi, xavfi va ehtiyyot choralari haqida 515-519-betlarda berilgan. Quyidagi ma'lumot har bir ayol uchun kerakli dorini tanlash haqidadir. Kontratseptiv dorilar tarkibida 2 xil gormon bor, ular ayol organizmi hayz davri davomida ishlab chiqaridan gormonlarga o'xshash. Ushbu gormonlar Estrogenlar va Progesteronladir.

Har xil nomdag'i kontratseptivlarda shu ikki gormon turli miqdorda bo'ladi. Umuman, tarkibida ikkala gormon ham ozroq miqdorda bo'lgan dorilar ko'p ayollar uchun xavfsizroq va foydaliroqdır.

Estrogenni 0,030-0,035 mg. dan boshlab iching. Progesteronlar: Levonorgestrel, Gestoden, Norgestimate, Desogestrel. Ko'p ayollar 1- yoki 2- guruh dorilari bilan boshlashlari kerak.

**1 - Guruh. Tarkibida estrogen va progesteronlarning kam miqdorda bo'lgan dorilar.**

**Brevikon 1+35,  
Norinil 1+35,  
Orto-Novum 1/35,  
Ovysmen 1/35,  
Brevinor,  
Modikon,**

**Ovkon,  
Ovysmen,  
Loestrin 1/20**

1- guruh dorilarining kamchiligi shuki, ular hayzlar orasida dog'lar paydo qilishi mumkin, dorini ichishda hatto bir marta esdan chiqib qolganida ham bo'yida bo'lib qolish xavfi tug'iladi.

**Logunon,  
Sinofaze,  
Trinordiol,  
Trinovum,  
Tikuilar,  
Tifazil.**

Ushbu tabletkalar tarkibidagi gormonlar miqdori har kuni o'zgarib turadi, shuning uchun ularni bir tartibda ichish zarurdir. Dorilarning ta'sirini oshirish va miyaga qon quylishining oldini olish uchun, gormonlar miqdori kam bo'lgan dorilarni har kuni bir xil vaqtda ichish muhim. Agar dog'lar paydo bo'lishi 3-4 oydan so'ng ham davom etsa, dorilarni 2-guruh dorilariga almashtirishingiz mumkin.

Agar hayzlar orasida qon kelish hali ham kuzatilsa, 3 - guruh dorilaridan ishlatib ko'ring. Odatda, homiladorlikdan saqllovchi dorilarni ichuvchi ayollarning hayz davrida qon kamroq keladi.

Bu kamqon ayollarga yordam berishi mumkin. Lekin, agar

ayolning hayzi oylab kelmasa yoki hayzi davomida juda oz miqdorda qon kelsa, u Estrogeni ko'proq, 3-guruhdagi dorilardan qabul qilishi mumkin.

**2 - Guruh. Progesteroni ko'proq,  
Estrogeni ozroq dorilar**

Hayz davrida qon ko'p keladigan yoki hayz boshlanishidan avval ko'kraklari og'riydigan ayollar tarkibida estrogeni kamroq, ammo progesteroni ko'proq dorilardan ichishi kerak.

**Lo-Femenal,  
Lo-Ovral,  
Mikrogunon 30,  
Mokrovlar,  
Nordett.**

Husnbuzarlari bo'lgan yoki qo'ltig'i va jinsiy a'zosida tuki ko'p bo'lgan ayollarga ushbu 2-guruh dorilarni ishlatish maslahat berilmaydi.

**3 - Guruh. Estrogeni ko'proq dorilar. Bularning ko'pidi progesteron miqdori ham ko'proq bo'ladi.**

Hayzi kelmayotgan yoki dog' bo'lishi davom etayotgan yoki boshqa xil dorilarni ichishdan avval homilador bo'lib qolgan ayollar estrogeni ko'proq bo'lgan dorilarni ichishi mumkin. Masalan:

**Minovlar,**  
**Norlestrin,**  
**Ovkon 50,**  
**Femenal,**  
**Egynon,**  
**Nordiol,**  
**Ovral,**  
**Primovlar,**  
**Neogynon,**  
**Ovulen,**  
**Demulen 1/50.**

Bular terda dog'ni hosil qilmaydi. Lekin estrogenga boy bo'lganligi sababli, juda kam hollarda ishlatiladi.

**4 - Guruh, faqat progesteroni bor tabletkalar.**

Emizikli ayollar yoki oddiy dorilardan boshi og'riydigan, qon bosimi ko'tarilgan yoki yoshi 40 dan oshgan ayollar faqat progesteronli dorilarni afzal ko'rishlari mumkin.

**Femulen,**  
**Mikronor,**  
**Mikrolug,**  
**Mikronovum,**  
**Ovrett.**

Ushbu dorilar har kuni bir xil vaqtda hatto hayz davrlarida ham ichilishi kerak. Lekin bu dorini ichganda hayz davridagi qon keli-shi odatiy emas. Shuningdek dorini ichishni unutib qo'yilganda homila-dorlik xavfi yuqoriroq.

**Prezervativlar: "Nirod" va bosh-qalar.**

Prezervativlarning turlari juda ko'p. Ba'zilari maxsus yog'lan-gan, rangli, ba'zilari esa spermitsidli bo'ladi.

Ko'shimcha qilib aytish mumkinki, prezervativlar nafaqat homiladorlikning oldini olishga yor-dam beradi (ayniqsa, spermitsidli-vari), balki jinsiy aloqa orqali yuqa-digan (tanosil) kasalliklardan ham saqlaydi, OITS ham shular jum-lasidandir. Ko'pchilik prezervativni homiladorlikdan saqlovchi boshqa usul bilan birgalikda ishlatishadi.

Prezervativlarning ishlatilishi hu-susida 20-bobda aytilgan.

**Bachadon ichki spirallari: Kop-per-T va boshqalar.**

Bachadon ichi spirallari to'g'risida ma'lumot olish uchun 521-betga qarang. Ularning bir necha turlari mavjud: Kopper-T va Kopper 7, yana biri Progestazert deb nomlanadigan spiral turi boshqalarga nisbatan qisqaroq muddatda almashtirilishi kerak.

Dalkon Shild deb nomlanadigan spirallar esa ko'plab muammolarga olib kelishi sababli ishlatilmasligi kerak.

Bachadon ichi spirallari avval homilador bo'limgan ayollar tomonidan ham ishlatilishi mumkin, ammo infeksiya tushib qolsa ayolning keyinchalik homilador bo'lishi ancha qiyinlashadi.

Spiral ayolning hayz siklining har qanday davrida qo'yiladi.

## Ukol qilinadigan kontratseptivlar:

### Depo Provera, Provera va boshqalar.

Ukol qilinadigan kontratseptivlarning tarkibida Progesteron deb ataladigan gormon bor.

U ichiladigan dorilarda ishlatiladigan gormon bilan bir xil. Ukol qilinadigan kontratseptivlar ko'p mamlakatlarda ishlatilmoqda.

Hozirga kelib ko'p odamlar ularning xavfsizligiga ishonmoqdarlar, lekin homiladorlikdan saqlanish uchun ishlatiladigan dorilarni kassalligi tufayli qabul qila olmaydigan ayollardan tashqari (346-bet).

Eng ko'p uchraydigan muammolardan biri qindan odatdan tashqari qon ko'p ketishiga olib

kelishi mumkin. Ayolda bir oy davomida qon ketishi yoki umuman qon kelmasligi ham mumkin.

Bunda katta yoshdagagi ayollar qon kelmaslikni klimakteriy davri deb o'ylaydilar va dori qabulini to'xtatadilar, buning natijasida homilador bo'lib qolishlari mumkin.

Ukol olishni to'xtatgandan so'ng, ayol bir yoki ikki yil ichida homilador bo'lmasisligi mumkin. Agar ukol homiladorlik vaqtida qilingan bo'lsa, bolasi nogiron bo'lib tug'ilishiha xavf ko'proq.

### Miqdori:

150 mg., mushakka har 3 oyda ukol qilinadi.

### Qalpoqchalar (Diafragma).

Foydaliroq bo'lishi uchun qalpoqchalar (diafragmalar) erkak urug'ini o'ldiruvchi (permitsidli) krem yoki jele bilan birgalikda ishlatilishi kerak. Diafragmani qinga kirgizishdan avval, diafragma ichiga va chetlariga bir oz krem surting (521-bet).

**Kontratseptiv Krem yoki Ko'pik Kremni ishlatish haqida ko'rsatma, 521- betga qarang.**

### Kontratseptiv shamlar.

Bu spermitsidli sham tablet-kalar bo'lib, ayol ularni qini ichiga, bachadon bo'yinchasi oldiga qo'yadi.

Sham jinsiy aloqadan 15 minut oldin qo'yilishi kerak. (Paket-dagi ko'rsatmalarga rioya qiling.) Agar prezervativ ham ishlatiladigan bo'lса, bu nisbatan ishonchli usuldir.

### **Implantlar: Norplant**

Barcha kontraseptiv usullar kabi ushbu usulning ham o'ziga yarasha kamchilik va afzalliklari bor.

Implantlar juda qulay, yuqori ta'sirli homiladorlikdan saqllovchi usuldir. Maxsus tibbiyot xodimi ayol qo'lining yuqori qismining terisi ostiga oltita progesteron gormoni bor kichik naychalarni joylashtiradi. Naylar 5 yil davomida homiladorlikdan saqlaydi, ayol dori ichishni unutib qo'yishdan bexavotir yuradi yoki har 3 oydan so'ng ukol qilinadigan dorilarni olishga bormaydi.

***Uchrashi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlari:*** odatdan tashqari ko'p qon kelishi, bosh og'riq, soch to'kilishi, vazn ortishi, husnbuzalar chiqishi, kayfiyatning tez o'zgarishi, tushkunlikka tushish, bosh aylanishi, titrash va implantat qo'yilgan joyning og'rishi yoki infeksiyalanishi.

Implantlarning eng katta

kamchiligi shuki, ularni bir marotaba qo'ygandan keyin olib tashlash qiyin bo'ladi.

Ularni olish uchun maxsus malakaga ega bo'lgan odam kerak. Implantlarning olinishi qo'yilishidan ancha og'riqli bo'lishi mumkin. Ba'zan ularni olishni biladigan odamni topish mushkul. Jiddiy muammo bo'lса, 5 yil o'tmasa ham implantlarni oldirib tashlang.

### **33. TUG'RUQDAN KEYIN QON KETISHI VA TOKSIKOZ**

#### **Tug'ruqdan keyin qon ketishi:**

Nazorat qiluvchi dorilarning ishlatilishi haqida 484-betga qarang. Agar yo'ldosh chiqqunga qadar (ammo bola tug'ilgandan so'ng) ko'p qon ketadigan bo'lса, oksitotsindan muskulga 1 ml. (5 E.D) ukol qilinishi mumkin.

Yo'ldosh chiqqunga qadar Metilergometrin ishlatmang, chungi u yo'ldosh chiqishiga to'sqinlik qiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqdagi qon ketishga qarshi Vitamin K ishlating (706-bet). K vitamini, ayolda tug'ruqdan keyingi, bola yoki abortdan qon ketganida yordam bermaydi.

**Metilergometrin (Metergin).** Ukol qilish uchun ishlatiladigan 0.2 % li eritmasi (1 ml. da 0.2 mg.).

Yo'ldosh chiqqandan keyingi qon ketishning oldini olish va nazorat qilish uchun ishlataladi.

**5 E.D. miqdorida ukol qiling.**  
Agar kuchli qon ketish davom etsa 15 minutdan so'ng yana 5 E.D.ni yuboring.

### ***Ukol qilinadigan metilergometrining miqdori:***

Yo'ldosh chiqqanidan keyingi og'ir (400 g.dan ko'p) qon ketishda 1 ampula (0,2 mg.) metilergometrindan muskul ichiga ukol qiling (yoki zarur hollarda venaga 1 ampula qilinadi). Miqdor 2 - 4 soatdan so'ng qaytarilishi mumkin, lekin 5 martadan oshiqcha bermang.

Qon ketishning oldini olish yoki kamaytirish (ayniqsa kamqon bo'lgan ayollar) uchun yo'ldosh chiqqandan keyin metilergometrindan 1 ampula ukol qiling.

### **Oksitotsin (Pitotsin)**

Ko'pincha 5 E.D. dan 1 ml. li ampu'lalarda chiqariladi.

***Ushbu dori bola tug'ilgan-dan so'ng, yo'ldosh chiqishidan avvalgi qon ketishini to'xtatish uchun ishlataladi. Shuningdek u yo'ldosh tushishiga yordam beradi, ammo faqat ko'p qon ketganda yoki yo'ldoshning tug'ilish vaqtida cho'zilib ketganda ishlatalishi kerak.***

***Bola tug'ilgandan keyin onaga beriladigan oksitotsin miqdori:***

### ***Homiladorlik toksikozi:***

**25%li Magniy Sulfat eritmasi** ukol-lari (tomir va mushak ichiga yuborish uchun)  
Har bir ml. da 250 mg. (0,25 g.) magniy sulfat bor. 12- bob, 304-307-betlarga qarang.

***Buni homiladorlik davrida tutqanog'i, shishlari va qon bosimi yuqori bo'lgan ayollarida ishlating*** (preeklampsiya, eklampsiya).

### ***Miqdori:***

(25 % li Magniy Sulfatni ishlataligani-da.) 16 ml (4 g) dan muskul ichiga (har dumbaga) ukol qiling (jami 32 ml yoki 8 g) so'ng 16 ml(4 g) miqdorda har 4 soatda bir muskul orasiga chuqur qilib yuboring. Eng yuqori kundalik miqdori 40 g.

### **33. SHIFOBAXSH O'SIMLIKLARI**

***E'tibor bering: Homilador va emizikli ayollar quyidagi o'simliklarini ichmasligi kerak.***

Qo'shimcha ma'lumot 78-81 betlarda topiladi.

**Arslonquyruq** (*Pustnrik*,

*Leonurus Cardiaca*): Asabiylanishda yordam beradi.

**Miqdori:** 2 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Bo'ymodaron** (*Tsyachelistnik*, *Achillea Millefolium*): Ichakning o'qtin-o'qtin og'rishi, gastrit va qorin og'rig'idan yordam beradi.

**Miqdori:** 2-3 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Valeriana tindirmasi** (*Valeriana Officinalis*): Asabiylanishdan yordam berishi mumkin. 1:5 nastoykasi bor.

**Miqdori:** 15-20 tomchi, kuniga 1-3 mahal ichiladi.

**Dalachoy** (*Trava Zveroboya*, *Hypericum Perforatum*):

Ruhiy tushkunlikdan yordam beradi.

**Miqdori:** 2-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching (asosiy dori dalachoydir, agar kerak bo'lsa Vitamin E ham qo'shing).

Ta'sir ko'rish uchun 2 yoki 3 hafta kerak bo'ladi.

**Do'lana** (*Boyarshnik*, *Crataegus Oxyacantha*): Yurak yetishmovchili-gi (astmasi)dan yordam beradi.

**Miqdori:** uni maydalab, 2-3 choy qoshiq choynakka solib, 150 gr. qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching (vrach nazorati ostida ichilsin).

**Katta Zubturum** (*Podorojnik*, *Plantago Major*): Astma, bronxit, shamo llashdan yordam beradi.

**Miqdori:** 2-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1-2 piyoladan iching.

**Karsil kapsula** (*O'simlikdan qilingan*, *Silybum Marianum*): O'tkir va surunkali sariq kasalligida qo'llaniladi.

**Miqdori:** 35 mg.li kapsula 3-6 tadan kuniga 2 mahal iching

**Moychechak** (*Romashka*, *Matricaria Chamomilla*): Ichakning o'qtin-o'qtin og'rishi, gastrit, qorin og'riq va uyqusizlikda yordam berishi mumkin.

**Miqdori:** 3 choy qoshiq choynakka solib, 150gr. qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Jag'-jag'** (*Pastushya sumka, Capsella Bursapastoris*): Hayz davridagi og'riqlarda yordam beradi.

Miqdori: 1-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Petrushka** (*Petroselinum crispum*): Buyrak toshlari uchun yordam berishi mumkin.

**Miqdori:** 2-5 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Sano** (*Kassiya, Senna Acutifolia*): Barglari ich qotishida yordam beradi. Lekin unga o'rGANIB qolmaslik uchun, ushbu o'simlikni har kuni ichmasligingiz kerak.

**Miqdori:** 0,5-1 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 1-2 mahal 1 piyoladan iching.

**Ehtiyyot bo'ling. faqat 2-3 kun davomida iching, bo'lmasa unga o'rGANIB qolish mumkin.**

**Soya uni** (*Glycine max*): Hayz ko'rishning to'xtashi paytdagi qizib ketishga qarshi yordam beradi.

**Miqdori:** har kuni 20-60 g dan ovqatda pishirib yeng.

**Tirnoqqul** (*Kalendula, Calendula Officinalis*): Teri yaralarida yordam berishi mumkin

**Taylorlash:** 2 choy qoshiqni 150 g qaynatilgan suv bilan aralashtirib, 15 minut tursin. Lattani ho'llab qo'ying.

**Yalpiz** (*Myata, Mentha piperita*): O't pufagi og'rig'i, ichakning o'qtin-o'qtin og'rishlarida yordam beradi.

**Miqdori:** 1 osh qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching. Yosh bolalarga bermang.

**Qatiq:** Ich ketar, tarvoq toshishi, va qindagi qattiq qichishish, oq tusli ajralma (po'panak, kandidamikoz) uchun yordam berishi mumkin.

**Miqdori:** 125 g kuniga 2 mahal iching. Ozroq shakarsiz qatiqni ham qinga qo'yish mumkin.

**Qizil (Shirin) miya** (*Solodka, Glycyrrhiza glabra*): Oshqozon, o'n ikki barmoq ichakdagiga yaralar, astma va bronxit uchun yordam berishi mumkin.

**Miqdori:** uni maydalab, 1-3 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Ehtiyyot bo'ling:** 1 oydan ortiq ichmaslik kerak.

**Qora Andiz (Korni Devyasila, *Inula helenium*):** Qurtlarni yo'qotishda yordam beradi.

**Miqdori:** 1 - 4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Extiyot bo'ling: Ortiqcha ichmasligingiz kerak!**

**Qichitqi (Krapiva, *Urtica urens*):**  
bu o'simlikning barglari buyrak tuz va toshlari uchun foydali.

Miqdori: 2-4 choy qoshiq choynakka solib, 150 g qaynatilgan suvni quyib, 15 minut turgandan keyin, kuniga 3 mahal 1 piyoladan iching.

**Fitolizin va Urolesan :**  
bular buyrakdagi toshlarga qarshi.

***Miqdori:***

Fitolizin - 1 choy qoshiqni 1/2 stakan shirali suvga (qaynab sovutilgan suvga ozgina shakar solingan) aralashtirib, kuniga 3 mahal ovqatdan keyin ichiladi.

Urolesan - 1 choy qoshiq shakar (1 ta oq qand) ga 8-10 tomchi tomizilib, ovqatdan oldin, kuniga 3 mahal ichiladi.